**Tajibayev G.Sh.**

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**Namangan davlat universiteti**

Tajibayev G.Sh.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH

*5112200 – Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (ingliz tili), 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili), 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi* talabalari uchun *o‘quv qo‘llanma*

NAMANGAN ― 2019

Taqrizchilar:

F.S.Azizova — O‘zDJTU, Ingliz tili o‘qitish metodikasi №2 kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

S.A.Misirov — NamDU, Ingliz filologiyasi fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dosent

Mazkur o‘quv qo‘llanmada respublikamizda boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘rganish va o‘rgatish bilan bog‘liq jarayonlar, o‘quvchilarning yoshga oid psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib ingliz tilining o‘rganilishini muvaffaqiyatli va samarali tashkil etish yo‘llari ochib berilgan. O‘quv qo‘llanmada boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari va innovatsion pedagogik texnologiyalari yoritilgan bo‘lib, u 5112200-“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (tillar bo‘yicha)”, 5111400-“Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha)”, 5120100-“Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish” fanidan adabiyot sifatida tavsiya etiladi.

В этом учебном пособии рассматриваются процессы, связанные с обучением и изучением английского языка в начальных классах, которые необходимо принимать во внимание исходя из возрастных психофизиологических особенностей учащихся для улучшения эффективности обучения.

Также в данном учебном пособии описываются теоритические основы и инновационные педагогические технологии при обучении английскому языку в начальных классах. Это учебное пособие рекомендуется в качестве учебника направлениям бакалавриата по 5112200 «Иностранный язык в начальном и дошкольном образовании (по языкам)», 5111400- «Иностранный язык и литература» (по языкам)», 5120100- «Филология и обучение языкам (по языкам)».

This textbook describes the process of learning and teaching English language in the primary classrooms in Uzbekistan, discovers successful and effective ways of learning to take place, taking into account the psychological and physiological agefactors of teaching English to young learners. The textbook puts learning in the centre of the frame and describes the theoretical basis and innovative pedagogical technologies of the methodology of English language teaching in the primary classrooms, and it is recommended to study the subject of “Teaching English in the primary classrooms” in the direction of bachelor's education 5112200-“Foreign languages in preschool and primary education (English language)”, 5111400-“Foreign language and literature (English language)”, 5120100-“Philology and language teaching (English language)”, as a textbook.

*O‘quv qo‘llanma Namangan davlat universiteti kengashining 2019 yil 11-dekabrdagi 4-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etulgan*

© Tajibayev G.Sh., 2019

## Mundarija

**Kirish ………………………………………………………………….. 5**

**BIRINCHI QISM. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING TA’LIMSHUNOSLIK ASOSLARI**

1.1. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish konsepsiyalari …………… 6

1.2. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish tamoyillari ……………….. 11

1.3. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘quv fanining xususiyatlari …....... 16

1.4. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning maqsad va vazifalari ... 29

1.5. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish vositalari ………………… 37

**IKKINCHI QISM. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING TILSHUNOSLIK ASOSLARI**

2.6. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining lingvistik asoslari …………………………………………………………………. 48

2.7. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining psixolingvistik asoslari ………………………………………………. 58

2.8. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining sotsiolingvistik asoslari ……………………………………………… 74

2.9. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sotsiolingvistik material tanlash xususiyatlari …………………………………………………..... 78

2.10. Sotsiolingvistik materialni tanlash birliklari va prinsiplari ………….. 88

**UCHINCHI QISM. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI**

3.11. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning psixolingvistik aspekti 105

3.12. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning yoshga oid xususiyatlari ………………………………………………………………. 112

3.13. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining psixologik asoslari ……………………………………………………….................... 120

3.14. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘rganish usullari ………………… 134

3.15. Boshlangich sinf o‘quvchilarini baholashga zamonaviy yondashuvlar 139

**TO‘RTINCHI QISM. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI**
4.16. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishga kommunikativ yondashuv ………………………………………………………… 143
4.17. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish mashqlari va ulardan foydalanishning innovatsion pedagogik texnologiyalari ……………… 152
**ILOVALAR ………………………………………………………………... 173**
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI …………………… 192**

## Kirish

Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang‘ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o‘qitilishiga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang‘ich ta’limga o‘quv predmeti sifatida kiritildi, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ingliz tili o‘qitish amaliyotida to‘plangan an’anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv qo‘llanmalarning yetishmasligi oqibatida mazkur soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yetarlicha samaradorlikka erishilmayapti.

Muallif yuqorida bayon etilgan muammolarni bartaraf etish, ya’ni mazkur ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, amaliyotchi o‘qituvchilar, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun maxsus o‘quv qo‘llanmani yaratish mas’uliyatini o’z zimmasiga olishga jurat etdi.

Qo‘lingizdagi kitob chet el (V.A.Skot va L.X.Yeterberg 1990; S.Xalivel 1993; J.Mun 2000; N.D.Galskova va Z.N.Nikitenko 2004; L.Kamerun 2005; T.Gordon 2007; N.A.Gorlova 2010; A.Pinter 2011) va mamlakatimiz nashriyotlarida chop etilgan darslik va qo‘llanmalar hamda milliy maktablar tajribasi yoritilgan metodik manbalarga asoslanib yaratildi.

# BIRINCHI QISM

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING TA’LIMSHUNOSLIK ASOSLARI

## 1.1. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish konsepsiyalari

**Kalit so‘zlar:** *konsepsiya, Kritik Davr Gipotezasi, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim*

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so‘zlasha olishi barchaga ma’lum. Jahonda globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o‘tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag‘batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya’ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Chet til ta’limida sifat va samaradorlikni ta’minlash maqsadida chet tillarni o‘rganish/o‘rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo‘ldi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturiga ingliz tilini kiritish qarori quyidagi xulosalarga asosalanib ma’qullangan:

Critical Period Hypothesis states that there is a limited developmental period during which it is possible to acquire a language, be it L1 or L2, to normal, native-like levels. – Kritik Davr Gipotezasi ona tili bo‘ladimi, chet tilmi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqin darajada egallanishi mumkin bo‘lgan chegaralangan rivojlanish davri mavjudligini ta’kidlaydi.

... kichik yoshdagi bolalar yaxshiroq va osonroq o‘rganishadi.

...uzoqroq o‘rganish davri maktab ta’limi yakuniga qadar malakalarning yuqoriroq darajada egallanishiga olib keladi.

Chet til, xususan, ingliz tilini kichik yoshdan o‘rganish va o‘rgatish ham o‘z tarixiga ega. Kichik yoshdan inliz tili o‘rganish va o‘rgatish dastlab yuqori tabaqa

oilalarda tajriba qilingan bo‘lsa (Anna-and-the-King-of-Siam), 1950 - yillarda AQSH va Yevropa mamlakatlarida ommaviy tus oldi va o‘n yil ichida «Foreign Language in Elementary School» dasturi asosida ta’lim oluvchi o‘quvchilar soni bir millionga yetdi. Fransiya, Shvetsiya va Gollandiyada esa 1950-yillar o‘rtalarida «English without a book» dasturi asosida ingliz tili 3-sinfdan o‘qitila boshlandi.

1997 - yil fevral oyida Grats (Avstriya) shahrida Zamonaviy tillar Yevropa markazi (ECML) boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan «Foreign Language Education in Primary Schools» mavzusida xalqaro seminar, 1997 - yil aprel oyida Vorvik (Angliya) shahrida «Warwick Euroconference on Teaching of Foreign Languages in European Primary Schools» mavzusida, 1998 - yil yanvar oyida Grats shahrida «Foreign language education in primary schools - an international concern to be implemented in national contexts» mavzusida, 1999 - yil Brussel (Belgiya)da ingliz tili ta’limida sifat va samaradorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilgan loyihalar muhokamasiga bag‘ishlangan anjuman (Stimulating language learning: The European Label), 2007 - yil Gersen nomidagi davlat pedagogika universitetida (Sankt-Peterburg) boshlang‘ich sinflarda chet tillarni o‘rgatish/o‘rganish metodlari va pedagoglar tayyorlash muammolariga bag‘ishlangan (Early Foreign Language Education) xalqaro seminar, 2008 - yil Bangalor (Hindiston)da boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish xalqaro tajribalarni ommalashtirishga bag‘ishlangan (The Way Forward: Learning from International Experience of TEYL) xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

2013 - yil Moskva (Rossiya)da «Chet tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti: an’analar va innovatsiyalar» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili o‘qitish metodikasining dolzarb muammolari muhokama etildi. Yuqorida qayd etilgan seminar va konferensiyalarda boshlang‘ich ingliz tili ta’limida sifat va samaradorlikni ta’minlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning: a) psixologik asoslari I.A.Zimnyaya (1991), D.M.Singlton (1995), D.Singlton va L.Ryan (2004),

Z.Dorney (2005), P.M.Laytboun, N.Spada. (2006), A.P.Sinelnikov (2009), M.Villiams, R.L.Bedn (2010); b) pedagogik asoslari V.A.Skot, L.X.Yetrberg (1992), S.Xallivel (1993), K.Grant (2002), J.Mun (2005), S.Xorner, V.Rif (2007), A.Pinter (2011), D.Veil, A.Faunteyn (2011); d) metodologik asoslari N.D.Galskova, Z.N.Nikitenko (2004), L.Kamerun (2005), K.T.Linz, D.Nyunen (2005), N.A.Gorlova (2010) kabi olimlar tomonidan nashr ettirilgan adabiyotlarda atroflicha yoritilgan.

Sohaga oid adabiyotlarning qisqacha sharhidan ma’lum bo‘ladiki, tadqiqotlar turli ta’lim sharoitlarida olib borilgan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda kichik yoshdagi ingliz tili o‘rganuvchilar sifatida maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari nazarda tutilgan bo‘lsa, ayrimlarida 5 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarga ingliz tili o‘qitish jarayoni tadqiqot ob’yekti sifatida tanlangan.

Yuqoridagi adabiyotlarda «*konsepsiya*» atamasi turli tushunchalarni ifodalaydi. Konsepsiya – ilmiy g‘oya(lar) ma’nosida ishlatiladi va ta’lim jarayonining har bir nuqtasida xorijiy tillarni o‘qitish strategiya va taktikalarni belgilab beradi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi «*(Inter)Cultural Awareness*», «*Language Awareness*» va «*Humanity*» ta’lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda.

*(Inter)Cultural Awareness* – Madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi dastlab Germaniyada shakllantirildi va qisqa vaqtda g‘arb mamlakatlarida ommalashdi. Ushbu konsepsiya asosida ingliz tilini muloqot vositasi sifatida o‘rgatish emas, balki o‘quvchini umumiy va nutqiy rivojlantirish, ya’ni uni ingliz tili va o‘zga madaniyatga qiziqtirish, unda kundalik hayotda duch kelish mumkin bo‘lgan tilga e’tiborli munosabatda bo‘lish va integratsiyalashayotgan Yevropadagi turmush sharoitlariga moslashish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadi yotadi. Shu sababdan ham ushbu konsepsiyada ingliz tili ta’limining mamlakatshunoslik jihatiga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

O‘yin tarzida tashkil etiladigan ta’lim jarayoni va mazmuni bolalarni tili o‘rganilayotgan mamlakat urf-odatlari hamda an’analari bilan tanishtiradigan she’r va qo‘shiqlardan iborat bo‘ladi. Ushbu konsepsiya Yevropada «Qo‘shni (qardosh) tilni o‘rganish» nomini olgan bo‘lib, mashg‘ulotlar asosan ingliz tili sohiblari tomonidan olib boriladi.

Bundan tashqari, Yevropa mamlakatlarida o‘quvchilarning migratsiyasi tez-tez sodir bo‘ladi va ular ingliz tili muhitida ma’lum vaqt yashash imkoniyatiga ega. Shularni nazarda tutadigan bo‘lsak, ushbu konsepsiyani Yevropadan uzoqda joylashgan va madaniy jihatdan farq qiladigan mamlakatlarda targ‘ib qilish maqsadga muvofiq emas. Ingliz tilini muloqot vositasi sifatida o‘rganish dunyoning hamma joyida barcha kishilar uchun ham bir xil ma’no kasb eta olmasligi, shu bilan birga, ta’lim usullarini shunchaki oson yo‘l bilan «*eksport*» qilish mushkul ekanligi isbotlangan.

Chunki, *birinchidan*, ingliz tili sohibi bilan kommunikatsiya va interaksiyaga kirishishga ehtiyoj va imkoniyat mavjud bo‘lmasa-da, tildan amaliy foydalanishni o‘rgatish, ya’ni faqat «kundalik nutq vaziyati» va «kundalik turmush mavzusi» ustida ish olib borish maqsadga muvofiq emas.

*Ikkinchidan*, ingliz tili faqat bir mamlakatning, ya’ni Buyuk Britaniyaning emas, balki Amerika Qo‘shma Shtatlari, Avstraliya, Kanada va boshqa qator mamlakatlarning ham davlat tili hisoblanadi. Davlat tili ingliz tili bo‘lgan ushbu mamlakatlarda esa madaniyatlar farqlidir.

*«Language Awareness»* – konsepsiyasi «*Holistic approach*» nomi bilan ham ataladi va u ingliz tilini yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida o‘zlashtirilishi lozimligini targ‘ib etadi. Ya’ni boshlang‘ich ingliz tili ta’limining maqsadi ingliz tili vositasida hayot haqidagi yangi bilimlarni o‘zlashtirishdir. Lekin M.Villiams va R.Bednlar Vigotskiyning nutq rivojlanish ontogenezi haqidagi nazariyasini «Holistic approach» deb nomlashni ma’qul ko‘rishgan[1]. Ularning taxminicha, Vigotskiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimni kichik qismlarga ajratib, malaka va

---

[1] Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 40 b.

ko'nikmalar sifatida taqdim etish fikrini ma'qullamagan bo'lardi. Sababi Vigotskiy har qanday o'rganiladigan qismning asosini mazmun tashkil etishi lozimligini uqtiradi. Ushbu xulosa ta'sirida Yevropa mamlakatlari, Qo'shma Shtatlar va ingliz tili ikkinchi davlat tili bo'lgan mamlakatlarda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ommalashmoqda.

O'zbekistonda *«Humanity»* (*Shaxsga yo'naltirilgan*) konsepsiyasi qabul qilingan va unga muvofiq boshlang'ich ingliz tili ta'limida o'quvchiga ta'lim jarayoni va madaniyatlararo kommunikatsiya (muloqot)ning markaziy sub'yekti maqomi beriladi, uning qiziqish va ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ingliz tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi.

### *O'quv-metodik topshiriqlar*

1. Konsepsiya atamasiga kengroq ta'rif bering.
2. Kritik Davr Gipotezasi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiring.
3. Chet tillarni boshlang'ich ta'lim o'quv dasturiga kiritish qarorining maqsadlarini tushuntirib bering.
4. O'zbekistonda boshlang'ich ingliz tili ta'limining asosiy konsepsiyasini aniqlashtiring.
5. Ingliz tili o'qitish konsepsiyalarining bir-biridan farqini aniqlab oling.

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Birdsong D., Bialystok E., Hakuta K. Second Language Acquisition and the Critical Period Hypothesis. – L.: Lawrence Erlbaum associates publishers, 1999. – 182 p.

## 1.2. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish tamoyillari

**Kalit so‘zlar:** *didaktik, umummetodik, tamoyil, autentik material, multisensor, nutq namunasi, korrelasiya, yondashuv, verbalizatsiya, vizual, vositachi til*

Ta’lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiy bo‘lishi mumkin. Bu qonuniyatlar ta’limning umumdidaktik tamoyili deyiladi. Boshqa qonuniyatlar esa ayrim fanlarni o‘qitishga xos bo‘lishi mumkin, masalan; ingliz tili o‘qitish tamoyillari.

Tamoyil tushunchasi didaktikada hali to‘la hal etilmagan. Agar bir guruh tamoyillar ta’lim jarayonining qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi guruh tamoyillar qaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni ifodalaydi, uchinchisi esa til materialining qaysidir bo‘limiga xos bo‘lgan tamoyillardir. Oxirgisi maxsus tamoyillar deyiladi[2].

Tamoyil (prinsip) termini «asos bo‘ladigan yo‘l-yo‘riq, qonun-qoida» ma’nosini ifodalaydi. Ye.I.Passov fikricha, «tamoyil – o‘qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir»[3].

Konsepsiya va tamoyillarning to‘g‘ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi.

Ilmiy manbalarda boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish konsepsiyalari va bir necha o‘nlab tamoyil (pritsip)larni olg‘a surilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining Ta’lim va madaniyat tadqiqotlar dasturi doirasida 2005-2006 yillarda bajarilgan EAS 89/04, Lot 1 «Good Practice and Main Principles» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda

[2] Saydaliyev S.S. Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar. – N.: Namangan, 2004. – 78-b.
[3] Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.

xorijiy tillarni o‘qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezoni asosida quyidagi tartibda umumlashtirilgan:

1) mazmunli kontekst va o‘quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik);

2) ingliz tili o‘rganishga ijobiy yondashish(pedagogik);

3) xolistik o‘rganish (metodologik);

4) ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to‘liq inobatga olish (psixolingvistik);

5) o‘quvchilarni o‘zgalarga nisbatan bag‘rikenglik va turli qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash (pedagogik);

6) vizual yondashuvga ustuvor ahamiyat bergan holda boshqa nutq analizatorlarining to‘liq ishtirokida o‘rganish (psixologik masalalarni metodologiyaga tatbiq etish);

7) ingliz tili o‘rganishga motivatsiya uyg‘otish (ichki turtkini qo‘zg‘atish) (psixolingvistik);

8) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (pedagogik);

9) nutq hosil qilinishi uchun tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish (didaktik);

10) mashg‘ulotlarni imkon qadar o‘rganilayotgan chet tilda tashkil etish (pedagogik);

11) o‘quvchilarning ingliz tilio‘rganish strategiyalari va usullarini hisobga olish (didaktik).

**Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning didaktik tamoyillari**

Ingliz tili o‘qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta’limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J.Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafovutlar bo‘lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta’lim, onglilik, faollik, ko‘rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o‘zlashtirish, o‘quvchi kuchiga moslik kabilar. N.A.Gorlova boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik

tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko‘rgazmalilik, o‘quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish, sistemalilik.

Ilmiy manbalarni o‘rganib chiqib boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O‘quvchilarning ingliz tilio‘rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.

2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.

3. Darslarda ma’noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.

4. Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish.

5. O‘quvchilarning yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish.

6. Nutq namunalari asosida ingliz tilio‘rgatish.

7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo‘g‘irchoqlar yordamida).

**Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning psixolingvistik tamoyillari**

Til o‘rganish aqliy faoliyat bo‘lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tilio‘qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug‘iladi. Ilmiy manbalarda ingliz tili o‘qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «*verbalizatsiya*» (o‘zga til amalda faqat og‘zaki nutq orqali o‘rganiladi) va «*korrelatsiya*» (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo‘ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan. Ingliz tilio‘qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o‘qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e’tibor qaratilgan.

Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko‘rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi:

1. O‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish, o‘zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni oshirish.

2. Mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning yoshiga mos jismoniy harakatlarini rag‘batlantirish.

3. O‘quvchilarni ona tili va o‘rganilayotgan chet tilning o‘xshash jihatlaridan xabardor etish.

4. O‘quvchilarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish.

5. O‘quvchilarni ona tili va o‘rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o‘rgatish.

6. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan ingliz tili tuzilmasi bilan umumiy tanishtirish.

7. Individual yondashish, ya’ni o‘quvchilarning xos xususiyatlari (har qaysi o‘quvchining tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do‘stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo‘lishi)ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish.

**Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning metodik tamoyillari**

Ingliz tili o‘qitish metodikasining, (a) umumiy (nutqiy yo‘nalganlik, chegaralab va yaxlit o‘rgatish, mashqlar bajarish, til tajribasini hisobga olish), (b) xususiy (nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish, til mashqi va nutq amaliyoti bog‘liqligi, nutq faoliyati turlarining o‘zaro bog‘liqligi, og‘zaki nutqning ilgarilashi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish, ibtidoiy bosqichni jadallashtirish), (d) maxsus (grammatikani o‘rgatish, leksikani o‘rgatish, o‘qishni o‘rgatish va ingliz tili o‘rgatishda nutq yozishni qo‘llash) tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda xorijiy tillarni boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik.

1. Vizual yondashuv va multisensor (barcha nutq analizatorlarini to‘liq qo‘zg‘atuvchi) o‘rganishni tatbiq etish. Ya’ni o‘quv materialini puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash maqsadida ko‘rish, eshitish, harakat (nutq harakat va qo‘l harakat) analizatorlari ishtirokida ko‘plab mashq qilish.

2. Yaxlit (leksika, grammatika va talaffuzga oid til materialini yaxlitligicha) o‘rgatish.

3. Nutqiy yo‘nalganlik (leksik, grammatik va talaffuz mashqlari nutq faoliyatini egallash maqsadida bajarish).

4. Nutq namunalari asosida ingliz tili o‘rgatish.

5. Ona tili va bilingv o‘quvchilarning ikkinchi tilini o‘zlashtirishdagi til tajribalarini hisobga olish.

**Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning pedagogik tamoyillari**

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning pedagogik tamoyillari o‘zbek va rus tilidagi ilmiy manbalarda dadidaktik tamoyil sifatida mufassal bayon etilgan. Lekin xorijiy adabiyotlarda pedagogik tamoyil alohida tadqiq etiladi. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda uch tildagi ilmiy manbalardan foydalandik.

1. O‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish. Ingliz tili vositasida o‘zlashtiriladigan axborot va ingliz tili o‘rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko‘nikma hamda malakalar o‘quvchilarni tarbiyalaydi.

2. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan tildan foydalanishga rag‘batlantirish.

3. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish.

4. O‘quvchilarni atrofdagilarga nisbatan bag‘rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

5. Darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o‘rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish.

6. O‘quvchilarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini mustaqil va o‘zaro aniqlab borish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. O‘quvchilarga o‘z bilimlarini o‘rganilayotgan tilda namoyon qilish imkoniyatini yaratish.

8. Darslarni kompetensiyalar egallanishiga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida tashkil etish.

***O‘quv-metodik topshiriqlar***

1. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda qo‘llaniladigan tamoyillarni nomma-nom ayting.

2. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasi tamoyillari nechta va qanday guruhlarni tashkil etishini bilib oling.

3. Ayrim tamoyillar haqida o‘z fikringizni bayon etishga tayyorlaning.

4. Vizual yondashuv va multisensor (barcha nutq analizatorlarini to‘liq qo‘zg‘atuvchi) o‘rganishni tatbiq etish bo‘yicha o‘z fikringizni asoslashga tayyorlaning.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar***


1. Jalolov J.J. Ingliz til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

2. Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – 196 p.

3. Ellis R. Principles of Instructed Language Learning. – Asian EFL Journal, 2005. – P. 10-26. Electron resource: http://www.asian-efl-journal–Asian EFLJournal.TheEFL Professionals’ Written Forum. Access date: 4.06.2017.


## 1.3. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘quv fanining xususiyatlari

**Kalit so‘zlar:** *ta’lim sharoiti, til tajribasi, til o‘rganish, til o‘zlashtirish, tashabbusli nutq, mutanosiblik*

Ta’lim tizimidagi boshqa fanlardan ingliz tilining farqi bir paytning o‘zida, uning ham ta’lim maqsadi, ham ta’lim vositasi ekanligida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv)ni egallash ta’limdan ko‘zlanadigan maqsad bo‘lishi bilan birga, o‘rganilayotgan til yangi va foydali axborot olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi.

Ingliz tili o‘quv predmetining xususiyatlarini yoritishda unga turlicha yondashishlar mavjud. Tadqiqotchilar chet tilning didaktik, psixologik, amaliy

(funksiyaviy), ta'limiy-tarbiyaviy asoslaridan kelib chiqib fikrlar bayon etishgan (I. V. Raxmanov, V. S. Setlin, J. J. Jalolov, T. Q. Sattorov, S.S. Saydaliyev va b.).

Bir guruh metodist-olimlar o'quv predmetlarini tasniflashda ularning didaktik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar (A. A. Mirolyubov, I. V. Raxmanov, V.S. Setlin). Birinchi guruhni fan asoslarini o'rgatadigan tabiiy va ijtimoiy (fizika, ximiya, tarix va b.) fanlar tashkil etadi. Uning birinchi xususiyati – o'quvchilar ongida fan haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalar hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Yana bir xususiyati shundan iboratki, fan asoslarini o'qitish jarayonida shakllantirilayotgan ko'nikma va malaka fan sistemasiga bo'ysundirilgan bo'ladi.

O'quv predmetlarining ikkinchi guruhiga ko'nikma va malakani oshirishga qaratilgan (ashula, musiqa, jismoniy tarbiya va b. fanlarni kiritish mumkin. Ularning asosini muayyan umuminsoniy faoliyat amaliyoti tashkil etadi. Tadqiqotchilar ingliz tilini har ikki toifa o'rtasidagi o'quv predmeti deb hisoblaydilar, bilim va malakani shakllanishiga xizmat qiladi degan fikrni ilgari suradilar.

Taniqli metodistlardan T.Q.Sattorov ingliz tili predmetini quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflaydi:

1. Ona tili va ingliz tilida muloqot uchun nutqiy muhit keskin farq qiladi. Darsdan tashqari paytlarda o'quvchida ingliz tilida muloqot qilish uchun muhit deyarli mavjud emas. Ona tili uchun doimo tabiiy muhit mavjuddir.

2. Ona tili insonning kundalik faoliyatiga singib ketadi. Ingliz tili uchun esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ingliz tili darslarida o'quvchilarga muloqotni o'rgatish maqsadida sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish zarur.

3. Inson bolasi tevarak-atrofni ona tili yordamida idrok etib tushunadi va kishilar bilan muloqotga kiradi. Ingliz tilini o'rgatishda ahvol umuman o'zgacha. Tilning talaffuz, grammatik va leksik tomonlari o'rganiladi, ingliz tilida fikr bayon etish va idrok etib tushunish amaliy maqsad maqomini oladi.

T.Q. Sattorov bilim va malakaning o‘zaro munosabati nuqtayi nazardan o‘quv predmetlarini (a) bilim va nazariya beruvchi fanlar (tarix, adabiyot, geografiya); (b) amaliy malakani shakllantirishga yo‘naltirilgan fanlar (rasm, mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya) kabi guruhlarga tasniflaydi. Bu borada ingliz tili o‘qitish umumiy metodikasi mualliflarining fikriga qo‘shiladi va ingliz tilini yuqoridagi ikki guruh o‘rtasidagi predmet deb hisoblaydi.

O‘quv predmetlarining funksiyaviy, ta’limiy-tarbiyaviy xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash hollarini ham ilmiy-tadqiqotlarda kuzatishimiz mumkin. Taniqli metodistlardan J.J. Jalolov, S.S. Saydaliyevlar barcha o‘quv predmetlarini shartli ravishda quyidagicha tasniflashgan: a) fan asoslaridan saboq beradigan o‘quv predmetlari (ximiya, biologiya, fizika, matematika, tarix); b) tarbiya berishga qaratilgan o‘quv predmetlari (rasm, musiqa, ashula); d) amaliy faoliyatni o‘rgatadigan o‘quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta’limi); e) tilga oid o‘quv predmetlari (ona tili, ikkinchi til, chet til).

Fan asoslarini o‘rgatuvchi predmetlarda o‘quvchilarga ushbu sohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo‘nalishdagi predmetlar o‘quvchilarda nafosat va go‘zallikni tarkib toptiradi. Faoliyatni o‘rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnat qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Lingvodidaktikaning ob’yekti bo‘lgan tilga oid o‘quv predmetlarini tahlil etganda, ular orasida o‘xshashlik va keskin farqlar borligi namoyon bo‘ladi. Tillar orasidagi umumiylik shundan iboratki, har uchalasini o‘rganishda ham o‘quvchi nutq faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ushbu tillarda shakllangan ko‘nikma va malakalar tufayli boshqa fan va sohalarga oid bilim (axborot)lar o‘zlashtiriladi, boshqacha aytganda, tilga oid o‘quv predmetlari muloqot (kommunikativ) vazifasini bajaradi.

Maktab sharoitida ona tili, ikkinchi til va ingliz tili amaliy (kommunikativ), ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ushbu funksiyalarni bajarish me’yori (miqdor va sifat ko‘rsatkichlari) har bir tilda turlichadir. Masalan, “Ona tili”ni o‘rganish chog‘ida amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar bir xilda ro‘yobga chiqadi. Ingliz tilida esa

muloqot, amaliy qo‘llash yetakchi funksiyani bajaradi, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar unga bog‘liq holda ro‘yobga chiqariladi.

Ona tilini o‘quvchi amaliy tarzda egallaydi. Ikkinchi tilda amaliy malakalar, avval, qisman hosil qilingan, nazariy bilimlar ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etiladi, albatta. Ingliz tili o‘rganishda esa qoida (oddiy nazariy bilim)lar amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashni tezlashtirish (intensifikatsiya) va yengillashtirish (optimizatsiya) maqsadlariga bo‘ysundiriladi, o‘quv jarayonida nutqiy amaliyot (kommunikatsiya) birlamchi vazifaga aylanadi.

Maktabda o‘zbek, rus va ingliz tillarini o‘qitishga qo‘yiladigan dasturiy talablardan biri mazkur o‘quv fanlari orasidagi aloqadorlikni ta’minlashga imkoniyat yaratishdir. Ta’limda o‘quv fanlarining imkoniyatlarini birlashtirish ko‘zlangan maqsadga erishishning asosiy yo‘li sanaladi.

Sharoit tushunchasi qamroviga o‘quv muassasasi turi (maktab), o‘quvchining psixologik (yosh) xususiyati, til tajribasi, o‘quv predmetiga ajratiladigan vaqt (dars soatlari) kiradi. Mazkur tushuncha J.Jalolov, G‘.Rahimov, M.Djusupov va boshqalarning tillar ta’limshunosligi sohasidagi tadqiqotlarida ilmiy asoslangan. Ta’lim sharoitining birinchi tarkibiy qismi – o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va umumiy saviyasi tushunchasidir. Ta’lim sharoitining ikkinchi tarkibiy qismi – «til tajribasi» tushunchasidir. Ta’lim sharoitining navbatdagi tarkibiy qismi – ingliz tiliga ajratilgan «vaqt» (soatlar) tushunchasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, «Qaerda?» savoliga a) ingliz tili nutqiy muhiti bor yoki yo‘q yerda o‘rgatish (O‘zbekiston Respublikasida ingliz tili sun’iy muhitda o‘rgatiladi); b) umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitish tadqiqot ob’yekti sifatida tanlanadi. Kimlarga?» deganda a) (6)7-10 yoshgacha bo‘lgan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ingliz tili o‘rgatish; b) umumta’lim maktablarida uch til – o‘zbek (ona) tili, ikkinchi (rus) til va ingliz tili (yoki boshqa til) o‘qitiladi. Bu o‘rinda o‘quvchilarning uch tildan to‘plagan til tajribalari e’tiborga olinadi. «Qancha vaqt?» deganda: a) o‘quv rejasidagi haftalik va yillik mashg‘ulotlar miqdori (I sinfda haftasiga 2 soatdan, o‘quv yilida 66 soat, II-IV sinflarda haftasiga 2 soatdan o‘quv yilida 68 soat dars o‘tiladi); b) intensiv

(jadallashtirilgan qisqa muddatli) yoki ekstensiv (vaqt e'tibori bilan cho'zilgan) sharoitda ta'lim berish (umumta'lim maktablarida ekstensiv ta'lim joriy etilgan) kabi tushunchalar nazarda tutiladi.

Ta'lim sharoiti tushunchasi ingliz tili ta'limida samaradorlikni ta'minlashda tabiiy sharoit, ingliz tili sohibi bilan kamida 1000 soat muloqotda bo'lish, o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quvchining yoshga oid fiziologik, psixologik va bilish faolligi xususiyatlari, o'quv predmetiga ajratilgan vaqt hamda o'quvchilarning o'quv predmetiga nisbatan munosabati va o'rganish layoqati kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar haqida kengroq tasavvur hosil qilish maqsadida ingliz tilining tabiiy sharoitda o'zlashtirilishi va sun'iy sharoitda o'rganilishini qiyoslab ko'ramiz:

*Yazid* – 8 yoshli Malayziyalik bola. U maktabda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganadi. Maktabdan tashqarida u ingliz tilidagi reklamalar va yo'l belgilarini ko'radi, turli nutq vaziyatlarida ingliz tilida sodir bo'layotgan kommunikatsiya va interaksiyaning jonli guvohi bo'ladi. Uyda esa u bolalar uchun ingliz tilidagi subtitrli ko'rsatuvlarni tomosha qiladi. U o'qituvchisi va tengdoshlari bilan o'ziga tanish mavzularda ingliz tilida muloqot qila oladi.

*Daniel* – 8 yoshda, millati rus, Norvegiyada istiqomat qilayotgan rus oilasida tug'ilgan. Oslo shahridagi ayrim predmetlar ingliz tilida o'qitiladigan maktabning 3-sinfida o'qiydi. Maktabdan tashqarida u norveg va ingliz tilida yozilgan peshtaxtalar va reklamalarni ko'radi, ingliz tilida gaplashayotgan insonlar suhbatini tinglaydi. Shifoxonaga, do'konga, istirohat bog'iga borganida turli kasb vakillari bilan ingliz tilida muloqot qiladi. Uyida ota-onasi bilan rus tilida gaplashadi, badiiy hamda multiplikatsion filmlarni norveg tilidagi subtitr yordamida muntazam ko'rib boradi.

*Yunusbek* – 9 yoshda, O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Norin tumanidagi ingliz tili darslari haftasiga ikki soat (45 minut) o'tkaziladigan 34-maktabning 3-sinf o'quvchisi. U sinfxonadan tashqarida ingliz tilidagi biror ko'rsatkich, yo'l belgisi yoki reklamani juda kam ko'radi, ingliz tilida suhbatlashayotgan insonlarni deyarli uchratmaydi. U ingliz tilini ustozidan rag'bat

olish va ota-onasini xursand qilish uchun o‘rganadi. U cheklangan miqdordagi leksik birliklar ishtirokida o‘ziga tanish mavzularda juda sodda gaplar tuza oladi.

Xulosa chiqaradigan bo‘lsak, birinchi va ikkinchi sharoitlarda chet tilni muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish uchun tabiiy muhit mavjud. Chunki *birinchidan,* vaqt cheklanmagan, *ikkinchidan,* jonli nutq vaziyatlarida axborotning to‘g‘ri talqin etilishini ta’minlovchi omillar mavjud, *uchinchidan,* o‘rganilayotgan chet tilda muloqot qilinayotganturli ijtimoiy vaziyatlarga tushib qolish kuchli ehtiyoj va yuqori motivatsiyaga sabab bo‘ladi, *to‘rtinchidan,* o‘rganilayotgan chet tilda e’tibor shaklga emas, mazmunga qaratiladi, ingliz tilijonli muloqotda tajribada sinab ko‘rib, mustaqil fahmlab o‘rganiladi. Eng asosiysi, fikr ifodalashga shaxsiy tashabbus ko‘rsatiladi. Shu sababdan, tabiiy ta’lim sharoitida ingliz tili o‘zlashtiriladi.

Uchinchi, sun’iy muhitdagi ta’lim sharoitda esa ingliz tili o‘rganiladi. Ya’ni boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasida til o‘zlashtirish va til o‘rganish atamalari farqlanadi. *«Ingliz tili o‘rganish»* metodik termini ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv ko‘nikma va malakalarining egallanishi ma’nosini ifodalaydi.

Chunki, *birinchidan,* ingliz tilio‘quv predmeti bo‘lib, unga haftasiga ikki soat vaqt ajratiladi, *ikkinchidan,* o‘rganilayotgan chet tilda muloqot qilishga sabab ham, ehtiyoj ham yo‘q, *uchinchidan,* mazmunga emas, shaklga ustuvor ahamiyat qaratiladi va ingliz tilibo‘yicha belgilangan (A1) darajaning ta’lim mazmunidan kelib chiqib, til materiali chegaralangan miqdorda maxsus metodik tayyorlanadi. *To‘rtinchidan,* o‘quvchi dastur va o‘quv rejada belgilangan nutq mavzulari doirasida chet tilda gapirishga majbur bo‘ladi.

Ta’lim sharoiti tushunchalardan kelib chiqib zamonaviy metodikada kichik maktab yoshida ingliz tilini tabiiy muhitda o‘zlashtirish va uni maktab sharoitida o‘rganilishining ob’yektiv qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslovchi nazariyalar ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyalar quyidagi jadvalda qiyoslanadi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

**Ingliz tilini o‘zlashtirish va o‘rganish nazariyalari**

| Nazariyalar | Mutanosiblik | Tillararo |
|---|---|---|
| **Qiyoslash mezoni** | Ingliz tili o‘zlashtirish | Ingliz tili o‘rganish |
| **Mavqeyi** | Qardosh xalq tili, qo‘shni davlat tili, ikkinchi til | Chet til |
| **Maqomi** | SHaxsning ijtimoiylashuvi, tabiiy nutq vaziyatlarida muloqot va ayrim o‘quv predmetlarini o‘rganish vositasi | Ta’lim maqsadi va vositasi, o‘qitish vositasi, ta’lim jarayonida muloqot vositasi |
| **Motivatsiya** | Ichki motivatsiya | Tashqi motivatsiya |
| **Tashabbus** | Jonli nutq vaziyatlarida to‘satdan paydo bo‘lgan fikrni ifodalashga shaxsiy tashabbus ko‘rsatiladi | Rejalashtirilgan maxsus ssenariy asosida fikr ifodalash usullari o‘qituvchi undovi bilan mashq qilinadi |
| **Kompetensiyalar** | Pragmatik kompetensiya sezilarli darajada yuqori o‘zlashtiriladi | Kompetensiyalar teng o‘rganiladi |

– **mutanosiblik** nazariyasi – ona tili va ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonlari aynan o‘xshash;

– **tillararo** nazariya – ta’lim sharoitining xos xususiyatlari ingliz tilini muvaffaqiyatli o‘rganilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikki nazariya ham didaktikaning onglilik tamoyili (nutq mazmunini tushunish va nutqning tarkibiy qismidagi til birliklarini anglab yetish)ga asoslanadi hamda ingliz tilini egallash jarayoni kognitiv va kreativ faoliyat sifatida talqin etiladi. Ingliz tili ta’limining samaradorligini ta’minlashda o‘quvchilarning til o‘rganishga layoqati va ishtiyoqi muhim omil sanaladigan ushbu nazariyalarni muxtasar sharhlashga o‘tamiz.

**Mutanosiblik** nazariyasi (ing., – *identic*, rus – *identichniy, tojdestvenniy*, o‘zb., – *aynan o‘xshash, bir xil, birday*) tarafdorlarining fikricha, ona tili va ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonlari bir xildir. Ushbu nazariyaga binoan tillararo interferensiya chetlab o‘tiladi va nutq namunalari qism (fonema, grafema, morfema va so‘z)larga ajratilmasdan yaxlit o‘rgatiladi.

Ingliz tili o‘qitishga bunday yondashuv ingliz tilidan foydalanishga kuchli ehtiyoj mavjud bo‘lgan muhitda yuqori samara beradi. Chunki ingliz tili elementlarini (tarkibiy qismlarini) o‘zlashtirish jarayoni ona tilini o‘zlashtirish jarayoni bilan aynan o‘xshash (parallel), ya’ni avval nutqiy kompetensiyalar, keyin lisoniy kompetensiyalar yoki avval tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv, keyin fonetika, leksika, grammatikani o‘zlashtirish izchilligida sodir bo‘ladi.

Ma’lumki, ona tilini sof bo‘lmasa-da, taqlidan o‘zlashtirish jarayonida o‘xshashlik (analogiya)ka amal qilinadi, o‘quvchi qanday idrok etsa, shunday o‘zlashtiradi va bilganiga monand gaplar (va so‘zlar), til qonuniyatiga yot hosilalar yaratadi. Buni bolaning so‘zdan foydalanishdagi omilkorligi, deb tushunish mumkin. Masalan, besh yoshli David ismli bola dadasining tug‘ilgan kunda «*I’d like to propose a toast*» (Qadah so‘zi aytmoqchiman), degan gapidan ilhomlanib, qo‘liga finjon oladi-da; «I’d like to propose a piece of bread», deya mehmonlarni kuldiradi. Bunday holat mutaxassislar tomonidan muloqot qilishning insonga xos instinkti va kreativ til tajribasi, deb izohlanadi. Biz bunday vaziyatdagi tasodifiy nutqiy ifodani *tashabbusli nutq* deb nomlashni ma’qul topdik. Til tajribasi atamasi tadqiqotchilar tomonidan mukammal sharhlangan. Mutanosiblik nazariyasida ham ingliz tili ta’limining maqsadi o‘quvchilar psixikasida til egallashning avvaldan shakllangan umumiy mexanizmlarini faollashtirish lozimligi targ‘ib etiladi.

Tabiiy muhit mavjud bo‘lgan xorijiy mamlakatlarda ingliz tili alohida predmet sifatida emas, balki boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan boshqa predmetlar bilan integratsiyalashtirilgan holda o‘qitiladi, ingliz tilidagi autentik nutqni tinglab tushunish va o‘quvchilarning o‘zaro yoki o‘qituvchi bilan og‘zaki muloqotiga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Predmetlararo bog‘lanish hozirda didaktika va o‘qitish metodikasida bilimlar mazmuni bilan ilmiy bilish metodlarining mutanosibligiga asoslangan yaxlit sistema sifatida tushuniladi (M.N. Skatkin, I.D. Zverev, I.Ya. Lerner va b.). Predmetlararo bog‘lanishga sistemali yondashish, uning tarkibi, tuzilishi hamda vazifalarini, uning boshqa tizim ob’yektlari (o‘quv jarayoni, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat va h.k.) bilan munosabatini birgalikda ochib berishni taqozo etmoqda.

2012-yildan e’tiboran Daniya, Gretsiya, Islandiya va Turkiyadan tashqari barcha Yevropa mamlakatlarida hamda Filippinda ona tilidan tashqari fan asoslaridan saboq beradigan ayrim predmetlarni (M: Filippinda matematikani ingliz tilida o‘qitish tajribasi) o‘rganiladigan chet tilda o‘qitish yondashuvi boshlang‘ich ta’limga joriy etilib, chet (ingliz) til muloqot va ayrim predmetlarini o‘rganish vositasi maqomida o‘qitila boshlandi.

Hindiston, Keniya, Nigeriya, Janubiy Afrika, Malayziya kabi mamlakatlarda ko‘pgina holatlarda maktab ta’limi to‘lig‘icha ingliz tilida olib borilmoqda. Natijada bunday holat ilg‘or til siyosatiga mos kelmay qolishi, ona tilining maqomini susaytirishi va ingliz tilining «buzib ishlatilishi»ga sabab bo‘lmoqda.

**Tillararo** nazariyaga muvofiq ingliz tili o‘rganish jarayoniga ta’sir etuvchi barcha omillar hisobga olinishi lozim. Bu omillar ingliz tili o‘rganuvchining yoshga oid (psixologik va bilish faolligi) xususiyatlari, ta’lim mazmuni va maqsadi hamda ularga muvofiq ishlab chiqilgan ta’lim vositalaridan iboratdir. Mazkur nazariyaga muvofiq ingliz tili o‘rganish jarayonida o‘quvchi til tajribasiga tayanib ingliz tilidagi kommunikatsiyaning yangi lisoniy tizimi «aralash/tillararo kod»ni shakllantiradi. Ya’ni ona tili tajribasi ikkinchi tilni o‘rganishda, so‘ngra ularning ikkovi ingliz tilini egallashda (tillararo transpozitsiya va interferensiya) ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, darslik va dasturlar tuzishda tillararo interferensiya va o‘quvchining til tajribasi hisobga olinadi, ta’lim berishga mo‘ljallangan qoidalar (oddiy nazariy bilimlar) amaliy ko‘nikma va malakalarning egallanishini tezlatish va soddalashtirish maqsadlariga bo‘ysundiriladi. Ya’ni ayrim zaruriy qoidalar yoki nazariyalarning elementlari ingliz tili o‘rganish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirish maqsadida bayon etiladi.

Lekin N.Galskova va Z.Nikitenkolar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun darsliklar yaratilishida tillararo interferensiyaga ko‘p e’tibor qaratilishi natijasida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari (ularning motivatsiyasi va ijtimoy-madaniy tajribalari) inobatga olinmayotganligini ta’kidlashmoqda.

Chunki ushbu nazariya asosidagi ta’limshunoslikda chet tilni bilish deganda, xatolardan xoli bo‘lmasa-da, shu tilda gapirish/gaplashish, o‘qish, tinglab

tushunish va yoza olish layoqatiga ega bo‘lish tushuniladi. Xatolarning yo‘qligi til va nutq materiali yod olinganligini anglatadi. Bu esa ingliz tili kommunikatsiya va interaksiya vositasi darajasida o‘zlashtirildi, degan xulosaga olib kelmaydi. Aksincha, xatolar o‘quvchining nutqiy faoliyat yuritish maqsadida ijod qilayotganligidan dalolat beradi.

Shuning uchun xatolardan qo‘rqish kerak emas, aksincha, xatolar o‘quvchining tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga harakat qilayotganligidan guvohlik beradi. Shuningdek, xatolar til materiali o‘quvchi uchun qiyin ekanligini ham anglatadi, ya’ni xato qiyinchilik hosilasidir. O‘qituvchi esa xatolarni tahlil qilishi va istiqbolda ularni bartaraf etish choralarini ko‘rishi lozim. Ushbu nazariya asosida Rossiyada shaxsga yo‘naltirilgan (lichnostno orientirovanniy podxod) va faoliyatga yo‘naltirilgan (deyatelnostniy podxod) yondashuvlari asosidagi shaxs faoliyatiga yo‘naltirilgan metod (lichnostno-deyatelnosniy metod) hamda faoliyatga yo‘naltirilgan kommunikativ ongli yondashuv (deyatelnostniy kommunikativno-kognitivniy podxod) targ‘ib va tatbiq etilmoqda. Faoliyat deganda, nutq faoliyati turlari nazarda tutiladi.

O‘zbekistonda ingliz tili ta’limi ikkinchi tildagi axborot sohibini (kognizant) shakllantirishga yo‘naltiriladi, ya’ni o‘rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosning o‘rganilishi ingliz tili ta’limining bosh maqsadidir. Ikkinchi tildagi axborot sohibi deganda, autentik muloqot vaziyatlarida o‘zga madaniyat vakili bilan chet tilda adekvat muloqot qilish kompetentligiga ega shaxsni tushunish mumkin. Tilni o‘rganish chog‘ida o‘quvchi lingvistik bilimlar to‘plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyalari)ni oshirish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ingliz tili kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘rgatiladi.

Bu integrativ yondashuv Yevropa ta’limidagi «Content and Language Integrated Learning» yondashuvidan farq qiladi. Ingliz tili ta’limida kommunikativ-kumulyativ metod tatbiq etiladi. Muloqotdoshlarning bir-birini tushunishlari ingliz tilini bilishning asosiy mezoni hisoblanadi va shu sababdan

o‘zaro tushunishga to‘sqinlik qilmaydigan xatolarga vaqtincha ko‘z yumish mumkin.

Tillararo nazariya asosidagi ingliz tili o‘qitishning shaxsga va faoliyatga yo‘naltirilgan kommunikativ yondashuvi o‘quvchilarga imkon qadar tezroq va qo‘rquvsiz jonli muloqotga kirishish imkoniyatini yaratadi. Xatolardan qo‘rqmaslik, ta’lim mazmuniga jiddiy urg‘u berilishi o‘quvchilarning o‘rganilayotgan chet tildan foydalanish ishtiyoqini kuchaytiradi.

Ushbu yondashuvga muvofiq ingliz tili o‘rganish jarayoniga ta’sir etadigan a) o‘quvchining psixologik va yoshga oid xususiyatlari; b) ona tili, rus tili va ingliz tili o‘rtasida farq – tillararo interferensiya; d) ta’lim vositalari; e) ta’lim muassasasi; f) o‘qituvchining mutaxassislik mahorati kabi barcha omillarning hisobga olinishi tavsiya etiladi.

Ma’lumki, ingliz tili tabbiy sharoitda muvaffaqiyatli o‘zlashtiriladi. Geografik jihatdan olisda joylashgan va til sohibi bilan muloqatda bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘lmagan ta’lim sharoitidagi ingliz tili o‘rganish jarayonida amaliy maqsadga erishish murakkablashadi. Aynan shu vaziyat ingliz tili o‘quv predmetini o‘qitishda qator qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Shu sababdan o‘quv jarayonini tabiiy muhitga yaqitlashtirish, darslarda tabiiy nutq vaziyatlarini yaratish yuzasidan izlanishlar olib boorish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni:

– o‘quv soatlarining miqdoriy chegarasini kengaytirish va maktabdan tashqarida ham ingliz tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanish (zamonaviy aloqa vositalardan foydalanib horijlik tengdoshlar bilan muloqot qilish, multfilm va badiiy filmlar namoyish etish orqali) imkoniyatlarini kengaytirish;

– o‘quvchilarni ingliz tili o‘rganishga ichki turtki (motivatsiya)sini oshirishga hizmat qiladigan syujetli, rolli va didaktik o‘yinlar tashkil etish;

– sinfxona interyerini devoriy ko‘rgazmalar, kitoblar burchagi, o‘quvchilar tomonidan yaratilgan turli albomlar va portfoliolar bilan jozibadorlashtirish orqali u yerda ingliz tilida muloqot qilish muhitini yaratish;

– ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, mini proyektlar, ertaklar sahnalashtirish orqali o‘quvchilarda o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlashdan zavqlanish tuyg‘ularini barqarorlashtirish.

Maqsad odatda mazmunni belgilaydi, ya’ni mazmun ta’lim chog‘ida o‘zlashtiriladigan o‘quv-metodik hodisa bo‘lsa, uning mahsuli erishiladigan maqsad sari olib boradi. Ingliz tili o‘qitishning amaliy maqsadi (nutq faoliyati turlarini egallash)da muayyan til materialini qo‘llash hamda til birliklari nutq ko‘nikma va malakalarining shakllanishida ishtirok etishda aniq chegaralar qo‘yish kabi metodik muammolar yechiladi.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning o‘rganish va o‘qituvchining o‘rgatish maqsadidagi intilishlari har doim ham o‘zlashtirishiga olib kelmasligi mumkin. Bunday hodisa ayniqsa ingliz tili o‘qitish jarayonida tez-tez kuzatiladi.

O‘qituvchining ingliz tili o‘rgatish borasidagi harakatlari va o‘quvchining ko‘plab mashqlar bajarishi natijasida ingliz tili belgilangan darajada egallanmasligi mumkin. Bunga sabablardan biri sifatida darslik yaratishda Yevropa tajribalariga taqlid qilinishi va ta’lim sharoitini inobatga olinmaganligini ko‘rsatish mumkin. Chunki ayrim darsliklarda nutqiy malakalarning egallanishiga hizmat qiluvchi mashqlarga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo‘lsa, ayrimlarida tilga oid malakalar egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar miqdori sezilarli darajada ko‘p. Bizningcha ingliz tili o‘qitishda nutqiy va lisoniy kompetensiyalarning teng egallanishiga zamin yaratadigan bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi mashqlarning miqdoriy ratsioniga muhim ahamiyat qaratish zarur.

Buning uchun quyidagi metodik atamalarning mazmunini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi:

Bilim – shaxsning bilish faoliyati mahsuli (tasavvur va tushunchalardan iborat ong mazmuni); ingliz tili nutqida leksika, grammatika, talaffuz, o‘qish qoidasi, imloni o‘zlashtirish va ularga oid sodda mavhumotni bilish; fonetika, leksika va grammatikaga oid til materiali va undan og‘zaki va yozma nutqda foydalanish qoidalari; til hodisalarining shakli, vazifasi va ma’nosi; til hodisalarini

(masalan, mamlakatshunoslik va lingvomamlakatshunoslik va b.) to‘g‘ri qo‘llash uchun zarur bo‘ladigan boshqa ma’lumotlar.

Bilim ingliz tilini egallashning dastlabki elementi hisoblanadi. Aytish mumkinki bilim ingliz tili o‘rganish jarayonining poydevori va zahirasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mashqlar bajarish jarayonida malaka va ko‘nikmaga aylanadigan bilim tilning o‘rganilishini ta’minlaydi.

Ko‘nikma – (A.N.Leontyev: – mustahkamlangan operatsiya) ongli bajariladigan chet tilda nutq malakasining avtomatlashgan tarkibiy qismidir.

Lisoniy ko‘nikma – u yoki bu harakatda tilga oid bilimlarni ongli va to‘g‘ri qo‘llash, muloqotning lisoniy vositalari (leksika, grammatika, talaffuz)dan ongli ravishda foydalanishni anglatadi va u til haqidagi qoidalardan kommunikatsiya va interaksiya jarayonida uddaburonlik bilan foydalanib, fikrning adekvat ifodalanishini va talqin etilishini kafolatlaydi.

Malaka – ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat bo‘lib nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv) malakalari hamda lisoniy (leksika, grammatika, talaffuz) malakalar farqlanadi. Ingliz tili o‘qitish metodikasida malaka termini turlicha sharhlanadi. Mas. ta’limshunoslikda bu tushunchalar “birlamchi malaka”, “ko‘nikma”, va “malaka” tarzida talqin etiladi. N.I.Jinkin ta’rificha malaka o‘zga sharoitda qo‘llanadigan ko‘nikmaning harakat usulidir.

Ko‘nikma ruhshunoslikda (ongli avtomatlashgan harakat) va ta’limshunoslikda (u yoki bu harakatda bilimlarni ongli va to‘g‘ri qo‘llash) turlicha ta’riflanadi. Mualliflar ko‘nikmani “u yoki bu aqliy harakatni bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadigan ongli faoliyatdagi avtomatlashgan qism” shaklida ta’riflaydilar.

J.Jalolov ko‘mikma va malaka haqidagi ta’limotni ingliz tili o‘qitishga tadbiq etishda, ko‘nikmani nutq faoliyatining avtomatlashgan qismi, deyishni va nutq faoliyati turlarining leksik, grammatik va talaffuz ko‘nikmalari tushunchasini tavsiya etadi[4].

[4] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

*O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Ta’lim tizimidagi boshqa fanlardan ingliz tilining farqini aniqlashtiring.
2. Ta’lim sharoiti tushunchasining tarkibiy qismlarini tushunib oling.
3. Ingliz tili o‘qitish metodikasida “o‘rganish” va “o‘zlashtirish” deganda nima tushuniladi?
4. Ingliz tilini o‘zlashtirish va o‘rganilishining ob’yektiv qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslovchi nazariyalarni qiyoslang.
5. Ingliz tili o‘qitish metodikasida bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalariga berilgan ta’riflarni qiyoslang.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar***


1. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.
2. Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – 258 p.
3. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave &Macmillan, 2011. – 308 p.


## 1.4. Boshlang‘ch sinflarda ingliz tili o‘qitishning maqsad va vazifalari

**Kalit so‘zlar:** *autentik material, diskurs, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, nutqiy faoliyat turlari, amaliy maqasd, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad*

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir. Shu boisdan

respublikamizda sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta’lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida miqyosi va ko‘lamiga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning ko‘pmadaniyatli va ko‘ptilli «landshafti» shaxsning til kompetentligini rivojlantirishga samarali asos bo‘lmoqda. Ingliz tili ta’limi yoki N.Galskovaning ta’biri bilan aytganda, «Lingvomadaniy ta’lim» yosh avlodning yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish hamda interaksiyaga kirishish imkoniyatlari va sarhadlarini yanada kengaytiradi.

2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1875-son qarorida yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bosh maqsad etib belgilangan.

Ta’lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida ingliz tili o‘qitishga tatbiqan quyidagicha ta’riflanishi mumkin: umumta’limiy yo‘nalishdagi o‘quv predmetlaridan bo‘lmish ingliz tilini o‘rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta’lim mazmunini belgilash, o‘qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash vositasidir. Maktabda ingliz tili nima uchun o‘rganiladi? savoliga javob tariqasida qo‘llanadigan termin-tushunchadir. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ingliz tili (1) amaliy maqsad, (2) umumta’limiy maqsad, (3) tarbiyaviy maqsad va (4) rivojlantiruvchi maqsadda o‘rgatiladi. Ingliz tili o‘qitishning amaliy maqsadiga erishish yo‘lida umumta’lim maktab kursida ingliz tili o‘rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o‘qish, ya’ni chet tilda tinglab va o‘qib axborot olishdir. Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi: I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi; II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o‘qish va yozuv og‘zaki nutqda o‘rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi; V-VI sinflarda nutq faoliyati

turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o‘qish – oraliq amaliy maqsad, yozuv – amaliy vosita; VII-IX sinflarda tinglab tushunish va o‘qish – amaliy maqsad, gapirish va yozuv – vosita.

Ma’lumki, har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo‘ladi. Metodik adabiyotlarda ehtiyojni tahlil qilishda ta’lim sharoitidan kelib chiqib, ob’yektiv va sub’yektiv ehtiyojlar farqlanadi. Ob’ektiv ehtiyoj: a) ingliz tili o‘rganuvchilarning yoshga oid psixologik xususiyatlari, ona tili, qiziqishlari, ingliz tili o‘rganish layoqatlari; b) ingliz tilida nutq faoliyat turlaridan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikma darajalari; d) davlat va jamiyat talabidan, ya’ni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib, o‘quvchilarning ingliz tilidan bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan dasturiy talablar haqidagi ma’lumotlar asosida aniqlanadi.

Sub’yektiv ehtiyoj o‘quvchilarning: a) ingliz tili va madaniyatiga munosabatlari; b) ingliz tili o‘rganish usulari va strategiyalari; d) qaysi nutq faoliyat turlari (gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv)ni egallashga qiziqishlari haqidagi ma’lumotlar asosida tahlil etiladi. Ob’yektiv va sub’yektiv ehtiyojlar haqidagi tahliliy ma’lumotlar asosida ta’lim maqsadlari aniqlanadi.

Ta’lim maqsadlarini aniqlashda o‘rganuvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratish zarur. Maqsad – ta’limda umumiy yo‘nalish bo‘lib, muayyan vazifa(lar)ni hal etish rejasidir. Maqsad deganda, ingliz tili va uning sohibi madaniyatini o‘rgatish va o‘rganishning ongli tarzda rejalashtirilgan natijasi ko‘zda tutiladi. Ta’lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma – topshiriq bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi, u ta’lim mazmuni va unga muvofiq erishiladigan natijani belgilash orqali ingliz tili o‘qitish tizimini aniqlashtiradi.

Ingliz tili o‘qitish maqsadlari mazkur tizimining asosiy komponenti sifatida umumta’lim sharoitlari va jamiyat hamda shaxs talabidan kelib chiqib aniqlashib boradi. Maqsad o‘z navbatida ingliz tili o‘qitish mazmuni, tamoyillari, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqadigan usul va texnologiyalarni belgilaydi.

Ingliz tili o‘qitishning amaliy maqsadiga erishish yo‘lida nutq faoliyatining turlari uchun maxsus mavzular va til materiali tanlanadi, o‘quv vaqtining asosiy qismi ularni o‘rganishga bag‘ishlanadi, ya’ni mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati tur(lar)ida bajariladi. Amaliy maqsadga lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni egallash orqali erishiladi. Kompetensiya (layoqat, fazilat), ma’lumki, bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy belgilar majmuidan iborat. Kompetensiya tarkibiga kichik konsepsiyalar kiradi.

Lingvistik kompetensiyada lisoniy hodisalarning nutqda qo‘llanilishi nazarga olinadi. Sotsiolingvistik kompetetsiyada muloqot vaziyati, maqsadi va muloqotdoshlar vazifasiga mos tarzda fikr bildira olish ko‘zda tutiladi. Pragmatik konsepsiya kommunikativ vaziyatda o‘zini tuta bilish (masalan, takroran so‘rash, nutqiy va lisoniy murakkablik tug‘ilganda undan chiqa olish) layoqatiga taalluqlidir. Pragmatik kompetensiya tarkibidagi diskursiv kompetensiya og‘zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Amaliy maqsadning** ro‘yobga chiqishida hosil qilingan barcha kompetensiyalarning uzviy yaxlitligi (sintezi) ta’minlanadi. Amaliy maqsadning ro‘yobga chiqishida o‘quvchi ta’lim oladi, tarbiyalanadi va uning shaxsi rivojlanadi. Ingliz tili o‘qitish umumta’limiy maqsadining ro‘yobga chiqishida o‘rganilayotgan til vositasi orqali foydali hayotiy axborot va til haqidagi yangi sodda ma’lumotlarni o‘zlashtirish ko‘zda tutiladi. O‘quvchining umumiy saviyasini ko‘tarish, o‘rganilayotgan til va madaniyat haqida yangi ma’lumotga ega bo‘lish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, aqliy mehnat usullarini qo‘llash, fikrlash fazilatlarini rivojlantirish kabilarga erishiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda asosan lingvistik, strategik (kompensator), o‘quv-kognitiv, diskursiv sifatlar takomillashadi. Boshqa fanlar qatorida ingliz tili ham majburiy o‘quv predmeti maqomida umumiy ta’lim berish/olishga o‘z hissasini qo‘shadi. Umumta’lim ob’ekti uchta: til hodisasi, unga oid tushuncha yoki sodda qoida va eng muhimi, ingliz tilidagi diskurs mazmuni.

**Ingliz tili o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi.** O‘quvchilarga g‘oyaviy tarbiya berish, aqliy mehnat malakalarini singdirish, ularning bilish faolligini oshirish

mazkur maqsadning mohiyatini tashkil etadi. Tarbiyaviy maqsad asosan, ikki yo‘l bilan ro‘yobga chiqariladi: (1) bevosita chet tilda salomlashish, xayrlashish, predmet va hodisalarning nomlarini bilish, she’r va ashula aytish, o‘yinlar bajarish kabilar, ayniqsa, dastlabki darslarda o‘quvchilarga ancha qiziqarli yumush sanaladi; (2) muloqot chog‘ida bir-birlariga odob doirasida munosabat bildirish, xatti-harakatlarini sharhlay olish, audio matn va grafik matnlardan olinadigan axborotlar beqiyos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Darsdan tashqari o‘quv tadbirlarining ham tarbiyaviy ahamiyati cheksiz.

**Ingliz tili o‘qitishning rivojlantiruvchi maqsadi.** Didaktikadagi rivojlantiruvchi ta’lim ma’nosi bilan hamohang bo‘lib, o‘quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion jihatlarini rivojlantirishni ifodalaydi. O‘quvchi intellektual va ma’naviy oziqa oladi, nutqiy muloqotda o‘z hissiyotini sinab ko‘radi, muloqotdosh (o‘quvchi, muallim, diktor va b.)lar fikrini bilish va o‘z fikrini bayon etish orqali uning shaxsi kamol topib boradi. Ta’lim jarayonida, jumladan, ingliz tili o‘rganishda me’yordagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish o‘quvchi tafakkuri va his-tuyg‘ularining rivojlanishini ta’minlaydi.

Rivojlantiruvchi maqsadga nutqiy amallar tufayligina erishiladi. Uning umumta’limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, o‘quv ma’lumotlari olish bilan ta’lim fikran bog‘lanadi, ma’lumotning mazmuni turli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim, jumladan, ingliz tili o‘rganish shaxs rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi. Til psixologik, kommunikativ, funksional va madaniy hodisa bo‘lganligi sababli bilish jarayoni uchun o‘ta ahamiyatli, chunki u bilmaslikdan bilishga eltuvchi omildir. Ingliz tilida o‘quvchi ikki turda bilim oladi, birinchisi va asosiysi, nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun kerakli algoritmik qoidalar va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan o‘quvchi hayoti davomida foydali ma’lumotlar. Madaniyatlararo muloqot o‘zga xalq mentalitetiga xos belgilar va odatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bunda boshqalarning turmush tarzini reklama qilish emas, balki ingliz tili sohibining nazari bilan dunyo manzarasiga yangicha qarash va oqibatda, o‘z madaniyatini chuqur his qilishga o‘rganadi. Umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg‘unlashuvi sodir bo‘ladi.

Har qanday ta’limning sifati va samaradorligi maqsadning belgilanishidagi aniqlik darajasiga bog‘liq. Ingliz tili o‘qitishda amaliy (ustuvor), umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar e’tirof etilgan. Mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarida ingliz tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat[5].

Rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ingliz tili kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘rgatiladi. Ya’ni boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish:

– o‘quvchilarga Birinchi prezidentimiz ta’biri bilan aytganda «chet tillarning ajib dunyosiga bemalol kirish uchun imkoniyatlarni to‘liq ochib berish» va xalqaro standartlar darajasida ta’lim va tarbiya berish;

– har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, o‘quvchining nutqiy va til malakalarini hamda diqqat, idrok, xotira kabi psixologik jihatlarini rivojlantirish;

– o‘quvchilarda ingliz tilini o‘rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish, ularda o‘zlariga nisbatan ishonch, ingliz tili o‘rganishdan zavqlanish va faxrlanish tuyg‘ularini qaror toptirish[6];

– o‘quvchilarga kichik yoshdan yangi til dunyosiga kommunikativ-psixologik moslashishlari uchun sharoit yaratish, ingliz tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanishga xalaqit beradigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish[7];

– o‘quvchilarni ingliz tili o‘rganish faoliyatiga qiziqtirish va ularda ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani egallash mayllarini shakllantirish;

---

[5] O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari. – Xalq ta’limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.

[6] Flanagan T. Final Report on the Modern Languages in Primary Schools Initiative. – Dublin. Consultative Management Committee, 2012. – 70 p.

[7] Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006. – 480. – С. 82.

– o‘quvchilarda nutqiy imkoniyatlari va ehtiyojlari doirasida ingliz tilida og‘zaki (tinglab tushunish va gapirish) va yozma (o‘qish va yozuv) muloqot qilishning dastlabki sodda ko‘nikmalarini shakllantirish[8];

– o‘quvchilarni lingvomadaniyatning rangdorligi bilan tanishtirish, ularda turli madaniyatlarga nisbatan samimiy va bag‘rikeng (tolerant) munosabatda bo‘lish xislatini shakllantirish;

– o‘quvchilarni tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar)dagi tengdoshlarining dunyosi, folklor va adabiyot namunalari bilan tanishtirish hamda umuminsoniy qadriyatlarni bolalikdan anglashga va hurmat qilishga o‘rgatish;

– o‘quvchilarni o‘rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosdan bahramand etish;

– o‘quvchilarda tili o‘rganilayotgan mamlakat xalqlarining fe’l-atvor, xarakter, odob-axloq me’yorlari, taomil, rasm-rusum va urf-odatlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish;

– tinglab va o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash malaka va ko‘nikmalarini egallash jarayonida o‘quvchining avval egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy va emotsional tajribasini oshirish;

– o‘quvchida aksentsiz talaffuz va istiqbolda o‘z fikrini chet tilda tabiiy nutqqa yaqin darajada ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratish[9], kabi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish o‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natija sari intiluvchi hamkorlikdagi faoliyatdir. Boshlang‘ich ta’limda maqsaddan natijaga erishish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

– o‘quvchiga ikki turda bilim, ya’ni nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun kerakli til (fonetika, grafika va orfografiya, leksika, grammatika)ga oid algoritmik qoidalar va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan o‘quvchi hayoti davomida foydali bo‘ladigan ma’lumotlar beriladi;

---

[8] Пассов Е.И. Цели обучения иностранному языку: учебное пособие.– Воронеж: НОУ «Интерлингва», 2002. – №6. – С.3-6.
[9] Lightbown P.S., Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. - P. 190.

– o‘quvchi ingliz tili sohibining nazari bilan dunyo manzarasiga yangicha qarashga va oqibatda, umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg‘un his qilishga o‘rgatiladi;

– o‘qish va yozish, o‘qish va tinglash, o‘qish va gapirish, tinglash va o‘qish, tinglash va yozish, tinglash va gapirish kabi mashqlar orqali nutq faoliyatining to‘rt turi: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv malakalari o‘zaro bog‘langan holda rivojlantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» inson manfaatlari ustuvorligi, uning zamon talablariga mos holda ortib borayotgan ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish hamda amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, o‘sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, o‘z fikriga, o‘zining qarashlari va qat’iy grajdanlik (fuqarolik) pozitsiyasiga ega bo‘lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirish maqsadida qabul qilingan.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi[10]. Bugunga kelib 1-4 sinflar uchun shu yoshdagi bolalarning psixologik-fiziologik o‘ziga xosliklarini hisobga olgan o‘quv dasturlari va darsliklarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuvga asosan tanqidiy qayta ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124 sonli Qarori bilan har bir ta’lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari tasdiqlandi va 2013/2014 o‘quv yilidan boshlab respublikada chet tillarni, asosan,

[10] O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. – T.: Sharq, 1997. – 42 b.

ingliz tilini o‘rganish umumta’lim maktablarining birinchi sinflaridan bosqichma-bosqich joriy etildi.

***O‘quv-metodik topshiriqlar***

1. Lingvistik kompetensiya tarkibidagi kompetensiyalarning ta’riflarini aniqlashtiring.
2. Sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarning farqlanishini aniqlashtiring.
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktab kursida ingliz tili o‘qitishning amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini tushunib oling.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar***


1. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari. – Xalq ta’limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.
2. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка. – М.: МГЛПУ. Сарма, 2005. – 248 с.
3. Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013. – С.25-34.


## 1.5. Boshlang‘ch sinflarda ingliz tili o‘qitish vositalari

***Kalit so‘zlar:*** *o‘qitish mazmuni, til materiali, til birligi, nutq mavzusi, o‘qitish vositasi, darslik majmua, bilim, malaka, ko‘nikma*

Taraqqiyot sivilizatsiyasi tarixiga retrospektiv nazar tashlar ekanmiz qadimda ajdodlarimiz yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda turli vositalardan foydalanishganligiga guvoh bo‘lamiz. Hisobni o‘rgatish uchun turli toshlar, suyaklar yoki meva danaklaridan, yozuvni o‘rgatishda mumlangan taxtachalar va

“stilo” deb nomlanuvchi uchiga o‘tkir metall tig‘ mahkamlangan cho‘pdan foydalanilgan. Bugungi kunda davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi va darslik ingliz tili o‘qitishning asosiy vositalarini tashkil etadi.

**Davlat ta’lim standarti.** Hujjatning to‘liq nomi «O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standarti» tarzida qabul qilngan. Unda chet tili bo‘yicha A1 daraja uchun ta’lim mazmuni, chet tili bo‘yicha A1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar belgilab berilgan.

DTSda kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratilgan (1-rasmga qarang.):




**1-rasm. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari**

DTSda boshlang‘ich sinf (4-sinf) bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar chet tillarni bilishning umumyevropa tizimiga o‘zaro bog‘liq holda olingan bo‘lib, ular sodda va tushunarli shaklda berilgan. Chet tillarni

bilishning boshlang‘ich A1 darajasi – «Kurtaklash bosqichi» (Breakthrough / Survival level / Beginner / Survival / Formulaic Proficiency / Introductory / Substitutianal level of proficiency) yoki chet til egallashning boshlang‘ich darajasi, deb nomlanib quyidagicha ta’riflanadi:

«Aniq ehtiyojlarni qondirish maqsadida tanish kundalik ifoda birliklarini va sodda jumlalarni tushunaman va ulardan foydalana olaman. O‘zimni va boshqalarni tanishtira olaman, shaxsiy tafsilotlar, ya’ni yashash manzilim, tanish insonlarim va o‘zimga tegishli bo‘lgan buyumlar haqidagi savollarga javob bera olaman va shunday savollar bilan murojaat eta olaman. Suhbatdosh shoshmasdan, aniq gaplashsa va yordam berishga xayrixoh bo‘lsa, sodda usulda axborot almasha olaman»[11].

CEFR umume’tirof etilgan me’yor bo‘lib, u Yevropada zamonaviy tillarni o‘rganish va o‘rgatishda shaffoflik, uzviylik va izchillikni ta’minlash maqsadida 1989-1996 yillarda amalga oshirilgan «Language Learning for European Citizenship» dasturi doirasida ishlab chiqilgan va Yevropa Kengashining 2001-yildagi qarori bilan Yevropa mamlakatlarida chet til ta’lim tizimiga joriy etilishi tavsiya etilgan.

CEFR – Yevropa mamlakatlarida o‘quv reja, dustur va imtihon savollarini ishlab chiqish hamda darsliklar yaratish uchun tayanch yo‘riqnoma bo‘lib, unda til o‘rganuvchilar tildan foydalanish va samarali faoliyat olib borish uchun nimalarni o‘rganishlari, qanday bilim va malakalarni qay darajada egallashlari lozimligi bayon qilingan[12].

Mazkur standart asosida O‘zbekistonda ingliz tili o‘qitishda o‘quvchining lingvistik bilimlar to‘plashiga emas, balki nutqiy (kommunikativ) va madaniy (madaniyatlararo) malakalar (kompetensiyalar)ning egallanishiga e’tibor kuchaytiriladi, ingliz tilini kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv

[11] Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov. – Xalq ta’limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.

[12] Common European Framework of Reference for Languages:Learning, Teaching, Assessment. Language Policy Unit, Strasbourg. 2010. – 274 p. Electron resource: http://www.coe.inlA/dg4/Lingustics/Sourse/CEFR_EN.pdf. Access date: 6.06.2018.

asosida o‘rgatish va kommunikativ-kumulyativ metoddan foydalanish tavsiya etiladi.

Davlat ta’lim standartlarida chet tili bo‘yicha A1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar 1-ilovada va chet tili bo‘yicha A1 daraja uchun ta’lim mazmuni belgiangan 2-ilovada taqdim etiladi.

**Dastur.** Hujjatning to‘liq nomi «Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun chet (ingliz, nemis, fransuz) tili o‘quv dasturi» tarzida qabul qilingan. Ushbu o‘quv vositasi muqaddima, uqtirish xati, ingliz tili o‘qitishning maqsadi, ingliz tili o‘qitish mazmuni, ingliz tilini amaliy o‘rganishga qo‘yiladigan talablar, ingliz tilidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan leksik birliklar miqdori, ingliz tili grammatik va talaffuz minimumi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilidan har bir sinfda o‘rganiladigan mavzular taqsimoti kabi qismlardan iborat. Dasturni o‘qituvchi bajaradi, o‘quvchi esa uni o‘zlashtiradi.

O‘zbek maktablari uchun dastur tayyorlashning o‘z tarixi bor. 1968-yilga qadar o‘zbek maktablarida Rossiya uchun mo‘ljallangan dasturlarning mahalliylashtirilgan nusxalaridan foydalanib kelingan. O‘zbek maktablari uchun dastur loyihasi 1968-yilda ishlab chiqilgan va 1970/71-o‘quv yilida maktablarda joriy etilgan. 1999-yilda o‘quv dastur yangilandi va uning asosida yangi darsliklar yaratildi.

Chet tilni barcha umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-sinfidan boshlab ommaviy o‘rganish joriy etilishi munosabati bilan Yevropa Kengashining «Chet tilni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish, baholash» to‘g‘risidagi xalqaro hujjat (CEFR)ning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha Davlat ta’lim standarti va O‘quv dasturlari ishlab chiqildi va 2013–2014 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi.

Dasturga muvofiq maxsus tanlangan o‘qitish mazmuni chet tilda kommunikativ kompetensiyaning egallanishida asosiy ta’limiy ob’yekt hisoblanadi. O‘qitish mazmunida ikki jihat kuzatiladi: nimani o‘rganish va nima qilishni o‘rganish. Birinchisi, o‘quv materiali va ikkinchisi o‘quv jarayoni sifatida

namoyon bo‘ladi. O‘quv materiali dasturdan o‘rin oladi. Ikkinchisi, ko‘nikma va malakalarga mansub kommunikativ kompetensiyani hosil qilish jarayoni bo‘lganligi tufayli dasturda ularga tegishli talablar sanab o‘tiladi.

Ingliz tili o‘qitish mazmuni uch tarkibli ta’limiy hodisadir: 1) nutq mavzulari; 2) ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar; 3) til materiali. O‘qitish mazmuni mavjud sharoitga ko‘ra, jumladan, o‘quv predmetiga ajratilgan vaqtga qarab tanlanadi. Nutq faoliyati doirasi dasturiy mavzular bilan belgilanadi. Yaratilgan (gapirish, yozuvda) va o‘zga shaxs sodir etgan (tinglab tushunish va o‘qishda) diskurs dasturdan o‘rin olgan mavzularga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ingliz tili o‘qitish mazmuni o‘qitish maqsadlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, u odatda, maqsad mazmunini belgilaydi. Mazmun ta’lim chog‘ida o‘zlashtiriladigan metodik tushuncha yoki kategoriya bo‘lsa, uning mahsuli erishiladigan maqsadni aks ettiradi. O‘qitish mazmuniga nutqiy mavzular, malaka va ko‘nikmalar hamda til materiali kiradi. Ushbu uchta tarkibiy qism ingliz tilini o‘rganishda yaxlit o‘zlashtirishni taqozo qiladi.

Nutq mavzulari o‘qitish maqsadlariga asoslanib tanlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «O‘quvchi va uni o‘rab turgan atrof-muhit», «Vatanimiz» va «Tili o‘rganiladigan mamlakatlar» kabi mavzular asosiy nutq mavzulari hisoblanadi. O‘qish uchun siyosiy, badiiy, ilmiy, ma’naviyat va madaniyat hamda sportga oid autentik matnlar tanlanadi. Tanlab olingan mavzu va unga oid matnlar o‘quvchilarning yoshi hamda qiziqishlariga mos kelishi kerak.

O‘quv dasturda o‘quvchilar yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzular jadvallarda sinflar bo‘yicha alohida berilgan. Jadvalda sinflar bo‘yicha taqsimlangan asosiy mavzular miqdori darslikda shu miqdordagi bo‘limlar bo‘lishi kerak, degan ma’noni anglatmaydi. Asosiy mavzular tarkibidagi kichik mavzular ham til materiali hajmidan kelib chiqqan holda alohida bo‘lim bo‘lishi mumkin.

Nutq malakalari deganda, chet tilda nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv)ni egallash darajalari tushuniladi. Malaka o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish davrida olgan ko‘nikmalarini amaliy faoliyatida sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo‘llay olish kompetensiyasi

(layoqati)dir. Nutq malakalari til materialini muloqot paytida qo‘llash jarayonida rivojlanadi va takomillashadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lmish nutqiy malakalarni singdirish chog‘ida ularga mos keladigan lisoniy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirishdan iboratdir. Bunday ko‘nikmalar asosini ushbu dasturda ko‘rsatilgan til materiali tashkil qiladi.

Til materiali dasturda DTSga muvofiq tarzda alohida beriladi. Til materiali ma’lumki, leksik, grammatik va fonetik hodisalarni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida leksik, grammatik, talaffuz hamda imlo birligi kabi tushunchalarni farqlash, darslik va qo‘llanmalar tuzishda ulardan o‘z o‘rnida foydalanish zarur. Til birligi leksik, grammatik, talaffuz va orfografiya (imlo) birliklarini ifodalaydi.

Lug‘at birligi – o‘zak so‘z va yasama so‘zdan iborat, leksik birlik (o‘zak so‘z, yasama so‘z (uning tarkibidagi so‘z yoki so‘z yasovchi elementlar), so‘z yasovchi affiks, turg‘un so‘z birikmasi, gap (og‘zaki nutqning ilgarilashi sharoitida qismlarga bo‘linmay o‘rgatiladigan tayyor jumlalar)ni o‘z ichiga oladi.

Grammatik birlik – morfologiya va sintaksis hodisalar, talaffuz birligi – fonetik minimumdagi tovush - fonemadan to jumlalar ohangigacha, imlo birligi – harf, harf birikmasi, so‘z, so‘z yasash, shakl va gap yasash elementlari, so‘zning o‘zgaruvchan hamda o‘zgarmaydigan shakllaridan iboratdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabini bitiruvchi o‘quvchilar egallaydigan 1500 ta leksik birlikni nutqda o‘zlashtiradilar. Ingliz tili grammatikasini o‘rgatish, asosan, induktiv (nutqda o‘rganilgan lisoniy hodisaga qoida-umumlashma) va qisman deduktiv (o‘qish va tinglashda uchraydigan grammatik hodisalarga oid algoritmik qoida berish) uslublarida amalga oshiriladi. Ingliz tili grammatikasini o‘rgatish mazmuni uchta metodik mezonga ko‘ra (o‘quvchining ona tili va ikkinchi tildan to‘plangan grammatik tajribasini hisobga olib, ingliz tilining o‘zidan yig‘iladigan tajribaga asoslanib va grammatik hodisalar taqdimoti tartibini nazarga olib) tanlanadi va ularga maxsus mashqlar beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab kursida ingliz tili o‘rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o‘qish, ya’ni ingliz tilida tinglab va o‘qib axborot olishdir. O‘quv dasturida oraliq amaliy maqsad I sinfda tinglab tushunish va

gapirish, II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o‘qish va yozuv esa og‘zaki nutqda o‘rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi sifatida belgilangan.

Ingliz tilidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan fonetik va grammatik minimum nomma-nom keltirilgan. Leksik birliklar faqat miqdor jihatdan belgilangan. Fikrimizcha, har bir sinf oxirida egallanishi lozim bo‘lgan leksik birliklar ro‘yxati va malakalarining egallanganligini aniqlovchi testlarning ilova etilishi dasturning yanada mukammal bo‘lishini ta’minlaydi.

Ingliz tili o‘quv dasturida A1 darajaning har bir sinfi oxirida o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv bo‘yicha A1/1 (I sinf), A1/2 (II sinf), A1/2 (III sinf), A1/3 (IV sinf) malakalari belgilangan. Dasturda boshlang‘ich (A1) darajaning har bir sinfi oxirida o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan malakalar 3-ilovada belgilangan.

**Darslik.** Bugungi axborot texnalogiyalari asrida erishilgan yutuqlar ta’limda sifat va samaradorlikni ta’minlashning yanada ilg‘or vositalaridan foydalanish imkonini yaratmoqda. Bugungi kunda darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg‘or namunasi aks etishi lozimligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘quv vositalari o‘qituvchi va o‘quvchi o ‘rtasidagi ta’limiy ko‘prik bo‘lib, unda o‘quv jarayoni sodir bo‘ladi. Ushbu vosita yordamida jamiyatda kelajak avlod shakllanadi. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Demokratik jamiyat talabi esa mustaqil va ijodiy fikrlashga, kreativ va tashabbuskor bo‘lishga ruhlantiruvchi, egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarga tayanib turli vaziyatlarda muammoning yechimini oqilona hal eta olish kompetensiyalarga ega raqobatbardosh va moslashuvchan mutaxassis sifatida komil insonni tarbiyalashdir[13]. Bu esa o‘z navbatida yuqoridagi

[13] Архипов В.И. Школьные учебники иностранного языка новогопоколения: от теории к практике составления. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАОИ.Л. Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-214.

maqsadlarga erishini ta'minlashning zamonaviy va ilg'or ta'lim vositalarini yaratish muammosini kun tartibiga olib chiqadi.

Metodik adabiyotlarda ta'lim vositalari quyidagicha tasniflanadi: 1) bajaradigan vazifasiga ko'ra asosiy va qo'shimcha (yordamchi) o'quv qurollari turlari; 2) kimga mo'ljallanganligiga qarab muallim yoki o'quvchilar qo'llaydigan o'quv qurollari; 3) axborot keladigan yo'l (analizator)ga nisbatan – eshitish, ko'rish, eshitib-ko'rish nomlaridagi; 4) texnika ishtirokini hisobga olib, an'anaviy (notexnik) va zamonaviy (texnik) atalmish o'quv qurollari; 5) ishlab chiqarilishi nuqtai nazaridan – ommaviy va mahalliy o'quv qurollari mavjud.

Keyingi yillarda «darslik» termini ifodalaydigan ma'no doirasi birmuncha kengayib, *darslik-majmua* deb nomlanmoqda va u o'quvchi kitobi (darslik), o'qituvchi kitobi, grammatik va leksik materiallarning o'zlashtirilishiga mo'ljallangan mashq daftarlari, o'qish kitobi, multimediya ilovalari va Internet veb-saytidan iborat bo'lishi lozimligi tavsiya etilmoqda. Darslik-majmuaning veb-sahifasida o'qituvchilar majmua haqida fikr-mulohazalar qoldirish, mualliflar bilan bevosita muloqotga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, veb-sahifalarda darslikdan foydalanish bo'yicha muallif va tajribali o'qituvchilarning metodik tavsiyalari bilan tanishish mumkin.

Elektron darsliklar axborotlarga boyligi va qo'shimcha imkoniyatlari, ya'ni chet tildan kommunikativ kompetensiyani egallanganlik darajalarini aniqlovchi avtomatik tizimning mavjudligi, fonetika, orfografiya, leksika va grammatikaga oid animatsion va grafik o'yin tarzidagi mashqlarning turli-tumanligi, o'quvchilarga autentik nutq vaziyatlarini virtual tarzda namoyish eta olishi, video va audio formatdagi qo'shimcha sotsiolingvistik materiallarga boyligi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilganligi belgilangan. Boshlang'ich ingliz tili ta'limida ham mazkur tilni

istiqbolda mukammal egllanishini ta’minlaydigan poydevor yaratilishiga e’tibor qaratiladi. Buning uchun esa o‘quvchilarning bilish faolligini, ya’ni tafkkurini kengaytiradigan, ularning ijodiy fikrlash qobilyatini o‘stiradigan darslik majmualarning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababdan zamonaviy darslik majmualarining salohiyati, ularning o‘quvchi bilish faolligini oshirish va kommunikativ kompetensiyalarni egallanishini ta’minlay olish darajasi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, dasrlik majmuda taqdim etilgan nutq mavzulari doirasidagi nutq faoliyat turlari uchun mashqlarning miqdoriy ratsioni va ularning kommunikativ kompetensiyaning egallanishini ta’minlashdagi foydalilik darajasi muhimdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘qitishning lingvistik, psixologik va metodik asoslari hamda zamonaviy talablaridan kelib chiqib darslik yaratish muammolari D.I.Traytak (1990), R.K.Minyar-Belorucheva (1990), G.V.Rogova (1991), A.R.Arutyunova (1991), N.I.Gez (1996), I.L.Bim (2000), D.D.Zueva (2004), A.A.Kuznetsova (2005), M.Koprovskiy (2005), A.M.Jarova (2013) kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, Mark Koprovskiy «New Headway», «Inside Out», «Innovations» darsliklarida taqdim etilgan leksik minimum tarkibi so‘z, qo‘shma so‘z, juft so‘z, so‘z birikma, turg‘un birikma, frazeologik birikma, tipovoy va tayyor jumlalar hisobiga qay darajada adekvat metodik tayyorlanganligini aniqlash maqsadida ilmiy izlanishlar olib borgan. А.М.Жарова «Английский язык» для 2, 3, 4 классов (В.П.Кузовлевидр.), «Enjoy English» для 1, 2, 3, 4 классов (М.З. Биболетова и др.), «Английский язык» для 1, 2, 3, 4 классов (И.Н.Верещагина и др.) darslik-majmualarning o‘quvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish salohiyatini belgilash bo‘yicha qiyosiy tadqiqotlar olib borgan.

O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari uchun darslik majmualar yaratishda nazariyani amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda A.T. Irisqulov, S. Xan va mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan Kids’ English Class 1,2,3,4 darslik-majmualaridan foydalanilmoqda.

Mazkur darslik-majmualarning yuqori darajadagi estetik jozibadorligi o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishga motivatsiya va o‘quv-bilish faolligini oshirishi mumkinligi, izchillik tamoyiliga amal qilinganligi kabi qator yutuqlarini e’tirof etish mumkin.

Mazkur darslik majmualari DTS, Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti tayanch o‘quv rejasi, ingliz tilidan o‘quv dasturi va Umumyevropa xalqaro standarti (CEFR)ga muvofiq hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshga oid psixologik xususiyatlarini, ularning til tajribalarini inobatga olgan holda, xorijlik konsultantlar yordamida, mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan. Qolaversa, majmua tarkibi multimediya resurslari bilan boyitilganligi uning ta’lim maqsadlarga erishilishini ta’minlash salohiyatini yanada oshiradi.

Soxaga oid adabiyotlarning mavzuga taaluqli boblarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tayyorlangan darslik majmualar:

1. DTS, o‘quv reja va dasturda belgilangan ingliz tili o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini tilni amaliy egallash chog‘ida uyg‘unlashgan holda yuzaga chiqarishga erishilishini ta’minlay olishi;

2. DTS, o‘quv reja va o‘quv dasturida belgilangan A1 darajasidagi kommunikativ kompetensiyani egallanishini ta’minlay olish salohiyatiga ega bo‘lishi;

3. O‘quv reja va dastur talablariga muvofiq nutq faoliyat turlaridan bilim, malaka va ko‘nikmalarni integrativ o‘zlashtirilishini ta’minlay olishi;

4. Nutq faoliyat turlaridan fonetika, leksika va grammatikaga oid bilimlarni olish, ko‘nikmalarni egallash va malakalarni o‘stirishga mo‘ljallangan takrorlash (controlled) va erkin kommunikativ (free communicative) mashqlarini ratsionli bajarilishini ta’minlay olishi;

5. Kommunikativ kompetensiyani eggallanishida foydalilik ehtimolligi yuqori bo‘lgan ratsionli (juft so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikma, nutq namunalari) leksik minimumni o‘zlashtirilishini ta’minlay olishi;

6. Formati, ya’ni illyustrativ jozibadorligi, mustahkam, ixcham va qulay muqovalanganligi, o‘lchamini to‘g‘ri tanlanganligi, fonetik va grafik ramziy

belgilarning tushunarli va aniqligi, sifatli tahrir etilganligi, mundarija, ilovalar va jadvallarni adekvat joylashtirilganligi;

7. Tarkibiy jihatdan to‘liqlik darajasi, ya’ni o‘quvchi kitobi, o‘qituvchi kitobi, o‘qish kitobi, yozuv daftari, grammatika va leksikaga oid til materialini o‘zlashtirilishi uchun mashq kitoblari, nutq mavzulariga oid audio va video fayllar, har bir bo‘lim, chorak va o‘quv yili yakunida bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallanganlik darajasini aniqlovchi test kitoblari va maxsus ruknlarda muhokamalar va iqtiboslar berib borilayotgan Internet saytining mavjudligi kabi mezonlar asosida baholanmoqda.

### *O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. “O‘qitish vositalari” deganda nimani tushunasiz?
2. Dastur va darslik orasidagi munosabatlarni aniqlang.
3. Ingliz tilio‘qitish mazmunining tarkibiy qismlarini bayon qiling.
4. Metodik terminlar “mavzu”, “vaziyat”, “malaka”, “ko‘nikma”ni ifodalaydigan tushunchalar talqinini bayon eting.
5. Qaysi nutq faoliyati turlari bo‘yicha qanday mavzu va vaziyat berilishi maqsadga muvofiqligini muhokama qiling.

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*


1. Дронов В.П., Копылова В.В. Учебно-методическое обеспечение сегодня – переход к новым формам. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-212.
2. Brown.D.H. Teaching by principles. An Integrative Approach to Language Pedagogy. –NY.: PEARSON Longman, 2007. – 570 p.
3. Koprowski M. Investigating the usefulness of lexical phrases in contemporary course books. ELT Journal Volume 59/4 October 2005. – P. 322-332.

# IKKINCHI QISM
# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING TILSHUNOSLIK ASOSLARI

## 2.6. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining lingvistik asoslari

**Kalit so‘zlar:** *til, nutq, til materiali, nutq faoliyat turlari, nutqiy kompetensiya, lisoniy kompetensiya, filogenez, ontogenez, mexanik xotira, mediatsiya, interaksiya, egosentrik nutq, verbal ifoda, nutqning verballashuvi*

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining lingvistik asoslari o‘qitish jarayonining lingvistik asoslaridan farqlanishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining lingvistik asoslari zamonaviy o‘qituvchiga shaxsiy ishchi o‘quv dasturi uchun til materialini tanlash, metodik tashkil etish va uni taqdim etishda yordam beradi.

Ma’lumki, o‘qitishning lingvistik asoslari kommunikativ kompetensiyaning lingvistikaga oid ta’lim mazmunini aks ettiradi va DTS, dastur va darsliklarda bayon etiladi.

Dastlab kommunikativ kompetensiya atamasini tushunib olish zarur bo‘ladi. *Kommunikativ kompetensiya* atamasiga o‘rganilayotgan chet til bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobilyati, degan mazmunda ta’rif berilgan. Ushbu atama tarkibidagi asosiy tushunchani ifodalovchi *kompetensiya* (competence) so‘zi dastlab N.Xomskiy tomonidan «grammatik kompetensiya», ya’ni gapiruvchi va tinglovchining til haqidagi bilimi, degan ma’noda qo‘llanilgan[14].

---

[14] Bagarić V., Mihaljević D.J. Defining Communicative Competence. METODIKA:Vol. 8, br. 14 (1/2007), – P. 94-103.

D.Xayms bola til haqidagi bilimlar (grammatika)ni o‘zlashtirish jarayonida undan to‘g‘ri foydalanishni ham, ya’ni qachon, qayerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini o‘rganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya *kommunikativ kompetensiya* atamasining muallifiga aylandi.

Bugunga kelib kompetensiya insonning turli sohalarda faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, malaka, ko‘nikma, shaxsiy sifat va fazilatlar yig‘indisini ifodalamoqda.

*Lingvistik kompetensiya* til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozuv) bo‘yicha ko‘nikmalar egallashni nazarda tutadi.

*Sotsiolingvistik kompetensiya* so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini, o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish fazilatini nazarda tutadi.

*Pragmatik kompetensiya* o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish xususiyatini nazarda tutadi.

Metodist-olimlar ingliz tili o‘qitish mazmunini a) til va nutq materialini umumlashtiruvchi lingvistik, b) malaka va ko‘nikmalardan iborat psixologik, d) o‘rganish usullarining egallanishini aniqlashtiruvchi metodologik komponentlarga ajratishadi.

Lekin bugungi zamonaviy ta’limda nafaqat til va nitqqa oid, balki mamlakatshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslikka oid materialning ham o‘zlashtirilishi talab etiladi. Bunda ingliz tili ta’limiga ijtimoiy-madaniy va

madaniyatlararo yondashuvlarni tadbiq etish zarurati paydo bo‘ladi. Bularning hammasi darslik va ishchi o‘quv dasturlari uchun til va nutq materialini tanlash va taqdim etish vazifasini murakkablashtiradi.

Zamonaviy talablarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan nafaqat til va nutqqa oid materialining balki ingliz tili sohibining madaniyatiga oid materialning ham o‘zlashtirilishi lozimligi inobatga olinadigan bo‘lsa, lingvistik materialni tanlashda sotsiolingvistik mazmunga ham e’tibor qaratilishi zarur bo‘ladi.

Tajribalardan ma’lumki, zamonaviy o‘qituvchi asosiy darslik-majmuadan foydalanish bilan cheklanmay sinfdagi o‘quvchilarning salohiyatidan kelib chiqib darsning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida turli manbaalardan qo‘shimcha materiallar tanlaydi. Shu sababdan zamonaviy o‘qituvchi fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturini takomillashtirishda kimga, nimani, qanday, va qancha o‘qitish masalasini savodli hal etishi kerak.

Aksariyat hollarda o‘qituvchining o‘rgatish va o‘quvchilarning o‘rganish maqsadiga yo‘naltirilgan hamkorlikdagi faoliyati natijasida kommunikativ kompetensiyaning dasturiy talablar darajasida egallanishiga erishilmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida darsliklarda taqdim etilgan lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlarning miqdoridagi noadekvatlikni ko‘rsatish mumkin. Chunki ayrim darsliklar G‘arb lingvodidaktikasiga haddan ziyod e’tibor qaratish natijasida yaratilgan bo‘lib, ularda nutqiy kompetensiyaning egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar miqdori sezilarli darajada yuqori. Yoki aksincha, ya’ni oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun test sinovlariga puxta tayyorlash maqsadida til materialining o‘zlashtirilishiga xizmat qiluvchi mashqlar miqdori ustunlik qilishi mumkin. Zamonaviy o‘qituvchi esa muvozanatni saqlay bilishi va darsdan ko‘zlangan maqsadlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun maxsus metodik tadbirlar qo‘llashi lozim.

Dastur materialini tanlashda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh davrlari bilan birga, ulardagi nutqiy faoliyatning qay tarzda harakatlanayotganligini va uni qanday rivojlantirish mumkinligini hisobga olishi lozim. Masalan, bir soat (40-45

daqiqa)lik dars mashg‘ulotida (uyda repetitor ko‘magida emas) o‘quvchi qancha leksik birlikni o‘zlashtira olishi (zarurligini emas) mumkinligini aniqlash zarur. Buning uchun nutqiy faoliyatning ona tilida va ingliz tilida turlicha bo‘lolmasligini tushunish zarur. Nutqiy faoliyat bitta va u o‘z qonunyatlariga muvofiq rivojlanadi. U o‘zining shakl va mazmuniga ega bo‘lib shaxsning rivojlanishiga chambarchas bog‘liq.

O‘quvchi nutqiy faoliyatining qanday tuzilganligini bilgan o‘qituvchi uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlarni adekvat tanlay oladi, nutq faoliyat turlaridan maqsad emas vosita sifatida foydalanib shaxsga va kompetensiyalarning egallanishiga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga muvofiqlashadi. Shundagina bilim, malaka va ko‘nikmalarning egallanishiga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi o‘z o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga bo‘shatib beradi.

Metodikaning psixolingvistik aspektidan bilimga ega o‘qituvchi (ona tilini o‘zlashtirishdagi tajribalar asosida sodir bo‘ladigan ingliz tili o‘rganish jarayonida) o‘quvchi nutqiy faoliyatining turlarini emas, balki kompleks rivojlantira oladi.

Ma’lumki, chet tilni o‘rgatish ushbu tilda nutqning sodir bo‘lishi yoki uni idrok etilishi jarayonini tashkil qilishdir. «Nutq» terminining ma’nosi fikrni shakllantirish va uni ifodalash usulini,tilning amalda qo‘llanilishi va reallashuvini bildiradi. Til esa kommunikatsiya va interaksiya vositasi, ishoralar tizimi, fikrni ifodalash va xosil qilish quroli, vositasidir. Til undan foydalanuvchilar uchun umumiy, ya’ni ijtimoiy nutq esa individual o‘ziga xos hodisadir[15]. Til, sodda qilib aytganda, birliklar va ularning aloqasi sistemasidir, nutq – og‘zaki va yozma matndir. Fikrni ifodalash psixolingvistikada (re)produktiv nutq faoliyati deyiladi, bunga gapirish va yozuv kiradi. Ifodalangan fikrni (gapirish va yozuv mahsulini) idrok etish retseptiv nutq hisoblanadi. Fikr bayon etuvchi va uni idrok etuvchilar kommunikant nomi bilan yagona terminda umumlashadi. Kommunikant o‘z

[15] Немов Р.С. Общие основы психологии. – М.: Владос, 2003. – С. 216-217.

navbatida, (re)produsent (gapiruvchi va yozuvchi – fikr bayon etuvchi) va retsipiyent (fikrni idrok etuvchi – tinglovchi va o‘quvchi) deyiladi.

Zamonaviy metodikada “retseptiv” va “reproduktiv” minimumlar farqlanadi. Retseptiv til minimum nutq faoliyatining tinglab tushunish va o‘qish turlaridan kommunikativ kompetensiya uchun xizmat qiladigan til materiali tushuniladi. Reproduktiv til minimum esa nutq faoliyatining gapirish va yozish turlaridan kommunikativ kompetensiyaning egallanishiga hizmat qiladi.

Psixolingvistika muammolarini hal qilishda professorlar Lev Semyonovich Vigotskiy, Jan Piaje, Patrisiya Driskol, Tatyana Gordon, Nikolay Ivanovich Jinkin, Aleksey Alekseyevich Leontyev, Irina Alekseyevna Zimnyaya kabi atoqli ruhshunoslarning hissasi katta.

L.S.Vigotskiy tadqiqotlaridan ma’lumki chet tilda nutq rivojlanishi ona tilida nutq rivojlanishidan tubdan farq qiladi. Ona tilida nutq (deyarli) ong ishtirokisiz va maqsadli rivojlantirilmaydi. Bola nutqi va tafakkuri parallel rivojlanadi. Ya’ni bola ongida shakllangan fikrni ifodalash maqsadida til vositalaridan foydalanadi va shu tariqa o‘zini o‘rab turgan borliqni anglay boshlaydi. Borliqni anglash jarayonida til bilan ifodalanadigan tushunchalar shakllanib boradi. Ingliz tilida nutq rivojlanish jarayonida esa mutlaqo boshqacha manzara gavdalanadi. Ingliz tili o‘rganishga kirishilganida o‘quvchi ma’lum darajada ona tilidagi til va nutq tajribalariga hamda shu tilda asosiy fikrlash operatsiyalarini amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Ingliz tili birliklarini egallanishi o‘rab turgan borliqni anglash jarayoni bilan muvofiqlashmaydi. Bu jarayonda o‘quvchi fikrlashni emas balki fikr ifodalashning o‘zga til va madaniyatga xos vosita va usullaridan adekvat foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘rgatishning onglilik prinsipiga ahamiyat qaratilishi lozimligini talab etadi. Ya’ni kommunikativ kompetensiyaning egallanishi uchun fonetika, leksiga va grammatikaga oid til materiali metodik tayyorlanadi va taqdim etiladi. Til materiali yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlash va uning asosida ingliz tilida nutqiy

ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida maxsus kommunikativ mashqlar bajariladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ingliz tilida fikr ifodalash usuli sifatida nutqini rivojlantirish katta qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Chunki fikrni shakllantirish ichki planda ona tilida sodir bo‘ladi, ifodalash esa tashqi planda ingliz tilida amalga oshiriladi. Agar ingliz tili o‘rganish jarayonida o‘quvchi doimiy ravishda ona tili kodini ingliz tili kodiga tarjima qilaversa u til vositalarini o‘rganadi, ingliz tilida fikr ifodalash usulini emas.

Til o‘zlashtirish jaryoni ongli va beixtiyor harakatlar umumlashmasida kechishi aniq, lekin bu harakatlarni ta’minlovchi mexanizmlarning «ishga tushishi» til o‘rganishga qanday sharoitda, necha yoshda kirishilayotgani bilan bog‘liq. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ona tilidagi nutq va fikrlash jarayonlari o‘ta tez rivojlanayotgan bo‘ladi, o‘z navbatida mexanik xotira o‘rnini so‘z mantiq xotirasi, taqqoslash, qiyoslash, analogiya, tasniflash, umumlashtirish egallagan bo‘ladi. Agar shu davrda ingliz tili taqlid qilish va yod olish asosida o‘qitilsa bu mexanik xotirani rivojlantiradi va oqibat natijada ona tilida nutq rivojlanishini to‘htab qolishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida nutq va tafakkur rivojlanishini, fikr shakllantirish va ifodalashni ham tormozlanib qolishiga olib keladi.

O‘quvchining ingliz tilidagi nutqini rivojlantirishda fikr ifodalashning ingliz tilidagi, ya’ni ona tilida fikr ifodalash usuli bilan qiyoslanadigan muqobil usuli shakllantirilishi lozim. Buning uchun nutq namunalarini o‘rgatish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni ingliz tilda fikr ifodalash usullari bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Chunki nutq namunalarining boy repertuari o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda va hali shakllanmagan grammatik ko‘nikmalar o‘rnini qoplashda muhim ahamiyatga ega. Bunda tildagi alohida birliklar emas, balki shu birliklarni o‘z ichiga olgan yaxlit modellar yoki qurilma (konstruksiya)lar taqqoslanadi.

Strukturani tadqiq etuvchi lingvistik yo‘nalish namoyandalari ijod etgan *nutq namunasi* (speech patterns, formulaic chunks, fixed expressions) va *almashtiriladigan jadvallar* (substituton tables) tushunchalari metodikada keng

ommalashgan. Nutq namunalari va almashtiriladigan jadvallar o‘rganilayotgan chet tilning leksik, grammatik va talafuz tomonlarini mujassamlashtiradi hamda uni idrok etish uchun tayyor hodisa hisoblanadi.

Nutq rivojlanish jarayonida bola nafaqat til tizimini, balki o‘z his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini va xohish-istagini ifodalash vositalarini ham o‘zlashtiradi. Shu tariqa til bolaning shaxsiy «men»ini shakllantiruvchi vosita sifatida ijtimoiylashuv va individuallashuvga xizmat qiladi. Uch yoshli bolaning nutqi muloqot quroli vazifasini bajarib, amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda ro‘yobga chiqadi. Unda dialogik nutq paydo bo‘ladi. Qiziqtirgan narsalar haqida savollar berish yoki kattalarning savoliga javob qaytarish zarurati dialogik nutqni taqozo etadi. Dialogik nutq zamirida ona tilining grammatik tuzilishini faol egallash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Dialogik nutq bolaning kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Kattalar bilan muloqot jarayonida bola o‘zini o’rab turgan lingvo-etno madaniyatga taalluqli ekanligini anglaydi. Ingliz tili o‘rganish jarayonida o‘quvchi o‘zga lingvo-etno madaniyatiga xos ijtimoiy va til muhiti bilan tanishtiriladi. An’anaviy ingliz tili o‘rgatishning dastlabki bosqichlarida monologik nutqni o‘rgatishga ko‘proq ahamiyat qaratilgan. Masalan, darslik majmualarda “This is a dog.”, “That is a caw.” kabi misollar uchraydi (Kids’ English 2:24). Bunday misollar esa I.A.Zimnaya va Ye.V.Passovlar fikricha kommunikatsiya yoki interaksiyani emas, nutqharakatni bajarishga o‘rgatadi. Nutqharakatni bajarishda esa motivatsiya bo‘lmaydi[16].

Ma’lumki, bolaga ona tilidagi nutq hayot uchun zarur qurol, yagona muloqot vositasi sifatida rivojlanadi. Ona tilidagi nutq rivojlanishida ichki (intrinsic) motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni bola ona tilini ota-onasi yoki o‘qituvchisini xursand qilish, a’lo baho olish, til materialini o‘zlashtirish uchun emas, balki o‘zining biologik ehtiyojlarini qondirish uchun o‘zlashtiradi[17]: otlarning ko‘plik shaklini yasay olmadimi, ikkita qand o‘rniga bitta oladi. Quyida

---

[16] Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – С. 10-11.
[17] Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – P. 40

ona tili va chet tilda nutq rivojlanish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilib chiqamiz (2-jadval).

2-jadval.

**Ingliz-o'zbek tillarida nutq rivojlanishi filo-, ontogenezi hamda leksik va grammatik ko'nikmalarning rivojlanishi bo'yicha o'xshash va farqli xususiyatlari**

| Qiyoslash mezoni | Ona tili | Ingliz tili |
|---|---|---|
| Nutq rivojlanish filogenezi | tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv kompetensiyalarining egallanishi izchilligi | tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv kompetensiyalarining egallanishi izchilligi |
| | Fonetika, leksika, orfografiya, grammatika | Fonetika, leksika, grammatika, orfografiya |
| Nutq rivojlanish ontogenezi | Stimul-reaksiya hodisalari, egosentrik nutq, kreativ nutqiy ijodkorlik | Nutq namunalari asosida taqlid qilish, takrorlash mashqlarini bajarish |
| Leksik ko'nikma | So'z tasodifiy va deyarli ong ishtirokisiz o'rganiladi | Leksik minimum metodik tayyorlanadi va maxsus maqsadlarda taqdim etiladi |
| Grammatik ko'nikma | ot + sifat, yoki ot + fe'ldan iborat qisqa telegrafik xususiyatga ega | Muloqot modellari va nutq namunalari asosida grammatik ko'nikma shakllantiriladi |

Uch yoshdan o'tgan bolada faqat yaqin kishilar bilan emas, balki begonalar, tengqurlar bilan ham muloqot ko'lami kengayib, tom ma'nodagi nutq faoliyati vujudga keladi. Bolada kattalarning nutqiga, xatti-harakatiga qiziqish kuchayadi, o'ziga daxlsiz fikr va mulohazalarni tinglash mayli paydo bo'ladi, shuningdek, uning o'z atrof-muhitida, kattalar davrasida olgan ma'lumotlar va axborotlar bo'yicha boshqalar bilan muloqotga kirishish istagi paydo bo'ladi[18].

Ingliz tili o'rganishda tashqi motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham kichik maktab yoshi ushbu planda katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchida o'yin-motivatsiyasi kuchli bo'ladi va undan foydalanish har qanday til birligini o'rgatishda kommunikativ amaliy ahamiyatga ega.

---

[18] Ғозиев Э. Умумий психология: Психология мутахассислиги учун дарслик. – Т.: Университет, 2006. 82-б.

Nutq rivojlanish filo-ontogenezi sohasidagi tadqiqotlarda eng koʻp iqtibos keltirilayotgan hodisalardan biri J.Piaje tomonidan «*egosentrik nutq*» nomi bilan fanga kiritilgan atama bilan izohlanadi. Piajening taʼkidlashicha, 3-4 yoshli bola nutqida muloqot qilishga kuchli ehtiyoj sababli kommunikativ xususiyatlar paydo boʻlib, maʼlum mashgʻulot jarayonida (oʻyin yoki boʻyash) oʻzi bilan oʻzi gaplashadigan, yaʼni adresant boʻlmasa-da, ovoz chiqarib fikrlaydigan boʻlib qoladi. Mazkur yoshdagi bola nutqining 40% egosentrik boʻlib, u kichik maktab yoshiga qadar asta-sekin kamayib boradi[19].

Mediatsiya nazariyasidan maʼlumki, bolaning bilimlarni oʻrganishida kattalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariya muallifi (Feurshteyn)ning fikricha, bolaning oʻrganishini uning hayotidagi muhim shaxslar, yaʼni mediatorlar tashkil etishadi. Bu shaxslar, yaʼni dastlab ota-onalar, keyinchalik tarbiyachi va oʻqituvchilar bola uchun eng maqbul stimullarni tanlaydilar va uyushtiradilar, stimullarni bolaning oʻrganishini taʼminlashga muvofiqlashtirib shakllantiradilar va taqdim etadilar. Shuningdek, ular bolaga taqdim etilgan stimullarga mos javob reaksiyalarini tanlashni oʻrgatadilar, qanday reaksiya toʻgʻri va qaysi biri notoʻgʻri ekanligini tushuntiradilar[20].

Kattalar bolalarning fikr ifodalashdagi oʻzlariga xos kreativligi va nutqiy ijodkorligini doim ragʻbatlantirib turishadi. Masalan, «*Piyoda ketamiz*» degan stimuliga «*piya qachon keladi*» deya javob reaksiyasini qaytargan bolaning nutqini ona oʻzgacha mehribonlik bilan tuzatishga harakat qiladi: *Piya bu mashina emas, piyoda ketish oʻz oyoqlarimiz bilan yurishimiz kerakligini anglatadi.*

Ushbu nazariyadan xulosa chiqaradigan boʻlsak, kattalarning bolalar bilan hamkorlikdagi muloqoti oʻziga xos yangi munosabatlar oʻrnatishning eng muhim sharti hisoblanadi. Mediasiya jarayonida bolada nutq rivojlanishini taʼminlovchi muhim omillardan yana biri jonli nutq vaziyatlaridagi kattalar va bolalar oʻrtasidagi interaksiyada foydalaniladigan maxsus soddalashtirilgan tildir. Mutaxassislar bolalar va kattalar oʻrtasidagi interaksiyani tadqiq etib, onalar

---

[19] Дружинина В.Н. Психология: Учебник для гуманитарных вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – С.110-111.
[20] Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – P. 67

farzandlari bilan interaksiyada maxsus soddalashtirilgan tildan foydalanishlarini aniqlashgan.

Ushbu til gaplarning sodda tuzilganligi, so‘zning aniq talaffuz etilishi, gapdagi o‘zak tushunchani ifodalovchi so‘zlarga urg‘u berib va ayrim hollarda ularni takrorlab aytilishi, tabassum, jilmayish, miyig‘ida kulish, lab qisish va cho‘chchaytirish, til chiqarish, qosh uchirish va suzish, yelka qisish, boshni sarak-sarak qilish, ko‘rsatkich barmoqni lablar ustiga qo‘yish kabi daktilogik (barmoq nutqi) va boshqa turli psixologik holatlarni, ayniqsa, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatlarga boyligi bilan farqlanadi.

Ona tilida nutq rivojlanishini ta’minlovchi yana bir omil bu bola nutqidagi xatolarga nisbatan sabrli bo‘linishidir. Go‘daklik davridagi babalash va g‘ug‘ulash bilan boshlangan nutq asta sekin ot + ot (dada kitob) yoki ot + fe’ldan (dada xuppa = dada meni ko‘taring) iborat telegrafik xususiyat kasb eta boshlaydi. Ingliz tili o‘rganish jarayonida ham kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqi dastlab ot + sifat, yoki ot + fe’ldan iborat qisqa telegrafik xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan: This is daddy book (This is my daddy’s book.) This is a not your (This is not your book). I am jacket (I brought a jacket today). I am parade (I saw a parade in Disneyland).

Ingliz tilidagi nutqning telegrafik xususiyati ona tilidagi nutqning telegrafik xususiyatidan farqli bo‘lib, u ko‘proq yaxlitligicha xotirada saqlab qolingan nutq namunalaridan iborat verbal ifodaga o‘xshab ketadi. Ya’ni o‘quvchilar xotirada saqlangan nutq namunalariga (e.g. Ready? Really! Never mind. Welcome!) tayanishadi va ulardan tashqi qo‘zg‘atuvchi stimullarga nisbatan reaksiya sifatida foydalanishadi.

Ingliz tili o‘qitishning lingvistik asoslari psixolingvistik va sotsiolingvistik aspektlarni ham o‘z ichiga oladi. Birinchisini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchiga til, nutq va nutqiy faoliyatni o‘qitishning mohiyatini, ikkinchisi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun ta’lim mazmunini aniqlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini anglab olishiga yordam beradi.

***O'quv-metodik topshiriqlar***

1. Ta'limning mazmunini belgilashda qanday fikrlar mavjud?
2. Til materiali nima va u ta'lim uchun qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Til va nutq tushunchalari qanday farqlanadi?
4. Ingliz tili o'qitish metodikasining lingvistik asoslari o'qituvchi uchun nimani anglatadi?
5. Boshlang'ich ingliz tili ta'limida tilga oid kompetensiyaning egallanishi muhim sanaladimi, yoki aksincha bo'lishi lozimmi?
6. Ona tili va chet tilda nutq rivojlanishining o'hshash va farqli jihatlarini aniqlashtiring.
7. Nutqning verballshuvi haqidagi bilimlaringizni takomillashtiring.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar***


1. Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – 248 с.
2. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.
3. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 240 p.


## 2.7. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasining psixolingvistik asoslari

**Kalit so'zlar:** *lingvofiziologiya, neyrolingvistika, dinamik steriotip, kontrastiv taxlil, nutq rivojlanish filogenezi, potensial lug'at, konversiya, tillararo interferensiya, fosilizasiya*

Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da, nutqning sodir bo'lishi va uni idrok etilishi psixolingvistikada ilmiy tadqiq etiladi.

Nutq insonning bosh miya faoliyatini boshqaradigan murakkab ruhiy jarayon bo‘lib, uning tovush va harfiy jihatlari tashqi (moddiy), nutqharakat, eshitish, ko‘ruv va qo‘lharakat timsollarida ifodalanishi ichki tomoni deyiladi. Har ikkalasi nutqiy dinamik steriotipni tashkil etadi. I.P.Pavlov tadqiqotlaridan ma’lumki, dinamik stereotip deganda shartli va shartsiz reflekslardan iborat muvofiqlashgan hamda barqarorlashgan belgilar sistemasi tushuniladi. Bu sistemani dinamik, ya’ni xarakatdagi sistema deyilishiga sabab uni barbod etish va yana qayta tiklash ham mumkin. Har bir steriotip ma’lum ma’noni ifodalashga xizmat qiladi va turli darajadagi qo‘zg‘ovchilarga nisbatan javob reaksiyalarini xosil qiladi. O‘z navbatida steriotipning ishlashi til vositalari sifatida nutq mexanizmini hosil qiladi.

Ona tilida belgilar steriotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur va nutq shakillanishi chog‘ida beixtiyor hosil bo‘ladi va ong ishtirokisiz (aniqrog‘i, deyarli ong ishtirok etmagan holda) faoliyat ko‘rsatadi. Ingliz tili o‘rganishda oldin o‘rganilgan tillar asosida o‘xshash elemantlar (tovush, so‘z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog‘lanishlari, yot elementlar esa – yangi bog‘lanishlar paydo etishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi. Bunda nutq apparatining har ikkala tilga moslashuvchanligi oshib boradi, sensor korreksiya nerv aloqalari shakllanishini osonlashtiradi va steriotiplar paydo bo‘lishiga sarflanadigan quvvatni kamaytiradi (Demyanenko. M.Ya., Lazarenko. K.A., Kislaya.S.V. – 1976: 38-39).

Ona tili ingliz tili o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni har qanday chet til ona tili prizmasi orqali o‘rganiladi. Chet tildagi ko‘nikma va malakalar ona tilida o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar vositasida egallanadi. Ko‘nikmalarning ko‘chishi (o‘tishi) o‘spirin, va ayniqsa, katta yoshdagilarga ingliz tili o‘qitishda dolzarb muammo hisoblanadi. Ruhshunoslik va tilshunoslikdagi tadqiqotlardan ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til tajribalari ona tili va ingliz tili o‘rtasidagi tavofutlarni farqlash darajasida rivojlanmagan bo‘ladi. Shuningdek, kichik yoshdagi til o‘rganuvchilar miyasi fiziologik jihatdan ona tilida

so‘z yasalishi va gap tuzilishini tartibga soluvchi grammatik qonuniyatlarga to‘liq moslashmagan bo‘ladi[21].

Neyrolingvistik tadqiqotlar tahlili asosida 9 yoshgacha ingliz tili o‘rganish katta yoshda ingliz tili o‘rganishdan farq qilishi, 10 yoshgacha ingliz tili o‘rganish jarayonida ona tili interferensiyasi kam kuzatilishi aniqlangan. Kichik maktab yoshida ingliz tili o‘rganilganda, xuddi ona tili o‘rganishdagi kabi miyaning chap yarim shari po‘stlog‘idagi maxsus nuqtalar (P.Broka (1861 y.) miya po‘stining ma’lum qismi (miya chap yarim shari peshona qismining pastki tomonidagi burmalarning orqa qismi), K.Vernike (1874 y.) bosh miya yarim sharlari peshona qismining tepa tomonida «so‘zlarning sensor obrazlari» joylashgan va nutq jarayonini ta’minlashda juda ham sodda elementar «stimul-reaksiya» tipidagi fiziologik mexanizm, nutq faoliyatining yuksak formalari uchun nutq vositasi bilan fikr bayon qilishni ichdan dasturlash mexanizmlari uchun xarakterli iyerarxik tuzilishiga ega bo‘lgan maxsus mexanizmlar qatnashadi[22].

Katta yoshlilar ona tili va ingliz tili haqida ma’lum bilimga ega bo‘lishlari sababli tillararo tafovutlarni tahlil etadilar. Bu esa nutqiy faoliyat jarayonida ikkilanish va tormozlanishga olib keladi. Soha mutaxassislarining fikricha, kichik yoshdagi o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganishdagi muvaffaqiyati asosida ularning gapga emas tushunchaga, grammatik qurilma, ya’ni shakliga emas, balki mazmunga e’tibor qaratishlari, interaksiya jarayonida ikkilanish va tormozlanish holatlariga tushmasliklari zamirida yotadi[23].

**Ona tili va ingliz tilida leksik ko‘nikmalarning shakllanishi**

D.B.Elkonin xulosasiga ko‘ra, nutqni tushunishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: a) umumiy holatdan predmetni ajrata olish; b) predmetga diqqat-e’tiborni to‘plash; d) favqulodda holatga qarab anglanadigan his-tuyg‘uning mavjudligi va boshqalar[24]. O‘zgalar nutqini tushunish ko‘ruv idroki zamirida

---

[21] Lennon P. Contrastive Analysis, Error Analysis, Interlanguage. Bielefeld Introduction to Applied Linguistics. – Bielefeld: Aesthesis, 2008. – P. 2-3.
[22] Gordon T. Teaching young children a second language. – Greenwood Publishing Group, 2007. – P. 53-54
[23] Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – P. 101-102.
[24] Эльконин Д.Б. Психология развития. – М.: Академия, 2007. – С. 87-88.

vujudga keladi. Bolani o‘zgalar nutqini tushunishga o‘rgatishda kattalar biror o‘yinchoqdan ta’sirlanishni hosil qiladigan qo‘zg‘atuvchini uyg‘otadi. Bunda bola diqqati jism va rasmlarga jalb etilib, «Surnay qani?», «Ayiqcha qani?», «Koptok qani, mashina-chi?» kabi savollar bilan murojaat etiladi. Kattalarning bola bilan mashg‘ulotlarni bir necha marta takrorlashi natijasida talaffuz qilinayotgan so‘z bilan predmet uzviy bog‘lanadi va bu bog‘lanish bir necha bosqichlarda namoyon bo‘ladi.

Tushunishning rivojlanish bosqichlari ko‘ruv idroki bilan nutq o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabat tariqasida namoyon bo‘ladi. Tushunish, ya’ni nutqni idrok etish bolaning orientirlash faoliyati negizida vujudga keladi. Bolalarda keng ko‘lamli va ko‘p miqdordagi predmetlarni tanish, idrok qilish, ularning xususiyatlarini o‘zlashtirish ehtiyojining ortishi kattalar bilan muloqotga kirishish mayli, tuyg‘usi va istagini kuchaytiradi.

F.I.Fradkina bolada dastlabki faol nutqning shakllanishi muammosi bilan shug‘ullangan. Uning tajribasida tabiiy muloqot paytida bola biror so‘zni bir kunda o‘zlashtirgan, biroq sun’iy sharoitda 10-11 kun davomida o‘sha so‘z bildirgan predmetning timsolini ko‘rsata olgan. Ona tilidagi yangi so‘z qachonki u anglatadigan predmet yoki hodisa va uning verbal muqobili o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatilganida o‘zlashtiriladi. Buning uchun bola o‘zini o‘rab turgan predmetlar bilan bajarilishi ko‘zda tutilgan ish-harakatlarni to‘g‘ri bajara olishga o‘rganishi, ya’ni predmetning rangi, shakli, ta’mi kabi o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan sifati va vazifasini to‘g‘ri anglashi lozim.

Ingliz tili o‘rganish jarayonida esa o‘quvchi o‘zini o‘rab turgan borliqdagi predmetlar va ularning vazifalari haqida ma’lum darajadagi tasavvurga ega bo‘ladi. O‘quvchi tafakkuridagi so‘zning inglizcha ekvivalenti bilan mustahkam aloqa o‘rnatiladigan vaziyatda ingliz tilini o‘rganish samaradorligi ta’minlanadi. I.A.Zimnyayaning ta’biri bilan aytganda, aynan shu vaziyat yangi so‘zning o‘quvchi xotirasida mustahkamlanishiga to‘sqinlik qiladi va boshqa tomondan

o‘quv jarayonida o‘quvchining til tajribasidan maksimal foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi[25].

Ona tilida so‘z tasodifiy va deyarli ong ishtirokisiz o‘rganiladi, uning zamirida yashiringan ma’no esa turli kontekstlarda mustaqil fahmlab olinadi. Ingliz tili o‘rganish jarayonida leksik minimum metodik tayyorlanadi (tanlanadi, taqsimlanadi, tasniflanadi) va o‘quvchilarga nutqiy kompetensiyalarni singdirish maqsadida taqdim etiladi. Tanishish bosqichida so‘zning shakli, ma’nosi va qo‘llanishi yuzasidan ish bajariladi. So‘zning ma’no doirasini aniqlash (semantizatsiya) an’anaviy usul bo‘lib, ona tilidagi shunga monand so‘zni esga olish orqali amalga oshiriladi. So‘zning semantik ma’nolari o‘qituvchi tashabbusi bilan turli misollar yordamida ochib beriladi. Tillarning milliy xususiyatga ega ekanligi, ularning mustaqil taraqqiyot jarayonini bosib o‘tishlari tufayli qator hollarda ona tilidagi u yoki bu lisoniy vositaga chet tildagi muayyan bir til birligi emas, balki bir nechta, qator hollarda bir-birlaridan ma’no belgilari, ba’zan esa uslubiy vazifalari jahatidan farq qiladigan lisoniy vositalar mos keladi.

So‘z ma’nosini o‘rgatish murakkab jarayon va bu uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqt sarflaydi. Zamonaviy ingliz tili o‘qitish metodikasida so‘z ma’nosini o‘qituvchi aralashuvisiz mustaqil fahmlab olinishiga ko‘proq ahamiyat qaratilmoqda. Ona tilining formal-semantik tomoniga mushtarakligi tufayli mustaqil fahmlab olishning ichki imkoni bo‘lgan leksik birliklar *potensial lug‘at* deyiladi.

Ichki imkoniyatli so‘zlar lug‘atiga quyidagilar kiradi: baynalmilal so‘zlar (tennis – tennis, kompyuter - computer); konversiya (shakli bir xil lekin turli so‘z turkumlariga mansub so‘zlar: color – bo‘yamoq; bo‘yoq; water – suv; sug‘ormoq); tanish so‘zlardan tuzilgan qo‘shma so‘zlar (compunds: book+shop, pencil+box, milk+man, police+man, spider+man, post+man), juft so‘zlar (binominals: record player, second-hand), turg‘un birikmalar (collocations: set the table, give a hand); so‘z yasovchi elementlari tanish so‘zlar (teach, play, read – teacher, player, reader). O‘rgatilishi lozim bo‘lgan so‘z mazmunini turli kontekstlarda va nutq

[25] Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 2001. – С. 97-98.

vaziyatlarida ochib berilishi xorijiy metodikada «*semantic and syntactic bootstrapping*», deb nomlanadi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi leksikaning va interferensiya hodisasining o‘rganilayotgan muammo nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlilida, ayniqsa ingliz va o‘zbek tilidagi fe’llarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ular o‘rtasidagi shaxs, son, zamon, mayl, nisbat kabi morfologik va grammatik belgilar bo‘yicha farqlar, nutqiy interferensiyani keltirib chiqaruvchi lingvodidaktik va metodik qiyinchiliklar aniqlanadi. Qiyosiy tahlil bo‘yicha ingliz va o‘zbek tillarining ot va fe’llari asosida semantika, paradigmatika, sintagmatikani aniqlashtirish o‘zbek o‘quvchilari tomonidan ingliz tilidagi ot va fe’llarni o‘rganishda ularning yasalish usullari o‘zbek tilidagi ot va fe’llarning yasalishi bilan o‘xshash va farqlarni o‘rganish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval.

**Ot va fe’llarning morfologik xususiyatlari**

| Ingliz tili | O‘zbek tili |
|---|---|
| Ot va fe’l so‘z turkumiga mansub so‘zlar farq qilmaydi – *drink –to drink; water – to water* | Ot va fe’l so‘z turkumiga mansub so‘zlar farq qiladi – *ich - ichimlik; suv - sug‘or* |
| Oddiy fe’llar – *to go, to drink, to take* | Tub fe’llar – *bor, ich, ol* |
| Yasama fe’llar – *to enlarge, to shorten, to reconstruct* | Yasama fe’llar – *boshla, boshqar, shodlan, qo‘lla* |
| Fe’llardan ot yasalishi – *teach - teacher, work - worker, direct - director, policeman, spiderman, postman, milkman* | Fe’llardan ot yasalishi – *yoz - yozuvchi, boshqar - boshqaruvchi, sot - sotuvchi* |
| Qo‘shma otlar (Compunds) – *dishwasher, ladybird, dragonfly, teapot* | Qo‘shma otlar – xonqizi, makkajo‘xori |
| Qo‘shma fe’llar – to daydream, to waylay | Qo‘shma fe’llar – taklif qilmoq, olib bermoq |
| Juft otlar (Collocations) – *fish and chips, brothers and sisters, family tree,* | Juft otlar - *opa-singil, aka-uka, choynak-piyola, idish-tovoq* |
| Juft fe’llar (Collocations) – *to make a mistake (fire, tea, money, friends), to do the room (homework)* | Juft fe’llar – *xato qilmoq, choy damlamoq, ishlab topmoq* |
| Tarkibli fe’llar (Phrasal verbs) – to get up, to sit down, to put on | |

Ingliz va o‘zbek tillarida otlarning ko‘plik, fe’llarning o‘tgan zamon shakllarini, sifat darajalarini yasashda ham o‘xshash va farqli jihatlar kuzatiladi. Keyingi yillarda ingliz tili o‘qitish metodikasida *Corpora* yoki *Corpus* atamalari keng qo‘llanilmoqda va chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish tamoyili asosida *lexical approach,situational approach, speech act approach* va *corpus-informed approach* kabi yondashuvlar rivojlanmoqda[26].

Zamonaviy ingliz tilida *make things happen, go in for sports, here and now activity, make believe activitiy* kabi turg‘un iboralarni qo‘llash xos. O‘zbek tilida ham bunday hodisalar ko‘p kuzatiladi. O‘zbek va ingliz tilllarini qiyosiy o‘rganish har ikki tilning fe’l va otlarida morfologik va sintaktik jihatlarida ham katta farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Pragmatik kompetensiya deganda, gapiruvchi va gap orasidagi bo‘shliq ustiga qo‘yiladigan ko‘prik tushuniladi. Ya’ni tinglovchi gapni emas, balki gapiruvchining fikr ifodalash uchun so‘zlardan foydalanishdagi ko‘zlagan maqsadi, niyati va xohish-istagini tushunishi lozim[27]. Shuningdek, ingliz tilda ifodalanadigan fikrni adekvat talqin etilishini ta’minlash uchun zaruriy leksik birliklardan oqilona foydalana olish pragmatik kompetensiya deyiladi.

Metodist-olimlar chet tilda og‘zaki va yozma shaklda fikr bayon etish hamda o‘zgalar fikrini tushunishni amaliy maqsad deb e’tirof etishgan. Ushbu tushunchaga tili o‘rganilayotgan xalq madaniyatini o‘rgatish, deb qarovchilar ham mavjud. Umuman olganda, ingliz tili o‘qitish metodikasida «amaliy maqsad» yuzasidan mavjud talqinlarda olimlarning fikri bir xil emas, ya’ni ular amaliy maqsadni turli sharoitda turlicha talqin qiladilar.

Adabiyotlarda boshlang‘ich ingliz tili ta’limi maqsadlari: a) pragmatik yoki amaliy maqsad kommunikativ (lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik) kompetensiyalarni; b) umumta’limiy maqsad madaniy kompetensiyalar (o‘rganilayotgan ingliz tilisohibining madaniy merosi)ni egallanishidan iborat

---

[26] Burns A., Richards J.C. The Cambridge Guide to Pedagogy and Practice in Second Language Teaching. – NY: Cambridge University Press, 2012. – P. 165-166.
[27] Handbook of communication competence // edited by Gert Rickheit, Hans Strohner. – Berlin. Hubert & Co., Guttingen, 2008. – P. 43-44.

bo‘lishi lozimligi tavsiya etiladi. E.I.Passovning fikricha, amaliy maqsad kompetensiyalar (bilim, malaka va ko‘nikmalar)ni egallanishi, ta’limiy maqsad madaniyatning o‘zlashtirilishi bo‘lishi lozim[28]. N.D.Galskova va Z.N.Nikitenko kommunikativ kompetensiyani axborotni tushunish va taqdim etish maqsadida chet tildan samarali va uddaburonlik bilan foydalanish layoqati, deb ta’riflashadi va amaliy maqsad deganda, pragmatik komponentni nazarda tutishadi[29].

Pragmatik kompetensiya tarkibidagi diskurs kompetensiya og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va talqin qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi[30].

Keyingi yillarda til kommunikatsiyasining pragmatik jihati tadqiqotchilar e’tiborini ko‘proq jalb etmoqda. Ya’ni so‘zlar (L.S.Barxudarov ta’biri bilan aytganda, til belgilari)dan amaliy maqsadlarda foydalanishni o‘rgatish masalasi keng muhokama etilmoqda. Til belgilari va ulardan foydalanadigan shaxslar o‘rtasidagi pragmatik munosabatlar shundan iboratki, bu belgilar, aniqrog‘i, ularning ma’nolari ayni shaxslar uchun xushhazm va tushunarli bo‘lishi, ularni ma’lum darajada ta’sirlantirishi lozim.

DTSda bayon etilganidek, diskurs kompetensiya: a) og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni; b) og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va talqin qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi. Diskurs adabiyotlarda turli ma’nolarni, ya’ni ma’lum kontekst yoki suhbat mavzusiga taalluqli til vositalari yoki tilning, asosan, jonli muloqot tilining asosiy birligini anglatadi. Dastlab diskurs kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning alohida komponenti sifatida talqin etilgan bo‘lib, unda *cohesion* va *coherence* tushunchalariga tayanilgan.

Ma’lumki og‘zaki nutq, ayniqsa, dialog (juft) nuq o‘zining situativligi va ixchamligi bilan o‘rganish jarayonida ayrim qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

---

[28] Пассов Е.И. Цели обучения иностранному языку: учебное пособие.– Воронеж: НОУ «Интерлингва», 2002. – №6. – С.3-6.

[29] Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – С. 86-87.

[30] Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. – L.: Oxford University Press, 2008. – P. 29-30.

Kommunikatsiya jarayonida foydalanilgan replikalar ushbu nutq vaziyatidagi kommunikantlarni adekvat ta'sirlantirishi mumkin.

E'tiborimizni quyidagi misollarga qaratamiz:

*A. That is the telephone.*
*B. I am in the bath.*
*A. O.K.*

*A. Cold?*
*B. I am freezing.*
*A. Coffee?*
*B. Sure. Two sugars.*

Birinchi misolda A kommunikant B kommunikantga telefon jiringlayotganligi haqida xabar bermoqda va unga javob berilishi lozimligini ta'kidlamoqda (That's the telephone. Can you answer it? Please?). B kommunikant esa vanna qabul qilayotganligi sababli telefonga javob bera olmasligini ma'lum qilib, uzr so'ramoqda (No, I can't answer it because, I'm in the bath.). A kommunikant esa uzrni qabul qilmoqda (O.K. I'll answer it). Shunday qilib *cohesion* va *coherence* kommunikantlarning o'zaro bir-birlarini tushuna olishlarini kafolatlovchi nutqiy faoliyat turlaridan bilim, malaka va ko'nikmalarni ifodalaydi.

Pragmatikada nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatik kompetensiya quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat:

– muloqot qilishning lisoniy (fonetik, leksik, grammatik) birliklarini va ulardan foydalanish qoidalarini, ya'ni ma'no ifodalashda til birliklarini qayta shakllantira olishni bilish (kommunikativ kompetensiyaning lingvistik komponenti);

– til vositalaridan muloqot muhiti, vaqti, joyi, maqsadiga, shuningdek suhbatdoshning ijtimoiy mavqeiga mos ravishda foydalana olish ko'nikmasi (sotsiolingvistik komponent);

– mazmun tarkibidagi asosiy fikrni tushunish va isbotlangan fikrga mazmunan bog‘langan axborotni taqdim eta olish ko‘nikmasi;

– tili o‘rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy xususiyatini bilish hamda ushbu xususiyatga muvofiq tarzda nutqiy va boshqa xatti harakatlarini idora qilishni bilish (ijtimoiy-madaniy komponent);

– muloqot vaziyatini baholash va tahlil qilish hamda shunga muvofiq o‘zining nutqiy harakatini nazorat qila olish, o‘zining va muloqotdoshining nutqiy harakatlarini nazorat qilish, shuningdek muloqot tajribasidan foydalanib chet tildan bilimlaridagi nuqsonlar o‘rnini to‘ldira olish ko‘nikmasi (kompensatsiyalovchi yoki strategik komponent).

Diskurs adabiyotlarda turli ma’nolarni, ya’ni ma’lum kontekst yoki suhbat mavzusiga taalluqli til vositalari yoki tilning, asosan, jonli muloqot tilining asosiy birligini anglatadi. Masalan, “For stuff only!”, “Keep Off!”, “Danger!” mazmunidagi belgilar ma’lum hudud (yoki xona)ga begonalar kirishi taqiqlanadi, chetlab o‘tilsin, hayot uchun xavfli degan ma’nolarni ifodalash maqsadida foydalanilgan. Fikrimizni asoslash uchun quyidagi reklamalarga e’tibor qaratamiz: A PIECE OF CAKE – nikoh to‘ylari uchun tort; COOL FOR CARS – transport vositalari uchun konditsioner o‘rnatiladi; CUTS BOTH WAYS – erkaklar va ayollarga xizmat ko‘rsatuvchi sartaroshxona; BLACK MAN – erkaklar sartaroshxonasi; HEADLINES – sun’iy sochlar; NEW WAVE – televizion va sun’iy yo‘ldosh antenalari; SOUNDS ELECTRIC – musiqa asboblari; TAKE ONE – video kassetalar ijarasi.

**Ona tili va ingliz tilida grammatik ko‘nikmalarning rivojlanishi**

Tadqiqotlarda bolalik davrida grammatik ko‘nikmalar turli yoshda va tezlikda, lekin ayni izchillikda rivojlanishi isbotlangan. A.N.Gvozdev ilk bolalik yosh davrlarida rus tilining grammatik qurilishini o‘rganib, uni ikki bosqichga ajratadi. Birinchi bosqich – 1 yoshu 3 oylikdan 1 yoshu 10 oylikkacha. Bu bosqich ham muayyan davrlarni o‘z ichiga oladi: a) bir so‘zdan tuzilgan gaplar bosqichi (1,3 – 1,8); b) ikki va undan ortiq so‘zlardan tuzilgan gaplar. Ikkinchi bosqich – 1 yoshu 10 oylikdan 3 yoshgacha. Bu bosqich ham bir necha davrlarga ajratiladi: a)

sodda va murakkab gaplarning shakllanishi (1,10-2); b) sintaktik aloqalarni ifodalovchi gaplardan foydalanish (2,1-2,3); d) yordamchi so‘zlarni o‘zlashtirish bosqichi kabilar.

Tadqiqotlarda ingliz tilida so‘zlashuvchi bolalarning grammatik ko‘nikmalari quyidagi izchillikda rivojlanishi aniqlangan[31]:

1. Plural -s / 2. Progressive – ing / 3. Copula be (e.g., This game is fun.) / 4. Auxiliary be (e.g., They are playing.) 5. *a* and *the* definite and indefinite articles / 6. Irregular past tense / 7. Third person singular ending - s / 8. Possessive ending -s (e.g., My mom’s picture.)

Tadqiqotlarda turkiy tillarda so‘zlashuvchi o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolarning 2/3 qismi, taxminan 67% ingliz tilidagi gap tuzish tartibiga, qolgan1/3 qism, ya’ni 33% xatolarning 22% predloglarga va 11% artikllarga taalluqli, bilingval, ya’ni o‘zbek (qoraqalpoq, qirg‘iz, qozoq, turkman) va rus tillarida so‘zlashuvchi o‘quvchilarda esa xatolar sezilarli darajada kam uchraydi, degan mazmundagi fikrlar mavjud[32].

O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolarga sabab o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tafovut ko‘rsatiladi. O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, ular turli til oilalariga mansub. Ingliz tili analitik til bo‘lsa, o‘zbek tili ma’lum jihatlari bilan ham flektiv, ham agglutinativ tillar toifasiga kiradi. Ingliz tilida gap tuzilishi qat’iy tartibga bo‘ysundirilgan bo‘lib, aksariyat hollarda *ega - kesim - ikkinchi darajali bo‘laklar* izchilligiga amal qilinadi. Bu esa ingliz tilini o‘rganish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ingliz tili gap tuzilishidagi so‘zlarning tartibi ish-harakatning kim bajarayotganligini va nimaga qaratilganligini yaqqol ko‘rsatib turadi. Kichik maktab yoshida ingliz tilida gap tuzishni o‘rgatish bo‘yicha amaliyotda turli usullardan foydalanilgan. Masalan, F.Guinning (Series Method) harakatlar izchilligi seriyalari va J.Asher (Total

---

[31] Lightbown P.S., Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. – P. 21-22.

[32] Алишова Р.К. Межъязыковая кыргызско-английская интерференция на уровне фонетики, грамматики и лексики (с позиции социолингвистики): Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Б.: Институт иностранных языков Кыргызстана, 2013. – С. 24-25.

Physical Response) metodlari asosidagi imitatsion mashqlari keng ommalashgan. Bunday mashqlardan misol keltiramiz:

*You're a bird. You're going to fly. You're walking. You're running. You're running faster. You're flapping your wings. You're flapping and running. Wow! You're flying. You're flying faster. You're flying slower. You are tired. Good, you are resting.*

Ingliz-o'zbek tillararo tafovutlar quyidagilardan iborat:

— kelishik qo'shimchalarining mos kelmasligi (mas. to look for – izlamoq, axtarmoq, qidirmoq (o'zbek tilida fe'llarga kelishik qo'shimchalari qo'shilmaydi);

– o'zbek tilida ayrim grammatik hodisalar mavjud emas (mas. artikl);

– ingliz tilida ko'makchi fe'llarning ishlatilish hodisasi o'zbek tilida mavjud emas;

– o'zbek tilida otlarga qo'shiladigan kelishik qo'shimchalari funksiyasini ingliz tilidagi otlardan avval yoki fe'llardan keyin keladigan predloglar bajaradi. Ya'ni o'zbek tilida fe'l otlarga turli kelishik qo'shimchalari qo'shilishini talab etsa (*doskaga qarang*), ingliz tilida ot fe'ldan avval turli predloglar kelishi lozimligini belgilaydi. Macalan, *look* fe'lidan keyin *at, after, for, through* kabi predloglardan qaysi biri kelishi lozimligini ot belgilaydi: *Look at the blackboard. Look after your sister. Look for the key;*

– ingliz tilida ish-harakatni ifodalashning hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlari ko'p;

– o'zbek tilida ravish fe'ldan avval kelsa, ingliz tilida u fe'ldan keyin keladi yoki o'zbek tilida to'ldiruvchi kesimdan oldin kelsa, (*kitobni ol*) ingliz tilida to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi (*take the book*).

Ko'p yillar davomida mutaxassislar ingliz tili grammatikasini o'rganish ona tili grammatikasini o'rganishdan farq qiladi, ya'ni ona tilida rivojlantirilgan grammatik ko'nikmalar ingliz tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishga tillararo interferensiya sababli to'sqinlik qiladi, degan fikrni tasdiqlab kelishgan. Interferensiya bixeviorizm, audiolingualizm va strukturalizm hamda Kontrastiv tahlil gipotezasi mahsulidir.

Kontrastiv tahlil gipotezasi R.Ladoning «Linguistics Across Cultures» nomli kitobida ilgari surilgan g‘oya natijasida rivojlantirilgan. R.Ladoning fikricha, turli tillarda so‘zlashuvchilar uchun ingliz tili o‘rganishdagi qiyinchiliklar doirasini ikki til va madaniyatlar o‘rtasidagi farqni sistematik ravishda qiyoslash orqali aniqlash mumkin. Ikki til va madaniyatlar o‘xshash bo‘lsa, o‘rganishda qiyinchiliklar vujudga kelmaydi, ular farqli bo‘lsa, o‘rganishda qiyinchiliklar vujudga keladi, tafovut qanchalik katta bo‘lsa, qiyinchilik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi[33]. Interferensiya, ayniqsa, o‘rganilayotgan chet tildagi so‘zlarning ona tili aksenti bilan talaffuz qilinishida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, hind ingliz (Indian English) dialektida hindcha aksent yaqqol sezilib turadi.

Ingliz tili o‘rganish jarayonidagi ona tili aksenti va gap tuzish strukturasining saqlanib qolinishi xorijiy metodikada fosilizatsiya (fossilization – tosh qotish) deyiladi[34]. Ona tilining ijobiy ta’sirini fosilizatsiya deyish hollari ham uchraydi[35]. Kontrastiv gipoteza uchun ingliz tili o‘qitishning lingvistik asoslari xarakterli bo‘lib, ingliz tili o‘rganish ona tilining bevosita (tillararo interferensiya va ko‘nikmalarning ijobiy ko‘chishi) ta’sirida sodir bo‘ladi, degan mazmundagi tushunchani ilgari suradi. Ushbu gipotezaga asoslangan ingliz tili o‘qitish amaliyotida o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni avvaldan aniqlash, ularning oldini olish hamda ular sababli yo‘l qo‘yiladigan xatolarni bartaraf etish maqsadida ikki tilning o‘xshash va farqli jihatlari chuqur tahlil etilgan.

Kontrastiv gipoteza bixevioristik nazariya tarafdorlari tomonidan rivojlantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra ingliz tili mexanik taqlid va mashqlar bajarish orqali rivojlantirilgan to‘g‘ri, ya’ni til nuqtai nazaridan bexato ko‘nikmalar asosida o‘rgatiladi. O‘quvchi nutqida uchraydigan xatolar qat’iy ta’qib etilgan, o‘quv

---

[33] Lennon P. Contrastive Analysis, Error Analysis, Interlanguage. Bielefeld Introduction to Applied Linguistics. – Bielefeld: Aesthesis, 2008. – P. 51-60.
[34] Hongping Chen, Bo Zhao. A Study of Interlanguage Fossilization in Second Language Acquisition and Its Teaching Implications. // International Conference of Educational Research and Sport Education. – China. Atlantis Press, 2013. – P. 18-20.
[35] Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology. – T.: Fan va Texnologiyalar, 2015. – P. 65-66.

dasturlari va darsliklar o‘quvchining xatolardan qutilishini ta’minlash maqsadida yaratilgan.

Lekin so‘nggi tadqiqotlarda ona tili va o‘rganilayotgan chet tilda o‘xshash hodisalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, chalkashlik va xatoliklar ham shuncha ko‘p bo‘lishi, o‘rganilayotgan chet tildagi farqli hodisalar oson va tez o‘zlashtirilishi isbotlanmoqda. Bunday xulosa ona tilisi xitoy, yapon, arab, fransuz, norveg va ispan tili bo‘lgan o‘quvchilarning ingliz tilidagi grammatik ko‘nikmalari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida chiqarilgan[36]. Xitoylik o‘quvchining «two hand», norvegiyalik o‘quvchining «Where live Tom?», yaponiyalik o‘quvchining «I no like. I no like small. You no can go.», ispaniyalik o‘quvchining «crayon red», they have hungry» kabi xatolarini kichik maktab yoshidagi til sohiblari nutqida ham uchrashi mumkinligi aniqlangan. Ya’ni ingliz tilida so‘zlashuvchi bola ham «he doesn’t like it» bosqichiga yetishdan avval «he not like it», «he don’t like it» bosqichidan o‘tadi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqida ham *borgan yo‘qman, olgan yo‘qman, kecha boraman* kabi garammatik jihatdan noto‘g‘ri tuzilgan ifodalar uchraydi.

Metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xatolarga tillararo interferensiya sabab bo‘lmasligi mumkin. Masalan, xitoy tilida otlarning ko‘plik shaklini mavjud emasligi yoki ispan tilidagi sifatning otdan keyin qo‘llanilishi xatolarning asosiy sababi emas. O‘zbek tilida aniqlovchining kesimdan avval kelishi (tartibli yoz) va ingliz tilida aniqlovchining kesimdan keyin kelishi (write accurately) kabi tafovut ham boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga ingliz tilida gap tuzishning *ega → kesim → to‘ldiruvchi* tartibini o‘rgatishga to‘sqinlik qilmaydi. Chunki ingliz tilidagi *many, much* nemis tilidagi *viel, viele* bilan ayni ma’noni ifodalasa-da, nemis tili sohibi ingliz tilini o‘rganish jarayonida *many* dan *much* ni farqlashga qiynalaveradi.

Fin va shved tillarida so‘zlashuvchi bilingval bolalarning ingliz tilidagi xatolari tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, aksariyat xatolar shved tilining «ijobiy» ta’siriga borib taqaladi. Shved va ingliz tillari bir-biriga juda yaqin til bo‘lib, so‘z

---

[36] Vivian C. Second Language Learning and language Teaching. – UK.: Hodder Education, 2008. – P. 5-6.

yasalishi va grammatik qurilishi jihatdan umumiy o‘xshashliklarga ega. Fin tili esa mutlaqo boshqa til oilasiga mansub.

Fikrimizni dalillash uchun ingliz tili o‘rganayotgan ispan va xitoy tilida so‘zlashuvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan tajriba- sinov ishlari natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotni keltirishimiz mumkin. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o‘quvchilarning ona tili turlicha bo‘lsa-da, ular grammatik morfemalarni quyidagi izchillikda o‘rganishgan: plural – s; progressive – ing; copula be (e.g., This game is fun.); auxiliary be (e.g., They are playing); a and the definite and indefinite articles; irregular past tense; third person singular endings – s; possessive endings –s (e.g., My mom’s picture.)

Tadqiqotchilarning tajriba-sinov ishlaridan olgan natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ingliz tilida morfemalarni o‘rganish tartibi ular so‘zlashadigan ona tilining ingliz tilidan qay darajada farq qilishiga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

Ilmiy tekshirishlarga ko‘ra, o‘quv jarayonidagi tashkiliy sabab, ya’ni o‘quvchilar diqqatini jalb eta olmaslik, stress, fosilizatsiya, shaklga yuqori darajada e’tiborli bo‘lish, davomatning qoniqarsizligi yoki o‘xshash hodisalarni umumiylashtirib yuborish (work – worked → ask – asked → give - gived) ham xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning ingliz tilidagi nutqlarida uchraydigan xatolar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, ona tili tajribasi emas, balki ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyaning puxta egallanmaganligi xatolarni keltirib chiqaruvchi sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, «I bought a ticket», deb gap tuzgan o‘quvchidan «I buyed a ticket», deb gap tuzgan o‘quvchining ingliz tilida o‘tgan zamonda gap tuzish ko‘nikmasi malakaga aylanganligidan dalolat beradi. Lekin boshqa tomondan *gived, sheeps* ko‘rinishidagi bunday xatolar xorijiy adabiyotlarda «Overextention» deb nomlanib, chet tilda o‘zlashtirilgan grammatik ko‘nikmani amaliyotda qo‘llash doirasining kengayib ketishini anglatadi. Ya’ni ingliz tili o‘rganish jarayonida egallangan til tajribasi ham interferensiyaga sabab bo‘lishi mumkin.

### *O‘q‘uv-metodik topshiriqlar*

1. Psixologiya fanidan metodika qanday ilmiy ma’lumotlar olishi mumkinligini aniqlang.
2. Ta’limshunoslik, lingvota’limshunoslik va lingvometodika terminlari haqida bilimingizni sinab ko‘ring.
3. Kontrastiv gipoteza haqida o‘z fikringizni asoslang.
4. O‘zbek va ingliz tilllarini qiyosiy o‘rganish orqali har ikki tilning fe’l va otlarida morfologik va sintaktik jihatlaridagi farqlarni aniqlashtiring.

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*


1. Алишова Р.К. Межязыковая кыргызско-английская интерференция на уровне фонетики, грамматики и лексики (с позиции социолингвистики): Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Б.: Институт иностранных языков Кыргызстана, 2013. – 35 с.
2. Верещагина И.Н., Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в общеобразовательных учреждениях. – М.: Просвещение, 2000. – 261 с.
3. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 2001. – 228 с.
4. Saydaliev S., Gabdulhakov F. Psixolingvistika. Maxsus kurs bo‘yicha ma’ruza matnlari. – Namangan, 2001. – 62 b.
5. Синельников А. П. Психология обучения иностранным языкам. – Х.: Основа, 2009. – 128 с.

## 2.8. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining sotsiolingvistik asoslari

**Kalit so‘zlar:** *kognizant, lingvoetnomadaniy qadriyatlar, sosilingvistik mazmun, madaniyat omillari, ma’naviy qadriyat,*

Sotsiolingvistik kompetensiya – axborot sohibi (kognizant)ni shakllantirishning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, u shaxsning o‘rganilayotgan tildan kommunikativ faoliyat me’yorlari, o‘zga lingvoetnomadaniy qadriyatlar va o‘zga til dunyosining milliy manzarasiga uyg‘un tarzda foydalana olish kompetentligini nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiyaga fikran bog‘lash mumkin. Chunki sotsiolingvistik kompetensiya deganda, ko‘proq ta’lim sharoitida o‘quvchilarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash tushunilmoqda. O‘quvchilarga madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish *birinchidan*, xorijiy tildagi kodlarni o‘zlashtira olish uchun nutqiy faoliyat yuritishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, *ikkinchidan*, turli madaniyatga mansub kommunikantlar bilan uchrashganda, ularning madaniyatini tushunishlari uchun suhbatdoshining madaniyati bilan yaqindan tanishtirish orqali amalga oshiriladi[37]. Xorijiy til va begona madaniyat bilan tanishish o‘quvchilarning dunyoqarashini, til boyligining kengayishiga xizmat qiladi.

Ingliz tili ta’limi maqsadi sifatida madaniyatning ma’naviy qadriyatlar tizimi sifatida anglanishi tushunilmoqda. Bu o‘rinda madaniyat – tili o‘rganilayotgan xalq yoki jamiyat tomonidan turmushning maishiydan tortib falsafiygacha bo‘lgan barcha jabhalarida yaratilgan va to‘plangan, amalga oshgan yoki oshmagan ma’naviy qadriyatlar majmuini ifodalaydi.

O‘quv dasturida ta’kidlanganidek, ingliz tili va madaniyat yaxlit (integratsiyalashgan) holda o‘rgatiladi. Madaniyat, bu o‘rinda, inson fikri va

[37] Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – P. 58-59.

faoliyati hosilasi tushunchasini ifodalaydi. Ingliz tili o‘rganish jarayonida o‘rganilayotgan til sohiblari yaratgan madaniy merosning o‘zlashtirilishi targ‘ib etiladi. O‘quvchini (learner) nafaqat muloqotdosh, balki axborot sohibi (kognizant) maqomida o‘rganilayotgan tildan foydalanuvchi sifatida shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Madaniyatlararo kompetensiya muomala jarayonida madaniyatlarning yaqinlashuvi, bir madaniyat rakursidan madaniyatlarni solishtirish, qiyoslash rakursiga o‘tishdir. Chunki bu jarayonda nutqiy muloqot turli madaniyat va tilga mansub kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladi[38]. I.I.Xaleeva madaniyatlararo kompetensiyani «turli madaniyatga va tilga mansub kishilarning o‘zaro hamkorligining xos yig‘indisi» - deb e’tirof etadi. Olimaning yozishicha, sheriklik, hamkorlik jarayonida turli madaniyatga mansub kishilar bir-birlarining nafaqat madaniyatlaridagi farqni bilib, his qilib qolmay, balki, bir-birlariga «begona», «yot», «notanish» ekanliklarini ham his qilib turadilar.

Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi milliy qadriyatlarni hali chuqur anglab yeta olmaydi. Lekin o‘zbek bolasi uchun ko‘z ochib ko‘rgan beshigi, ilk bora tinglagan allasi, kulcha noni, dastlabki qo‘g‘irchog‘i (Bichixon va Kachalpolvon), Zumrad va Qimmat, Alpomish va uning uchqur oti Boychibor, sumalak toshi, buyuk ajdodlari (Amir Temur, Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy), dunyoga mashhur obidalari (Registon, Ichan qal’a, Oq saroy), Go‘r o‘g‘li, Bir ko‘zli dev, yalmog‘iz kampir, Yortiquloq, Afandilar, matallar, hikmatli iboralar va maqollar qadriyat hisoblanadi. Ingliz bolasiga esa Sindrella, Goblinlar, Gammi ayiqchalar, Gnomlar, Elflar, Orglar, Trollar, Momiqvoy va Puchuqvoy, Qirol Artur va uning Ekskalibur qilichi, aylana stol ritsarlarining qahramonliklari, sehrgar Merlin va Ajdarho, Lord Nelson, Eskotdagi Qirollik poygalari, Big Ben minorasi, futbol musobaqalari qadriyat sanaladi.

Amerikalik uchun esa Amerika bayrog‘i, Ozodlik haykali, «America the Beautiful» qo‘shig‘i, Jorj Vashington, Abram Linkoln, Pol Banyon, Pikos Bill,

---

[38] Халеева И.И. «Лингуана» – вклад в культуру мира // «Лингуана-98» Третья международная конференция ЮНЕСКО, Москва, 3-7 июня, 1998. М.: МГЛУ, 2000. – С.29-34.

Kayot Kavboy, Grand Kanyon, Mikki Maus, Styuard Litl, Xenni Penni, Pussi Ket, Uzunpaypoq Peppi va boshqalar oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ushbu «madaniyat omillari» ijtimoiylashuv sarhadlarini kengaytirib, turfa qadriyatlar sifatida oʻquvchining tafakkuri kengliklarini yanada teranlashtiradi. Madaniyatlararo kompetensiya oʻzga madaniyatga taalluqli qadriyatlardan xabardor boʻlish orqali oʻquvchi shaxsini yangidan shakllantiradi, uning dunyoqarashini kengaytiradi, oʻzga madaniyat hamda uning tarkibi boʻlgan qadriyatlarga nisbatan hurmat va bagʻrikenglik ruhida tarbiyalanib, komil inson boʻlib voyaga yetadi.

Shu sababdan, ingliz tili ta’limining maqsadi oʻquvchining oʻzga lingvo-madaniyat bilan muloqot qilishga individual tajribasini orttirish, mazmuni «oʻzga dunyo», vositasi esa ushbu dunyoni tasvirlovchi ingliz tili boʻlishi lozimligi ta’kidlanmoqda[39].

Tili oʻrganilayotgan mamlakat xalqlariga xos urf-odatlar, e’tiqod, marosimlar, san’at turlari, folklor, axloq-odob me’yorlari, maqol, matal, ertak, milliy qahramonlar, kiyim-kechak, taomlar, kundalik mashgʻulotlardan xabardor boʻlgan shaxs turli ijtimoiy vaziyatlarda fikrni adekvat ifodalay oladigan va oʻz xatti-harakatlarini risoladagidek idora qila oladigan boʻladi.

Sotsiolingvistika – til hodisalari va til birliklarini ijtimoiy omillarga bogʻlagan holda tadqiq etuvchi fan boʻlib, bir tomondan xalqning ijtimoiy va madaniy hayotiga xos xususiyatlarni, ikkinchi tomondan muloqot (kommunikatsiya) vaziyatlarini oʻrganadi. (S.G.Ter-Minasova).

Sotsiolingvistik aspekt metodik konteksda tili oʻrganilayotgan mamlakat xalqining turmush tarzi, fe’l-atvori, madaniy-tarixiy va milliy ananalari, mentaliteti xususiyatlarining kashf etilishini ta’minlovchi umume’tirof etilgan jonli muloqot va adabiy til me’yorlarini anglatadi[40].

Ingliz tili oʻqitish metodikasining sotsiolingvistik aspekti ta’limning chegeralanganlik sharoitini hisobga olib dasturning sotsiolingvistik mazmunini

---

[39] Tomalin B., Stempleski S. Cultural awareness. – L.: Oxford University Press, 2012. - P. 7-8.

[40] Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – С. 49.

tanlash talablari sistemasini aniqlashtiradi. Metodikaning sotsiolingvistik aspektini bilish zamonaviy o‘qituvchiga:

– dastur materialini tanlash xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish;

– material tanlashga taalluqli yondashuvlarga oid muammolarni tushuna olish;

– ta’lim maqsadlari va bosqichidan kelib chiqadigan tanlash prinsiplari (me’zonlari)ni hisobga olib dastur mazmunining birliklarini taqsimlay olish;

– ma’lum vaziyatlar uchun tanlash talablarini hisobga olib sotsiolingvistik material saralash va ishchi o‘quv dasturi yarata olish;

– ingliz tilidan fakultativ yoki to‘garak mashg‘ulotlari uchun sotsiolingvistik materialni metodik tayyorlay olish uchun zarur.

Har qanday holatda ham o‘qituvchi dastur materialani saralashni metodik savodli va asosli amalga oshirishi, ta’lim jarayonida sifat va samaradorlikka erishish uchun belgilangan maqsadga muvofiq o‘quv birliklarini ajratib olishi zarur.

Sotsiolingvistik materialni saralashdan avval uni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tanlash tamoyillari haqida tushunchaga ega bo‘lib olish zarur.

### *O ‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Ingliz tili o‘qitish metodikasidagi sotsiolingvistik aspektning hususiyatlarini aniqlashtiring.
2. Madaniyatlararo kompetensiya atamasiga berilga ta’riflarga munosabat bildiring.
3. Metodikaning sotsiolingvistik aspektini bilish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisiga nima uchun ahamiyatli?
4. Boshlang‘ich ingliz tili ta’limida sotsiolingvistik kompetensiyaning egallanishi uchun nimalarga e’tibor qaratish zarur?

*Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Биболетова М.З. Обучение иностранному языку в контексте языкового образования в современной российской школе. – М.: Просвещение, 2013. – 20 с.

2. Верещагина И.Н., Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в общеобразовательных учреждениях. – М.: Просвещение, 2000. – 261 с.

3. Колкер Я.М., Устинова Е.С., Еналиева Т.М. Практическая методика обучения иностранному языку: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2000. – 264 с.

4. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English teaching methodology. – М.: Дрофа, 2005. – 253 с.

5. Родина Н.М., Протасова Е.Ю. Методика обучения дошкольников иностранному языку: Учеб. пособия. – М.: Владос, 2010. – 210 с.

6. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006. – 480 с.

## 2.9. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sotsiolingvistik material tanlash xususiyatlari

**Kalit so‘zlar:** *nutq mavzusi, nutq vaziyati, jonli muloqot til materiali, adabiy til materiali, lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, madaniyatlararo yondashuv*

O‘qitish uchun tanlangan sotsiolingvistik material autentik, ya’ni ingliz tili sohiblari jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi avlodi tomonidan ishlatiladigan til va til realiyalarini aks ettirgan bo‘lishi lozim. Sotsiolingvistik material boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili o‘qitishda turli vazifalar bajaradi. Sotsiolingvistik materialni intiutiv va amaliy asosda egallanishi kichik

maktab yoshidagi o‘quvchilarda tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati, bayramlari va milliy ananalari hamda chet tilda maishiy mavzular doirasida muloqot qilishning farqli xususiyatlari haqidagi umumiy tushunchani shakillantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tanlangan sotsiolingvistik material tili o‘rganilayotgan mamlakatga xos sodda til hodisalari va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni farqlab olinishi uchun mo‘ljallanadi. Tanlangan sotsiolingvistik til materiali ingliz tilini ongli-amaliy o‘rganayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchisida til hodisalari va ingliz tili madaniyatining xos jihatlari haqida farqli tasavvur shakllantirishga xizmat qiladi. Sotsiolingvistik materialni tanlashda autentik jonli muloqot tili va me’yoriy adabiy til ulushini hisobga olish zarur bo‘ladi. Jonli muloqot tili turli muloqot vaziyatlarini aks ettirib, fikr ifodalash va muloqot qilishning nisbatan tipik verbal va noverbal vositalaridan tarkib topgan bo‘ladi. Muloqot vaziyatlari va sohalarida nutq namunalari va situativ yaxlit birliklar (klishe), qisqartirilgan iboralar, ixchamlashtirilgan konstruksiyalar shaklida taqdim etilgan jonli muloqot tilini idrok etish va tushunish dastlabki bosqichda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Muloqot uchun savodli tanlangan sotsiolingvistik material darsda beso‘naqay va sun’iy vaziyatlar sodir bo‘lishining oldini oladi. Jonli muloqot tilini aks ettiruvchi to‘g‘ri tanlangan material o‘quvchini autentik muloqot vaziyatlarida erkin mo‘ljal (orientir) olishiga, til sohibi nutqini tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga yordam beradi.

Adabiy til materialini tanlashda esa, darslik va qo‘shimcha o‘quv materiallarida uchraydigan me’yoriy grammatik qoidalar hamda matnning janr va uslubiy xususiyatlarini hisobga olish zarur bo‘ladi. Jonli muloqot tilini o‘rganish o‘quvchiga til sohibi bilan muloqot qilish imkonini bersa, adabiy til o‘qish va badiiy, ilmiy-ommapob matnlarni keyinroq esa kasbiy sohaga oid adabiyotlarni o‘qish va tushuna olishida yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sotsiolingvistik materialni jonli muloqot tili va adabiy til manbalaridan tanlanishida foiz miqdorlarni aniqlash uchun

o‘quvchining yoshi va o‘rganish bosqichini hisobga olish tavsiya etiladi. Og‘zaki nutqning ilgarilashi tamoyili asosida ingliz tili o‘rganayotgan birinchi sinf o‘quvchilari uchun jonli muloqot til va adabiy til materiali 50/50 foizda tanlanishi maqsadga muvofiq. Kichik maktab (6-7) yoshidagi o‘quvchi jonli muloqot va adabiy til o‘rtasidagi farqni tushunmaydi va nutqda ohangdorligi jixatdan o‘ziga ko‘proq yoqqanidan foydalanadi. Asosiysi, o‘quvchi u yoki bu ibora ayni ma’noni ifodalashini tushunishi lozim. Bu o‘quvchiga ikkinchi sinfga o‘tib o‘qish va yozuvni o‘rgana boshlaganida u yoki bu iborani tanib olishi va ularni oson farqlay olishiga yordam beradi.

Ikkinchi sinfdan o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutq shakllarini o‘rgana boshlaydilar va bu bosqichda jonli muloqot til materiali 65/35 foizda ustunlik qilishi tavsiya etiladi. Chunki ikkinchi sinf o‘quchisi ingliz tilini ongli-amaliy usulda o‘rganishga kirishadi va nutq vaziyatlarida darsda tanishtirilgan jonli muloqot tili namunalaridan foydalanishni yaxshi ko‘radi. Bundan tashqari kam miqdordagi leksik zaxira va grammatik konstruksiya monologik xarakterdagi matnni tushunishni ta’minlay olmaydi. Bu esa o‘z navbatida ingliz tili o‘rganishga ichki turtki (motivatsiya)ning pasayishiga sabab bo‘ladi. O‘rta umumta’lim maktab o‘quvchisi nafaqat ma’lum nutq vaziyatlaridagi jonli muloqotda ishtirok eta olishi, balki o‘qilgan matn yuzasidan o‘z fikrini ifodalay olishi ham zarur.

Yuqoriroq (3-4) sinflarda o‘quvchilar muloqot vaziyatlarini o‘rganib olganlaridan so‘ng, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari uchun adabiy til materiallarini ko‘paytirish mumkin. Chunki o‘quvchilar endilikda rus tilini ham o‘rgana boshlagan bo‘lishadi va bu til sistemalari hamda jonli muloqot til realiyalarini qiyoslashni murakkablashtiradi. Shu sababli endilikda adabiy til materiali va jonli muloqot til materiali 60/40 foizda taqsimlanishi tavsiya etiladi.

Buning uchun dialog va polilog nutqda taqdim etiladigan jonli muloqot til nafaqat og‘zaki, balki yozma shaklda ham ifodalanishi mumkinligini unutmaslik kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sotsiolingvistik material tanlash xususiyati ko‘ptilli va ko‘pmadaniyatli sharoit bilan farqlanadi.

**Dastur materialni tanlash yondashuv va qoidalari**

Ko‘ptilli va ko‘pmadaniyatli sharoitda hamma ta’lim sharoitlari uchun yakka darslik ishlab chiqishning imkoniyati yo‘q. Shu sababli o‘qituvchi odatda ingliz tilidan asosiy darslikka murojaat etadi va uning uchun ta’lim xususiyatidan kelib chiqib qo‘shimcha material tanlaydi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida dastur materialini tanlash va uni savodli metodik tayyorlashga maxsus yondashuv zarur bo‘ladi. Bugunga kelib empirik, lingvistik, va pragmatik yondashuvlar nisbatan kengroq ommalashgan (Minyar-Beloruchev R.K. 1990.).

**Empirik yondashuv**da leksik birliklar, grammatik konstruksiyalar va matnlar darslik muallifi, metodist yoki o‘qituvchining ingliz tilini bilish darajasi va uni o‘qitishdagi shaxsiy tajribasiga asoslanadi. Bunday yondashuvda odatda matnlar tanlanadi va uning o‘rganilishini ta’minlash uchun yangi leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar ajratiladi.

Leksik birlik va grammatik konstruksiyalarni matn asosida tanlashning ham ijobiy ham salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, matn dastur mavzusidan kelib chiqib tanlanadi va o‘quvchilarning dasturga kiritilgan mavzu doirasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, matnlarda uchraydigan tasodifiy leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar ta’lim jarayonini intensifikatsiyalash (jadallashtirish)ga xalal beradi. Matnlarda jonli muloqot emas balki adabiy til me’yorlarining aks etishi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Empirik yondashuvning asosiy kamchiligi tanlovning intuitiv amalga oshirilishida, ya’ni muallif tanlash prinsiplari va mezonlari haqida tasavvurga ega bo‘lmaydi.

Darslik uchun dastur mazmunidan kelib chiqadigan matnni tanlashga empirik yondashilganida o‘quvchi katta qiyinchilikka duch keladi. Buning sababi shundaki ingliz tili o‘qitishdagi darslik muallifining tajribasi va o‘qituvchi tajribasi odatda mos tushmaydi. Mazkur yondashuvda matn o‘qitish mazmuniga kiritiladi. Lekin nutq mavzulari deganda, ularning mazmuni, ya’ni mavzudan kelib chiqadigan axborotni hisobga olish zarur. Mavzu axborotni taxminan chamalaydi,

lekin o‘z ichiga olmaydi, u axborot uchun umumiy ko‘rsatkich bo‘ladi. Mavzu yuzasidan og‘zaki va yozma matnlar hosil qilinadi. Matnda axborot beriladi yoki olinadi. Demak, axborot matn mazmunidir, matn esa mavzuning namoyon etilishidir[41].

**Lingvistik yondashuv** empirik yondashuvdan farq qilib tanlash tamoyillari va tanlashning turli-tuman mezonlari mavjud bo‘lgan til materialining lingvistik xarakteriga asoslanadi. Masalan, aktiv lug‘atni tanlashda so‘zlarning birikishi, so‘z yasash imkoniyati, ko‘p ma’nolilik me’zonlari asos bo‘ladi. Potensial lug‘atni tanlashda o‘zak leksik birlikning so‘z yasash qiymati e’tiborga olinadi. Dastur materialini tanlashga lingvistik yondashuvda tilning barcha aspektlariga taalluqli xarakterli xususiyatlarni hisobga olish va semantik, grammatik hamda stilistik mezonlar bilan ishlash talab etiladi.

Paragmatik yondashuv kommunikativ metod ingliz tili o‘qitishning eng ilg‘or metodi sifatida e’tirof etilishi natijasida rivojlantirildi. Bunda til materialini tanlashda til elementining lingvistik xususiyatiga emas balki ingliz tilida muloqot qilinishiga ustivor ahamiyat qaratiladi. Pragmatik yondashuvda til materiali ingliz tilida kommunikatsiyani ta’minlaydigan va kommunikativ kompetensiyani shakllantirilishiga har tomonlama xizmat qiladigan leksik birliklar va grammatik hodisalardan iborat bo‘lishi targ‘ib etiladi.

Dastur materialani saralashda kommunikativ materialni tanlashning turli me’yorlarini taqdim etuvchi kommunikatsiyaning xos xususiyatlarini va muloqot jarayonining sotsiolingvistik hamda psixolingvistik qonuniyatlarini hisobga olish talab etadi. Ingliz tili ta’limidan ko‘zlangan amaliy maqsad o‘quvchining nafaqat kommunikativ kompetensiyasini, balki ijtimoiy-madaniy yoki madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Shu sababdan ham dastur materialani saralashda lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yondashuvlarga murojaat etilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda ingliz tili muloqot vaziyatlarida yo’nalishini to‘g‘ri

---

[41] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – B. 53-54.

tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniy-tarixiy xususiyatlarini bilish va tushuna olishga yo‘naltirilgan.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli xalqlarning ananalari tanishtiriladi, ularga tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi axloq-odob qoidalari, marosimlari va bayramlarini anglash o‘rgatiladi. O‘qituvchi ushbu yondashuvlardan foydalanib ayni yoshdagi ingliz tili sohiblarining kundalik turmushda sodir bo‘ladigan voqealar va hodisalarni aks ettiruvchi leksika, matnlar, foto va videomateriallarni tanlaydi.

O‘z navbatida lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yondashuvlar umumiy yo‘nalishga ega bo‘lib, ingliz tili o‘rganish jarayonida tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati haqidagi tasavvurni shakillantirishga xizmat qiladi. Lekin ularning farqli jihatlari ham mavjud.

Lingvomamlakatshunoslik yondashuvi madaniy yo‘naltirilganlik bilan bir qatorda lingvistik tabiatga ham ega bo‘lib, til orqali ta’sir o‘tkazadi. Mamlakatshunoslik yondashuvi madaniy yo‘naltirilganlikning yorqin ifodasi bo‘lib tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi madaniy-tarixiy, ya’ni an’analari, urf-odatlari, bayramlari, fe’l-atvor va axloq-odob me’yorlari, geografik joylashuvi, tarixi, iqtisodi, ta’limi, siyosiy qurilishi kabi ma’lumotlarni taqdim etadi. Til materialini tanlashga bunday yondashuvlarni har qanday ta’lim sharoiti va bosqichlari uchun qo‘llash mumkin.

Sotsiolingvistik yondashuv metodikada til materiali (mazmuni)ning madaniy xos xususiyatlarini ona tili va ingliz tilida qiyoslash uchun tanlashga yo‘naltiriladi. Ushbu yondashuvdan foydalanib o‘zbek va ingliz tillaridagi so‘zlarning talaffuzi va ma’nolarini taqqoslash mumkin. Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, taqqoslash jarayonida o‘quvchi ona til sistemasini teranroq anglaydi va o‘z vatani madaniy merosini o‘zlashtira boshlaydi. Umumta’lim maktablarida ikkinchi (rus) tilni ham o‘rganilishini inobatga oladigan bo‘lsak, til materialini tanlashning madaniyatlararo yondashuviga murojaat etish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ikki yoki undan ortiq tillarni va

madaniyatlarni, ularning xos xususiyatlarini, aloqasini va o‘zaro ta’sirini qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masalan, rus tilidagi ko‘plab so‘zlarning talaffuz va ma’no jihatdan inglizcha so‘zlarga o‘xshash ekanligi yoki aksincha bo‘lishi.

Ingliz tili materialini tanlashning lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yondashuvlari umumiy, ya’ni madaniyat yo‘nalishida bo‘lsa ham, til materiallarni ingliz tili o‘qitish maqsadlarida saralashning xos xususiyatlari va jihatlariga ega. Ingliz tili ta’lim maqsadi emas balki o‘quvchini shaxs sifatida rivojlantirish vositasi ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, til materialini saralashda o‘quvchilarning imkoniyatlari va ingliz tilini o‘rganishga layoqatlilik darajalarini hisobga oladigan tizimli yondashuviga murojaat etish zarur bo‘ladi.

Ushbu yondashuv a) bugungi davr bolalarining axborotni qay tarzda qabul qilishlari va o‘zlashtirisha olishlari; b) o‘quvchining ma’lum vaqt oralig‘ida, masalan 45 daqiqa mobaynida qancha so‘z va iboralarni o‘rgana olishi mumkinligi; d) matreilni o‘zlashtirish tezligi va samaradorligi nimaga bog‘liqligi; e) ingliz tili ta’limining qanday sharoitda o‘quvchi shaxsining rivojlanishi to‘g‘risidagi muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi.

Tizimli yondashuv ma’lum yoshdagi o‘quvchilar rivojlanishining psixolingvistik jihatlarini hisobga olinishini taqozo etadi. Masalan, “Eng yaqin rivojlanish zonasi”dagi til materialini tanlashda o‘quvchining ona tili tajribasidan kelib chiqish zarurligini anglatadi. O‘quvchining ona tili tajribasidan foydalanib predmetlar va hodisalar o‘rtasidagi assotsiativ bog‘lanishni qo‘zg‘atish mumkin va buning asosida kategoriyalar, ya’ni ona til va ingliz tili haqidagi tizimli bilmlarni bog‘lash shakllantiriladi. Til materialining bilishni rivojlantirishdagi axamiyati o‘quvchini bilishga shaxsiy qiziqishi ortganida ma’lum bo‘ladi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda “Geografiya darsi” yoki “Shimoliy qutib” kabi mavzularga oid til materiali ustida ish olib borilmaydi. Sababi, o‘quvchilar uchun bunday mavzular shaxsiy ahamiyat kasb etmaydi va bunday mavzular ularning til tajribalari doirasiga kirmaydi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi ingliz tilini o‘zining shaxsiy amaliy tajribalari asosida ongli-amaliy usulda o‘rganishi oqibatida

yod olingan so‘zlar, gaplar yoki qisqa nutq ma’lum vaqt o‘tishi bilan xotiradan ko‘tariladi. Natijada esa ta’lim sifati pasayib ketaveradi. Tizimli yondashuv ma’lum yoshdagi shaxs tafakkurining rivojlanishi va uning faoliyat turlariga xos xususiyatlarining inobatga olanishini taqozo etadi va bu o‘quvchining qiziqishini va bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Metodik savodli tanlangan dastur materiali uni o‘zlashtirish samaradorligini 50%ga ta’minlaydi. Masalan, fonetik mashq uchun leksik birliklarni tanlashda akustik (ohangdorlik bo‘yicha) yoki semantik jihatiga e’tibor qaratib, so‘zlarni ma’lum oilaga umumlashtirish (sabzovotlar, kiyim-kechaklar, transport) tadbiri qo‘llanilishi lozim. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari uchun asosan akustik mezonga amal qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari semantik alomatlarni e’tiborga olib tanlangan so‘zlarni yaxshi o‘zlashtirishadi. Semantik mezon asosida tanlangan so‘zlar umumiy belgiga ega bo‘lib yagona “oila”ni tashkil qilishadi va shu sababli ular o‘quvchilar tomonidan oson va mustahkam o‘zlashtiriladi.

Dastur materialini tarkiban shakllantirishda yuqorida bayon etilgan barcha yondashuvlardan foydalanish talab etiladi, lekin o‘z navbatida qator qoidalarga amal etilishi lozim:

1. Til materialini tanlashda so‘z va ifodalarning akustik, semantik, grafik, va albatta, ingliz tili grammatikasining xususiyatlarini hisobga olib lingvistik yondashuvga asoslanish lozim. Til materialini savodli tanlanishi o‘quvchilarda dastlab lisoniy, keyinchalik yuqori sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantiradi.

2. Kommunikativ-nutqiy material pragmatik yondashuv asosida saralanishi va kommunikativ (pragmatik) kompetensiyani shakllantirish imkonini beruvchi leksik birliklar va matnlar tanlanishi lozim. Bunda yozma va og‘zaki shaklda muloqot qilish, jonli muloqot va adabiy til normalarini egallanishi uchun mo‘ljallangan matnlarning uslubiy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

3. Lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslikka oid til materialini tanlashda lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, va

madaniyatlararo yondashuvlarga asoslanib tili o‘rganilayotgan mamlakatning tarixiy-madaniy urf-odatlari, ananalari, bayramlarini aks ettiruvchi o‘quvchilarning “Eng yaqin rivojlanish zonasi”dagi material tanlanishi kerak. Lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, va madaniyatlararo til materialining metodik asoslanganligi o‘quvchilarning sotsiolingvistik va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Sotsiolingvistik materialni tanlashda o‘quvchilarning psixolingvistik xususiyatlari, rivojlanish qonunyatlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olib yo‘naltiriladigan tizimli yondashuvini qo‘llash lozim.

Ma’lum yoshdagi o‘quvchilarning qiziqish doiralariga taalluqli so‘zlar, matnlar, voqealar va vaziyatlarni aks ettiruvchi til materiali o‘quvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi va ularning chin ma’nodagi qiziqishlari yanada ortirib jonli muloqot qilishga ichki turtkisini oshiradi. Natijada til metirali o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish manbayiga aylanadi.

Dastur materialini tanlash yondashuvlarini bilish o‘qituvchiga asosiy darslikda to‘liq aks etmagan materialni savodli tanlashga yordam beradi. Masalan, bugungi kundagi aksariyat darsliklar xorij tajribasidan kelib chiqib yaratilmoqda va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadiga xizmat qiluvchi situativ nutq mashqlarga ustivor ahamiyat qaratilmoqda. Natijada o‘quvchilarning leksika va grammatikaga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi til mashqlarga e’tiborni susaytirilganligini kuzatish mumkin. Bunday darsliklar nutqiy (pragmatik) kompetensiyani rivojlantirishga mo‘ljallangan bo‘lib o‘quvchilarning til kompetensiyalarni rivojlantiruvchi zaruriy miqdordagi materialga ega emas. Shunday darsliklar ham bo‘ladiki, o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan materialga ustivor ahamiyat qaratilib, nutqiy va pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur bo‘ladigan muloqot vaziyatlari va mavzulariga oid material taqdim etilmaydi.

Sotsiolingvistik (dastur) materialni tanlash yondashuvlari va qoidalari:

– birinchidan, ingliz tili o‘qitishning umumiy, masalan, til materiali yoki lisoniy ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan ma’lum dars uchun yo‘naltirilganligini aniqlash;

– ikkinchidan, lisoniy, nutqiy, lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslik matreiallarining, ta’limning har bir bosqichi uchun ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo mazmunning o‘zaro munosabatini ajratib olish;

– uchinchidan, ta’lim natijasini – o‘quvchilarda motivatsiya va zaruriy kompetensiyalarni shakllanishini bashorat qilish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval.

**Sotsiolingvistik mazmun (material)ni tanlash yondashuvlari**

| **Dasturiy materialini tanlash yondashuvlari** | **Yondashuvning shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilganligi** |
|---|---|
| Sistemali va mazmunli | O‘quvchi motivatsiyasi |
| Lingvistik | Til kompetensiyasi |
| Pragmatik | Kommunikativ-nutqiy (pragmatik) kompetensiya |
| Lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, madaniyatlararo | Ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo kompetensiya |

Sotsiolingvistik materialni tanlash yondashuvlari va qoidalarini bilish ingliz tili o‘qitishda umumiy yo‘nalishni aniqlab olishga yordam beradi. Lekin aynan nimani va qanday, o‘quvchilarda motivatsiyani oshirish va muhim kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zarur va ahamiyatli bo‘ladigan aynan qaysi dasturiy materialini tanlash kerak degan savolga javob bera olmaydi. Ushbu savolga javob topish uchun tanlash birliklari va prinsiplariga murojaat etish zarurati tug‘iladi.

*O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Boshlang‘ich sinflarda sotsiolingvistik materialning egallanish tarzi yoki usuli haqidagi bilimingizni sinab ko‘ring.

2. Dastur materialini tanlashga empirik, lingvistik va pragmatik yondashuvlarning umumiy va farqli hususiyatlarini aniqlashtiring.

3. Sotsiolingvistik materialni tanlash yondashuvlari yuzasidan fikr bildiring.

4. Sotsiolingvistik kompetensiyaning egallanishini ta’minlash uchun darslik bilan ishlashda qanday metodik tadbirlar qo‘llanilishi lozimligini aniqlang.

*Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.

2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2007. – 336 с.

3. Родина Н.М., Протасова Е.Ю. Методика обучения дошкольников иностранному языку: Учеб. пособия. – М.: Владос, 2010. – 210 с.

## 2.10. Sotsiolingvistik materialni tanlash birliklari va prinsiplari

**Kalit so‘zlar:** *tanlash birligi, nostandart nutq vaziyati, nutq mavzusi, nutq vaziyati, muloqot doirasi, muloqot syujeti, kommunikativ material, til kodi, til birligi, nutq birligi, kommunikativ birlik, nutq namunasi, muloqot modeli*

Ingliz tili o‘qitishda tanlash birliklari muhim rol o‘ynaydi. Birliklar haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lmaslik ingliz tili o‘qitishda katta qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Masalan, o‘qitishda muloqot vaziyati aniqlansa-yu, muloqot doirasi (sfera) belgilanmasa o‘quvchilar faqat ma’lum standart vaziyatlardagi muloqotda ishtirok eta oladigan bo‘lib, o‘xshash yoki nostandart nutq vaziyatlariga

moslasha olishmaydi. Bu esa, ingliz tilida erkin muloqot qilish malakasini rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Tanlish birliklariga quyidagilar taaluqlidir:

1) nutq mavzusi va vaziyati;
2) muloqot doirasi va syujeti;
3) kommunikativ material;
4) til materiali;
5) nutq materiali;
6) mamlakatshunoslik va lingvomamlakatshunoslikka oid material;
7) ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yo'nalishdagi material.

Yuqoridagilarning har biri alohida ko'rib chiqiladi.

Nutq mavzulari ingliz tili o'qitish maqsadlaridan kelib chiqib tanlanadi. O'rta maktabda ingliz tili o'rganish chegaralangan tematik minimum (va shuningdek, situativ minimum) bilan ta'minlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "o'quvchi va uni o'rab turgan tevarak-atrof", "Vatanimiz" va "Tili o'rganiladigan mamlakatlar" kabi mavzular asosiy nutq mavzulari hisoblanadi. Nutq mavzulari sotsiolingvistik materialning eng muhim birligi hisoblanadi. Chunki butun boshli dastur materiali mavzuga mos ravishda tanlanadi va ta'lim jarayoni ushbu mavzuga to'liq bo'ysundiriladi. Til, nutq, kommunikativ yoki boshqa birorta birlik nutq mavzusidan tashqarida bo'lmasligi lozim.

Nutq mavzusi sistemalashtirilishi va faollashtirilishi lozim bo'lgan bilmlar, rivojlantirilishi ko'zda tutilgan malaka va ko'nikmalar doirasini va keyinroq o'quvchilarning muloqot ehtiyojlariga mos ravishda ularni qayta shakllantirish sohasini belgilab beradi. Mavzuni aniqlashning muhimligi shundaki u o'quvchilar ongida tajriba ortirish, bilmlar egallash va tizimlashtirish sodir bo'lishiga asoslangan tilni umulashtirish jarayonini aks ettiradi. Nutq mavzulari quyidagi tartibda shakllantirilishi mumkin: "O'yinchoqlar", "Hayvonlar", "O'quv qurollari", "Oziq-ovqatlar". Lekin "Ranglar" yoki "Raqamlar" nutq mavzusi bo'la olmaydi. Buning sababi ular predmetlarning belgisini yoki miqdorini anglatib ma'lum bog'lanishlarni hosil qila olmaydi.

Mavzular “predmetlar dunyosi”, “inosnlar dunyosi” va “tabiat dunyosi” kabi o‘quvchini o‘rab turgan komponentlarning munosabatidan kelib chiqib tanlanishi lozim. Ushbu komponentlar mavzularda tanishtirilishi va o‘zaro bir-birlarini to‘ldirishlari kerak. Mavzularni aniqlashtirishda ularning vazifalarini ham hisobga olish zurur bo‘ladi. Mavzu:

1) o‘quvchi ongida toifali aloqalarni rivojlantirish va tushunishni shakllantirish hisobiga bilimlarni sistemalashtirishni ta’minlaydi;

2) “Bolalar dunyo manzarasi” va bolalar dunyoqarashini shakllantirishni ta’minlaydi;

3) o‘quvchilarni predmetlar, insonlar va tabiat dunyosiga yo‘naltiradi, o‘zlarining shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqib kelajakda tanlashlari mumkin bo‘lgan kasbga oid leksik birliklar bilan pinhoniy tanishtiradi.

Mavzu ichki mavzularni qamrab olishi mumkin. Masalan, “Oziq-ovqat” mavzusi “go‘sht mahsulotlar”, “non mahsulotlari”, “qandolatchilik mahsulotlari”, “sut mahsulotlari” kabi kichik mavzularga kengaytirilishi mumkin. Noto‘g‘ri shakllantirilgan mavzular o‘quvchilarga o‘rganilgan til materialini bilim darajasida umumlashtirishda qiyinchilik tug‘diradi, ularni yoddan chiqarish oqimini tezlashtiradi, malaka va ko‘nikmaga aylanishini susaytirib ingliz tili ta’limining sifatini pasaytiradi.

Mavzu doirasida tanlanadigan nutq vaziyatlari aralashib ketmasligi lozim. Agar mavzu o‘quvchining til materialini umumlashtirish darajasini aks ettirsa va kategoriyalashgan aloqalar sababli dasturiy materialning o‘zlashtirilishini ta’minlasa, nutq vaziyatlari situativ va assosiativ aloqalar o‘rnata oladi. Bitta mavzu doirasida turli nutq mavzulari tanlanishi mumkin.

Masalan, “Yovvoyi hayvonlar” mavzusi “Hayvonot bog‘ida”, “O‘rmonda”, “Maymoqvoynikida mexmonda” kabi nutq vaziyatlarida o‘zlashtirilishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchi nutq mavzularida emas balki turli nutq vaziyatlarida kommunikasiya va interaksiya qilish kompetensiyasini egallashi lozim. Nutq mavzusi dastur materialini metodik tayyorlash va yagona “axborot

kengligi”ni yaratish uchun o‘qituvchiga kerak. Ushbu doira ichida turli nutq vaziyatlarida kommunikasiya va interaksiya samarali sodir bo‘ladi.

Kommunikativ nutq vaziyatlari yoki muloqot vaziyati bir necha zaruriy komponentlardan iborat. Bu komponentlarsiz kommunikativ nutq vaziyatini sun’iy sinfxona sharoitida yaratib bo‘lmaydi. Ular quyidagilar:

– gapiruvchi va tinglovchi;

– muloqot qilinayotgan til kodi;

– gap nima haqida borayotganligini anglatuvchi muloqot predmeti;

– qayerda va qay tarzda sodir bo’layotganligini ifodalovchi muloqot sharoiti.

Ushbu komponentlarning barchasi nutq vaziyatini hosil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tili o‘qitishning dastlabki bosqichida kod ikki tilda bo‘lishi umkin. Ya’ni, o‘quvchilarga nutq vaziyati va oqimi ona tilida tanishtirishi mumkin bo‘lsa-da, kommunikasiya jarayoni ingliz tilida sodir bo ‘ladi.

Kommunikativ va interaktiv vaziyatlar turli muloqot sohalarda (xo‘jalik, madaniyat va sport, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, kasbiy) sodir bo‘lishi mumkin. Muloqot maydoni ingliz tili o‘qitishning keyingi bosqichlarida nutq vaziyatidan kelib chiqib kengayib yoki torayib boradi. Masalan, “Oziq-ovqat” mavzusi “Kafeda”gi nutq vaziyatida sport muloqot doirasida o‘rganilishi mumkin. Bolalar kafega so‘nggi furbol matchini muhokama qilish uchun kelishdi. Yoki “Kiyim-kechak” mavzusi “Magazinda”gi nutq vaziyatida o‘rganiladi. Bunda muloqot doirasiga yil fasllari ham kiritilishi mumkin.

Bir mavzu uchun nutq vaziyatini aniqlash va muloqot doirasini belgilash ingliz tilida kommunikativ kompetensiyaning muvafaqqiyatli egallanishida muhim rol o‘ynaydi, nutq mavzusi va muloqot maydonining metodik jihatdan adekvat tanlanishi kommunikasiya va interaksiyaning yanada hayotiy va tabiiy sodir bo‘lishini ta’minlaydi.

Kichik maktab yoshidagilarga ingliz tili o‘qitishda kommunikasiya va interaksiyaga erishishga motivasiyani oshiruvchi syujetni tanlash ayniqsa muhimdir. Syujet interaksiya jarayonida o‘quvchining nutqiy faolligini oshirishga hizmat qiladi. Nutqning o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmasligini va uning doim boshqa bir

faoliyatga hizmat qilishini inobatga oladigan bo‘lsak, uni mazmunli yoki produktiv faoliyatga bog‘lash kerak bo‘ladi. Shunda boshqa faoliyat hisobiga o‘quv-bilish motivatsiyasi oshiriladi.

Masalan, “Hayvonot bog‘ida”gi nutq mavzusi doirasida “Hayvonlar” mavzusini o‘rganayotgan kichik maktab yoshidagi o‘quvchiga “Ayiqchaga onasini topishda yordamlashamiz” syujeti taqdim etilishi mumkin. Bunda o‘quvchi nutqiy topshiriqni bajarish uchun emas, balki o‘quv-bilish motivasiyasi va o‘yin talabi – onasini yo‘qotgan ayiqchaga ko‘maklashish istagi sababli ingliz tilida gapiradi. Topshiriq va mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi nafaqat leksik birliklar va iboralarni, balki boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish vositalarini ham egallaydi. O‘yin shaklidagi mashg‘ulotlarda bolalar intuitiv-amaliy tarzda hayvonlar va ularning bolalari nomlarini inglizcha aytishni o‘rganishadi, “ona”ni izlash jarayonida bir-birlariga savollar va javoblar berishadi, o‘yin topshiriqlarini mustaqil bajarishadi.

Kommunikasiya va interaksiyaning ingliz tilida sodir bo‘lishini ta’minlash uchun kommunikativ material tanlash joiz bo‘ladi. Kommunikativ materialning muloqotni boshlash, bir mavzudan ikkinchi mavzuga o‘tish, muloqot davomiyligini ta’minlash va yakunlash uchun zarur bo‘ladigan hamda o‘zaro hurmatni ta’minlovchi muloqot modellaridan (dialog nutqda yaxlit qo‘llaniladigan tayyor gaplar: salomlashish, hayirlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash, tabriklash, taklif qilish, taklifni qabul qilish yoki rad etish) iborat bo‘lishi tavsiya etiladi. Kommunikativ material bir tomondan muloqot ishtirokchilarining maqsadini ifodalovchi birliklarini, ikkinchi tomondan muloqot senariysini ham taqdim etadi.

Shunday qilib mavzu muloqotning a) predmetini (nima muhokama qilinadi), b) vaziyatini – kommunikasiya sharoiti va ishtirokchilari (nima maqsadda muhokama qilinadi), d) qiziqishlar sohasini – (qaysi mavzu muhokama qilinadi) belgilasa, syujet muloqotning miqdor va yo‘nalishinini boshqa faoliyat bilan qorishtirishda sabab motivini (qaysi manfaatni ko‘zlab) aniqlashtiradi va o‘quvchilarning bilish motivasiyasi va nutqiy faolligini oshiradi. Kommunikativ

material o‘quvchilarga (tinglash yoki o‘qish jarayonida olingan ma’lumotga nisbatan quvonish, hayratlanish, taajjublanish, ikkilanish kabi turli munosabatlar bildirish uchun) foydali bo‘lish bilan birga, kommunikativ kompetensiyaning egallanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ birliklarni saralashdan tashqari lisoniy va nutqiy kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiluvchi til va nutq birliklarini tanlashni ham unutmaslik lozim.

Chet til birligi nomli metodik hodisa qator kichik tushunchalardan iborat. Til materiali fonema-grafema, morfema va semantik birliklar darajasida bo‘lishi mumkin. Fonemalar talaffuzga oid kompetensiyaning egallanishiga asos bo‘ladigan fonetik materialdan iborat bo‘ladi. Morfemalar darajasidagi til birligi leksik va grammatik ma’no kasb etuvchi so‘z elementlaridan (so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar) va yordamchi so‘zlardan (artikl, predlog) iborat bo‘lishi mumkin.

Semantik birlik darajasidagi til birligi semantik qator doirasidan tanlab olinadigan leksik birliklardan iborat bo‘ladi. Til materialining semantik darajasiga xos xususiyat shundaki, leksik birlik kontekstda nutq birligi, nutq vaziyatida kommunikativ birlik maqomini olishi mumkin. Ingliz tili o‘qitishda aynan shunday so‘zlar tanlab olinishi lozim.

Semantik darajadagi til birligiga faqat lug‘at birligi emas, leksik birlik ham taalluqli: 1. Lug‘at birligi – o‘zak so‘z; yasama so‘z; 2. Leksik birlik – o‘zak so‘z; yasama so‘z (uning tarkibidagi so‘z yoki so‘z yasovchi elementlar ajratib o‘rganilmagan taqdirda); so‘z yasovchi element (affiks, prefiks). Ularning farqi shundaki o‘quvchilarning ona tili va ikkinchi tildagi tajribalari (lemon, zabra, tomato, piano), ingliz tilini o‘rganish jarayonida egallagan til tajribasining (like – dislike, teach – teacher) ijobiy ko‘chishi sababli lug‘at birligi leksik birlik darajasini yo‘qotadi. Lug‘at birligi ko‘pmanolik kasb etib o‘quvchi ongida turli assotsiativ bog‘lanishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Ingliz tilda so‘z yasash tajribasining egallanishi uning o‘rganilishini jadallashtiradi.

Nutq namunasi va qolip gaplar shaklida taqdim etilishi mumkin boʻlgan grammatik konstruksiyalar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Nutq namunasi ingliz tili oʻqitishda asosiy birlik maqomini kasb etadi. Nutq namunasi tilning leksik, grammatik va talaffuz tomonlarini mujassamlashtiradi va qoʻllash yoki idrok etish uchun tayyor hodisa hisoblanadi. Nutq namunasi ogʻzaki nutqning ilgarilashi tamoyilida, dastlab, tayyor jumla mavqeyida, soniyan, undagi tarkibiy qismlar almashtirilib, oʻrganilganda tipovoy jumla maqomiga molik boʻladi. Mas. *I see a pen*, dastavval, oʻrganilishida yahlit (tayyor) jumla tarzida olinadi. Soʻngra nutq namunasi (I see a pen, I see a book, I read a book)ning qismlari oʻzgartirilganida, tipovoy jumla huquqini oladi. Muloqot modellari xotirada tayyor turgan rekurent (jonli muloqotda tez-tez takrorlanadigan) til hodisalari (What's up, Never mind, Help yourself) maqomida oʻrganiladi. Nutq namunalari va tipovoy jumlalar adabiy til normalarining oʻzlashtirishga va uning asosida leksik va grammatik kompetensiyaning egallanishiga hizmat qiladi. Muloqot modellari esa oʻquvchilarga jonli muloqot tilini oʻrgatadi.

Nutq materiali frazeologik birliklar va qiyinlik darajasi turlicha boʻlgan dialog va monolog xarakteridaki matnlarda taqdim etiladi. Nutq materiali oʻquvchilarga ingliz tilida fikr ifodalash usullarini oʻrgatish orqali tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozuv kompetensiyalarining egallanishi uchun xizmat qiladi. Nutq materiali badiiy va ilmiy-ommabop asarlardan, gazeta maqolalaridan, reklama prospektlaridan olingan parchalar boʻlishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar uchun ertaklar, she'r va qoʻshiqlar, bolalar adabiyotidan hikoyalar tanlanadi.

Yuqorida bayon etilgan yondashuvlar asosida amalga oshiriladigan lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslikka oid materialni tanlash ingliz tili oʻqitishda muhim ahamiyatga ega.

Lingvomamlakatshunoslik materiali ingliz tili sohibi boʻlmish xalqning madaniyati va milliy oʻziga hosligini aks ettiradi. Masalan:

1) oʻzga til madaniyatiga hos boʻlgan va ona tilida mavjud boʻlmagan predmet va hodisalarni anglatuvchi realiyalar;

2) qiyoslanayotgan madaniyatlarda analogi mavjud lekin shakl, vazifa va taalluqliligi bo‘yicha farqli milliy xususiyatga ega predmet va hodisalarni anglatuvchi potensial (ekvivalent) leksika;

3) umumiy ma’nosi mos keladigan lekin tarixiy-madaniy ildizlari bilan farqlanuvchi konnotativ (ekvivalentsiz) leksika.

Assosiy murakkablik semantik, funksional va formal qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi potensial va konnotativ xususiyatga ega milliy-madaniy leksikani tanlashda vujudga keladi. Potensial lug‘at quyidagi kichik toifalarga bo ‘linadi: 1) shakli va ma’nosi ingliz tilida, ona tili va ikkinchi tilda mushtarak so‘zlar (club – klub; tennis - tennis); 2) shakl va ma’nosi ikkinchi til va chet tilda o‘xshash so‘zlar (literature – литература; culture – культура; history – история); 3) ingliz tili konversiyasi usulidagi so‘zlar (work – ishlamoq; ish; far – uzoq; uzoqda; on – ustida; da); qismlari oldin o‘rganilgan o‘quvciga tanish qo‘shma so‘zlar (compaunds - bookshop, schoolboy, milkman, homework); juft so‘zlar (bottle opener, pensil sharpener, coat hanger, lunch box); kollokatsiyalar (collocations – blund hair, bottle neck, take a picture); 5) o‘zak, prefiks va affiks qismlari tanish so‘zlar (work+er; dis+like; un+happy; mis+understand; difficult+y; regulate – regulation – regular – irregular) 6) to‘liq shakli tanish qisqartma so‘zlar (abbrevations: the USA, UN; UK; acronyms: UNESCO; UNICEF; CEFR).

Yuqoridagilar ichida eng qiyin o‘zlashtiriladigan leksik birlik kollokatsiya bo‘lib ular bir qarashda oson ko‘rinadi. Chunki uning tarkibidagi so‘zlar avval o‘rganilganligi sababli tanish, lekin ma’nosi faqat til sohibining madaniyatiga xos. Masalan, bottle neck ( = chorraxadagi tirbandlik), black man ( = erkaklar sartaroshi) kabi kollokatsiyalarning ma’nosi faqat autentik matnlardagi kontekstda ochib beriladi.

Leksikaga oid materialini tanlashda qator prinsiplarga amal qilish lozim. Ingliz tili o‘qitish metodikasi doirasida dastur materialini tanlashning umumiy prinsiplari bilan cheklanamiz.

**1. Mavzuga bog'langanlik va taalluqlilik prinsipi**

Ushbu prinsipga binoan dastur materialini tanlashda faqat mavzuga aloqador leksik birliklar tanlanishi lozim. Mavzuga uning xos sususiyatlarini aks ettiradigan va o'quvchilarning yosh davriga mos keladigan so'z-tushunchalar kiritilishi tavsiya etiladi. Har bir mavzuda u yoki bu darajada lisoniy, nutqiy, kommunikativ, lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslikka oid barcha ifoda birliklari mavjud bo'lishi lozim. Har bir mavzuda ma'lum darajada "tabiat dunyosi", "predmetlar dunyosi" va "insonlar dunyosi" tanishtirilishi kerak. Birorta ham so'z yoki ibora tasodifiy bo'lmasligi shart. Asosiy e'tibor mavzuni aks ettrira olmaydigan fonetik materialning akustik alomatlariga qaratilishi lozim.

**2. Autentiklik prinsipi**

Ushbu prinsipning mohiyati shundaki, tanlangan material o'ylab topilgan yoki xayoliy bo'lmasligi va aksincha ingliz tili sohibi tomonidan kundalik turmushda foydalaniladigan bo'lishi lozim. Har bir tilning turli dialektlari va jargonlari bo'lganligi sababli bu murakkab va muammoli. Shu sababdan gap shartli autentlilik haqida boradi. Bunda mamlakatda hamma ma'qul biladigan va foydalanadigan so'zlar, ifoda birliklari, ko'p uchraydigan manbaalardan olingan matnlar: san'at asarlari, reklama prospektlari, qo'shiqlar va boshqalar tanlanishi mumkin. Ushbu prinsipga amal qilinishi xalq tilini, fazilat va xos xususiyatini ma'lum darajada akslantira oladigan va o'quvchilarni ingliz tili sohibi bilan muloqotga tayyorlaydigan sotsiolingvistik materialga murojaat etilishi maqsadga muvofiqdir. Dastur materialini tanlashda og'zaki autentik va adabiy autentik materiallarning munosabatlarini ham e'tiborsiz qoldirmaslik lozim.

**3. Ko'p qo'llanish, keng tarqalganlik va mamlakatshunoslikka oid qadriyatlarni inobatga olish prinsipi**

Ko'p qo'llanish terminining ma'nosi olingan manbada so'zlarning jami ishlatilish miqdorini bildiradi. Bu borada ayniqsa korpus lingvistika sohasida erishilgan yutuqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Korpus lingvistikasida og'zaki va yozma nutqda yuqori takrorlanish chastotasiga ega bo'lgan so'zlar aniqlanadi. Buning uchun tanlangan manba (og'zaki yoki yozma matn)da

qo‘llanilgan so‘zlarning umumiy miqdori aniqlanadi va ulardan eng ko‘p takrorlangan so‘zlar ajratib olinadi. Bu jarayonni alifbodagi harflardan 6 ta unlini ajratib olish hodisasiga qiyoslash mumkin. Tanlash manbayi deganda, shakllanayotgan leksik minimumni til sistemasidan “tanlab” olish tushuniladi. Masalan, J.Bauman va B.Kuliganlar tomonidan takomillashtirilgan GSL (General Service List) da og‘zaki va yozma muloqatda eng ko‘p takrorlanadigan 2284 ta leksik birlik aniqlangan (5-jadval)[42].

**5-jadval.**

**The GSL: frequency**

| Number (1-2284) | Frequency | Word | Related words in GSL | Related words NOT in GSL |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 69975 | **the** | | |
| 2 | 39175 | **be** | | been, is, are, was, were, am |
| 3 | 36432 | **of** | | |
| 4 | 28872 | **and** | | |
| 5 | 26800 | **a** | | an |
| 6 | 26190 | **to** | | |
| 7 | 21338 | **in** | | |
| 8 | 20033 | **he** | | him, his |
| 9 | 12458 | **have** | | has, had |
| 10 | 11247 | **it** | | |

[42] http://www.eapfoundation.com/vocab/general/gsl/frequency/

Ma’lumki, eng ko‘p qo‘llanadigan birinchi mingtalikdagi so‘zlar o‘rtacha qiyinchilikdagi matndagi mazmuning 80 foiz tushunib olish imkonini beradi, ikkinchi mingtalik 8-10 foiz, uchinchisi 4 foiz, to‘rtinchi va beshinchi mingtalik bu imkoniyatni atiga 2 foizga oshirishi mumkin. Asosiy ikki mingta so‘z matndan 85-90 foizgacha axborot olish uchun kifoya. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek, bu yerda gap mavjud ilmiy mezonlarga binoan maxsus tanlanadigan leksika haqida boryapti.

Odatda lisoniy minimum, jumladan leksika o‘rganilayotgan tildagi nutqdan tanlanadi. Aniqrog‘i, aktiv minimum badiiy asarlardagi juft nutqdan yoki so‘zlashuv-adabiy nutqining yozilgan fonogrammasidan tanlanadi. Passiv minimum esa, yozma adabiyotdan olingan termalar (parchalar) asosida tanlanadi. Aktiv leksika jonli nutqdan olinib, o‘quvchi og‘zaki nutqida, passiv esa yozma manbalardan tanlanib, o’quvchi yozma nutqida qo‘llashga mo‘ljallanadi.

Keng tarqalganlik deyilganida ushbu so‘zni o‘z ichiga olgan manbalar soni nazarda tutiladi. Ko‘p qollaniladigan va keng tarqalgan leksik birliklar ingliz tilining oson o‘rganilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, ingliz tili o‘qitish metodikasida o‘qitish maqsadi va nutq mavzularini mo‘ljallab qo‘llanadigan mezonlarga amal qilish prinsiplari ham ishlab chiqilgan. Ular orasida mavzularni hisobga olishdan tashqari, tushunchalarni tasvirlash va semantik ahamiyatdagi mezonlarni uchratish mumkin. Qolgan tanlash mezonlar: so‘zlarning birikishi, so‘z yasash imkoniyati, ko‘p ma’nolilik, uslub jihatidan chegaralanmaganlilik, sinonimlarni chegaralash, gap tuzishdagi ishtiroki.

Leksik birliklarni tanlashning mamlakatshunoslikka oid qadriyatlarni inobatga olish prinsipi deganda gapiruvchi ongida naqd (ixtiyorida) turadigan muloqot modellari nazarda tutiladi. Davlat Ta‘lim Standartida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (4-sinf bitiruvchilari) chet tilni Umumyevropa xalqaro stanarti - CEFR (Common European Framework of Reference)ning boslang‘ich A-1 darajasida bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozimligi dasturiy talablar sifatida belgilangan. Ushbu darajaga xorijiy adabiyotlarda quyidagicha ta‘rif berilgan: o‘quvchilar sodda dialoglarda ishtirok eta olishadi, o‘zlari va yaqin insonlariga

taalluqli (yoshi, yashash manzili, kasbi, yoqtirgan narsalari) shaxsiy xarakterdagi savollarga javob bera olishadi va shunday mazmundagi savollar bilan murojaat eta olishadi; o‘zlari uchun tanish va qiziqarli mavzulardagi sodda suhbatlarda ishtirok eta olishadi; nutq mavzulari doirasida o‘zlashtirilgan kam miqdordagi leksik, grammatik, talaffuzga oid til materiali yordamida o‘z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos mavzularda kommunikativ topshiriqlarni bajara olishadi[43]. Shuningdek, o‘quvchilar salomlashish, o‘zini tanishtirish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, uzr so‘rash, tabriklash, taklif etish, kundalik nutq vaziyatlaridagi sodda muloqot modellarini kommunikativ maqsadlarda qo‘llay olish malaka ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim. Kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensialardan iborat bo‘lib u “muloqotni qachon va qay tarzda boshlashni, ma‘lum nutq vaziyatlariga qaysi mavzular mos kelishini, kimga va qanday vaziyatlarda murojaat qilishning maqbul shakllaridan foydalanishni, salomlashish, xushomad qilish, maqtash, uzr so‘rash, taklif qilish kabi nutq harakatlarini bajarish, talqin qilish va ularga mos javob qaytarishni bilish” malaka va ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi[44].

DTSda ham A1 daraja uchun salomlashish, o‘zini tanishtirish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, ma‘lumot olish va berish, uzr so‘rash, tabriklash, taklif etish va taklifni qabul qilish / rad etishni bilish va qo‘llay olish kabi malaka talablar belgilangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ushbu malaka talablari darajasidagi ko‘rsatkichga ega bo‘lishlarini ta‘minlash uchun qancha va qanday leksik birliklar va turg‘un birikmalar o‘qitilishi lozimligini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Sababi, belgilangan talab darajasidagi bilimga ega bo‘lish uchun o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan til materiali (aktiv va passiv leksik minimum)ni, ya‘ni o‘quvchilarning yoshga oid psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos ratsionni aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Ya‘ni

[43] Common European Framework of Reference for languages: Learning, Teaching, Assessment // Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка. Русский перевод Московский государственный лингвистический университет, 2005. С.105-106.
[44] Stern H.H. Fundamental concepts of language teaching. L.: Oxford Univresity press, - 1986. P. 45-46.

yuqoridagi maqsadga erishish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nimani o‘qitishni aniqlab olish zarur bo‘ladi.

Sohaga oid xorijiy jurnallar va internet saytlaridagi maqolalarda *formulaic chunks, prefabricated sentences, formulaic expressions, lexical chunks, formulaic sequences, fixed expressions, lexical chunks, formulas, formulaic utterances, frame structures, lexical items, lexicalized sentence stems, memorized sentences, speech patterns, prefabricated chunks, prefabricated or ready-made language, routines, speech formulas, unanalyzed language* kabi atamalarga tez-tez murojaat etilayotganligini kuzatish mumkin. Mualliflar turli atamalardan foydalanishsa-da *“Help yourself!”, “Anybody home?”, “Hurry up!”* kabi standart nutqiy ifodalarni nazarda tutishadi va ularga quyidagicha ta‘rif beriladi:

Formulaic expressions are fixed strings or chunks of words that have a range of functions and uses in speech production and communication and seem to be cognitively stored and retrieved by speakers as if they were single words[45].

O‘zbek tilidagi adabiyotlarda ham bazaviy yoki yadro gaplar, luqma, tayyor replika, nutqiy ifoda, namunaviy nutq birligi, qolipga solingan nutq birliklari, nutq bo‘lagi, jumla, ibora, turg‘un birikma, o‘zgarmas leksik birlik, qolip gap, tipovoy jumla kabi atamalar uchraydi. Ularga kundalik ijtimoiy munosabatlardagi standart nutq vaziyatlarida muloqot ishtirokchilari tomonidan qo‘llanish ehtimolligi yuqori bo‘lgan, namuna bo‘lish imkoniyatari keng bo‘lgan, ma‘lum mazmunni ifodalash maqsadida o‘zaro bog‘langan bir necha so‘zlar birikmasi, ma‘no ifodalovchi so‘zlar yig‘indisi degan ta‘rifni berishimiz mumkin. Muloqot modellarini a) bir necha so‘zdan iborat o‘zgarmas gap (Anybody home?), b) nutq vaziyatiga qarab o‘zgaruvchan (Pass the ……,), c) kirish so‘z vazifasida keluvchi birikmalar (As for me….., To my mind…..), d) so‘z gap (“Yes.”, “No.”, “Well”, “OK.”, “Really!”, “Ready?”) kabi turlarga ajratish mumkin. Ingliz tilida frazeologik birliklar, maqollar, shiorlar, aforizmlar (ibratli pand-nasihatlar) ham muloqot modellari qatoriga kiritiladi. Muloqot modellarini yodlash va ulardan turli nutq vaziyatlarida

---

[45] Wray. A. Formulaic sequences in second language teaching: Principles and practice. - Applied Linguistics, 2000. - P. 463-489.

avtomatizim darajasida spontan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish orqali ingliz tilini muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish mumkinligini isbotlash maqsadida tajribalar olib borilmoqda. O‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini shaklantirishda muloqot modellarini o‘qitish masalasiga turlicha yondashiladi. Ingliz tili o‘qitish metodikasida dialog nutqni o‘rgatishning ikki yo‘li mavjud: deduktiv (umumiydan xususiyga yo‘nalgan) va induktiv (xususiydan umumiyga). Lekin deduksiyada, ya‘ni juftnutqning yaxlit namunasiga suyanib ish ko‘rilganida o‘quvchi til materialini mustaqil qo‘llashga o‘rganmaydi, g‘ayrishuuriy ravishda yodlash va erkin nutq yuritmaslik ko‘chasiga kirib qoladi, degan fikrlar ham uchrab turadi. Ingliz tili ta‘limida og‘zaki nutqni o‘rgatishda og‘zaki diaolg nutqni o‘qitishning xos murakkabliklarini hisobga olib og‘zaki monolog nutqdan boshlash lozimligi qat’iy turib uqtirib kelingan. Buning sababi esa “osondan qiyinga” degan didaktik tamoyilga zid deb asoslanadi. Lekin bugunning talabi chet tillarni muloqot vositasi sifatida egallanishini ta‘minlashdir. Shu sababli ham bizning fikrimizcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tili fanidan leksik materialini tanlashda alohida so‘zlarga emas, balki tayyor gaplarga ko‘proq ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ya‘ni leksik til materiali dastlab butunicha taqdim etiladi va u keyinchalik bo‘laklarga ajratiladi. Ona tilida nutq rivojlanish bosqichlarida ham dastlab bola alohida so‘zlarni emas balki ota-onasidan yoki atrofidagi yaqinlaridan qabul qilgan muloqot modellariga taqlid qiladi. Kichik yoshdagi o‘rganuvchilar ham ingliz tili materialini xuddi shunday qabul qilishadi.

Bu fikrni Krashenning «monitor model»i ham tasdiqlaydi. Uning fikricha kichik yoshdagi ingliz tili o‘rganuvchilar til shakliga ongsiz yondashadilar. Ya‘ni gapdagi so‘zlarning joylashishiga e‘tibor bermay, ularni bir butun gap holida yodlab olishadi. Shu tariqa standart vaziyatlarda takrorlanish chastotasi va namuna bo‘lish ehtimolligi yuqori bo‘lgan jumla, ibora, gap shaklidagi tayyor yoki yarim tayyor muloqot modellarining boy repertuari sohibi bo‘lgan til o‘rganuvchi suhbat jarayonida o‘zini erkin muloqot qila olishning yuqori darajasidagi malakaga ega ekanligini ko‘rsata oladi. Ya‘ni, ular grammatik “majburiyatlarni” bajarish zarurati

va minglab so‘zlar orasidan eng maqbul leksik birlikni tanlash maqsadida miyada murakkab amallarni bajarishdan cho‘chimay, asabiylashmay va ikkilanmay xotiralaridagi tayyor modellardan foydalanib muloqot qilishlari mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, muloqot modellarini o‘rgatish o‘quvchlarni dadillashtirib ularda o‘ziga ishonchni ortiradi, degan fikrga qo‘shilish mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqotlardan ma‘lumki, hattoki ingliz til sohiblari (ingliz tilida mahalliy so‘zlashuvchilar) ham ma‘lum ma‘noni ifodalash uchun har xil so‘zlar ishtirokida yangi gap tuzmasdan, xotiralaridagi avvaldan tayyor muloqot modellaridan foydalanishni afzal ko‘rishar ekan. Misol uchun, Spears va bir guruh mualliflar jamoasi tomonidan nashrga tayyorlangan “Dictionary of Everyday American English Expressions[46]” lug‘atiga 7000 ta muloqot modeli kiritilgan bo‘lsa, Benson boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan nashr ettirilgan “The BBI Dictionary of English Word Combinations[47]” lug‘atiga ingliz til sohiblari qo‘llaydigan 90 000 ta muloqot modellari kiritilgan.

Nutq rivojlanish filogenezi va ontogenezi sohasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda bolalar nutq shakllanishining dastlabki bosqichida kattalardan eshitgan muloqot modellariga taqlid qilishlari aniqlangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida ham aynan shu bosqichni takrorlaydilar. Ya‘ni, ular o‘zlari tez-tez eshitib turadigan muloqot modellarini so‘zma-so‘z yodlab olishga moyil bo‘lishadi[48].

Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari til materialining ichki bog‘lanishlariga ahamiyat bermay, ma‘nosiga tushunmay, mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o‘zlashtiradilar. Buning sabablarini psixologlar quyidagicha tushuntiradilar: birinchidan ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani ma‘lumotlarni aynan o‘zgarishsiz eslab qolish imkonini yaratadi; ikkinchidan, o‘quvchilar o‘qituvchi qo‘ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada

---

[46] Spears. R., B. Birner, and S. Kleinedler. NTC’s Dictionary of Everyday American English Expressions. Lincolnwood, IL.: NTC Publishing Group. – 1994. P. 37-38.

[47] Benson. M., Benson. E, and Ilson. R. The BBI Dictionary of English Word Combinations (Revised edition). – Amsterdam.: John Benjamin’s Publishing Company. - 1997. P. 23-24.

[48] Немов Р.С. Психология В трех книгах 4-е издание Книга 1 Общие основы психологии. – М.: Владос, 2003. – С.110-111.

uning “to‘g‘ri tushuntirib ber” degan talabini so‘zma-so‘z takrorlash deb biladilar; uchinchidan, ularga xos bo‘lgan nisbatan kam so‘z boyligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to‘ldirish, unga qo‘shimcha qilish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi va uni so‘zma-so‘z qaytarishni osonlashtiradi; to‘rtinchidan, o‘quvchilar matnni to‘g‘ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar.

Taniqli olim, O‘kland (Auckland) universiteti professori Rod Ellis ingliz tili o‘qitishning asosiy 10 ta tamoyilni ishlab chiqqan va brinchi tamoyil sifatida mashg‘ulotlar o‘quvchilarda muloqot modellarining boy repertuarini shakllanishi zarurligi belgilanadi. Uning fikricha ingliz tili o‘qitishning dastlabki bosqichida muloqot modellarini o‘qitishga ustuvor ahamiyat qaratish maqsadga mufoqdir, so‘zlarni muloqot modellari tarkibida o‘zlashtirilishi va ulardan kommunikativ maqsadlarda foydalanilishi ingliz tili ta‘limida yuqori samara berishi mumkin.

Xulosa sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetentligini shakillantirishga deduktiv yondashuvni, ya‘ni ularning leskik zahirasida standart muloqot modellarining ulushini ko‘proq bo‘lishiga erishish zarurligini ta‘kidlash mumkin. Standart muloqot modellarining yod olinishi va ulardan nutq vaziyatlarida maqsadli qo‘llashni mashq qilinishi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muxim rol o‘ynaydi. Buning uchun o‘qituvchiga turli nutq vaziyatlarida qo‘llaniladigan standart muloqot modellari bazasini shakllantirish va amaliy mashg‘ulotlarda ulardan keng foydalanishni tavsiya etamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun til materiali sifatida kam miqdordagi so‘zlardan iborat bo‘lgan, eslab qolish va talaffuz qilishga oson hamda kundalik muloqotda zarur bo‘ladigan, takrorlanish chastotasi yuqori bo‘lgan muloqot modelllari (m, Hi! Hello! Yes. No. Please. Sorry! OK. After you. Anybody home? Thanks.) saralab olinishi tavsiya etiladi. Standart muloqot modellarining o‘zlashtirilishi o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan leksik, grammatik, semantik va pragmatik xatolarni kamayishiga, ingliz tilini tabiiy va psixologik

zo‘riqishlarsiz o‘zlashtirilishiga, til o‘rganuvchilarda rag‘bat (motivatsiya) va o‘ziga ishonchni oshishiga sabab bo‘ladi.

### *O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Leksikani tanlashning prinsip va mezonlarini tahlil eting.
2. Metodik nuqtayi nazardan jonli muloqt tili va adabiy til qanday farqlanadi?
3. Sotsiolingvistik materilani tanlashda o‘quvchilarning yoshi va til tajribalarini inobatga olish qanday usulda amalga oshiriliadi?
4. Dastur materialini tanlashga lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslik yondashuvlari qanday farqlanadi?
5. Kommunikativ kompetensiyaning A1 darajada egallanishini ta’minlash uchun sotsiolingvistik materialni tanlashda qanday birliklar muhim ahamiyat kasb etadi?

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012. - 246 b.

2. Лисина М.И. Формирование личности ребенка в общении. – Питер, СПб., - 2009.

3. Немов Р.С. Общие основи психологии. – М.: Владос, 2003. – с.110-111

4. Benson. M., Benson. E, and Ilson. R. The BBI Dictionary of English Word Combinations (Revised edition). – Amsterdam.: John Benjamin’s Publishing Company. - 1997.

5. Spears. R., B. Birner, and S. Kleinedler. NTC’s Dictionary of Everyday American English Expressions. Lincolnwood, IL.: NTC Publishing Group. – 1994.

6. Stern H.H. Fundamental concepts of language teaching. L.: Oxford Univresity press, - 1986. p – 145.

7. Wray. A. Formulaic sequences in second language teaching: Principles and practice. - Applied Linguistics, 2000. p. 463-489.

## UCHINCHI QISM
## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH METODIKASINING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

### 3.11. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning psixolingvistik aspekti

**Kalit so‘zlar:** *analizator, dinamik steriotip, nutq, nutq faoliyat, nutqharakat, nutq fiziologiyasi, til, mexanik hotira, so‘z mantiq xotirasi, tillararo interferensiya*

Psixolingvistika – alohida fan sohasi bo‘lib odamning nutq faoliyatini tadqiq etadi. Metodikaning psixolingvistik aspekti ingliz tili o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq rivojlanishidagi xos xususiyatlarini o‘rganadi. Ta‘lim mazmunidan kelib chiqib mavzularga mos til materialini metodik tashkil etuvchi sotsiolingvistik aspektdan farqli o‘laroq, psixolingvistik aspekt zamonaviy ingliz tili o‘qituvchisi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu sohada zamonaviy o‘quvchining ingliz tili o‘rganishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini, nutq faoliyati rivojlanish bosqichlari va dinamikasini anglashga yordam eradi. Bunday xususiyatlardan xabardor o‘qituvchi til, nutq va nutqiy faoliyatning o‘zaro aloqadorligiga taalluqli masalalarni tushuna oladigan bo‘ladi.

“Chet til o‘qitish” atamasi (termini), avval qayd etilganidek, chet tilda nutqni o‘rgatish ma‘nosini bildiradi. Til deganda, muayyan jamoa ongida o‘rin olgan kod (belgi)lar vositalari va ularning qo‘llanish qoidalari yig‘indisi tushuniladi. Tilning asosiy vazifasi kishilik jamiyatida aloqa vositasi bo‘lib, u belgilar sistemasidan tarkib topadi. Til tafakkurni rivojlantiruvchi, avloddan avlodga o‘tadigan madaniy-tarixiy merosni yetkazish vositasidir. Til bo‘lmasa, nutqiy aloqa bo‘lmaydi, muloqot bo‘lmasa, jamiyat ham, binobarin, odam ham bo‘lmasligi aniq. Nutq - tilning bevosita voqeligidir.

Til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Til, sodda qilib aytganda, birliklar va ularning aloqasi sistemasidir, nutq esa og‘zaki va yozma matndir. Tilni faqat

nutq orqali o‘rganish mumkin. Tilda harf/tovushdan tortib, to morfema, so‘z, so‘z birikmalari, gap va matngacha bo‘lgan lingvistik belgilar, nutqda esa ushbu belgilarni qo‘llash tufayli axborot yetkazish imkoniyati bordir. Nutq doimo yo mahsulot, yo jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Matn lingvistikasi atalmish tilshunoslikning sohasi nutq birligi sifatida gapni emas, balki matn (makro va mikro matn)ni tan oladi.

Agar metodikaning sotsiolingvistik sohasiga oid bilimlar o‘ituvchiga ingliz tili materialini metodik tayyorlashga yordam bersa, psixolingvistika o‘quvchilarning nutqiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun qulay vaziyatlar yaratishning konseptual asoslarini egallashga yordam beradi. Dastur talablaridan kelib chiqib egallanishi zarur bo‘ladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarni aniqlashtirishda o‘quvchilarning ingliz tilidagi nutqiy faoliyatlari rivojlantiriladi.

Ingliz tili o‘qitish metodikasi psixologiya bilan ikki taraflama – nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog‘laydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da va nutqning sodir bo‘lishi hamda uning idrok etilishi psixolingvistikada ilmiy tadqiq etiladi. Barcha tillarda nutq til materiali va nutq mexanizmlari vositasida yuzaga keladi. Nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayondir. Miyaning analiz-sintez qila olishi zamirida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi faoliyat ko‘rsatadi. Birinchi signal sistemasi eshituv, ko‘ruv, hid va ta‘m bilish va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon beradi. Ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqelikni umumlashtirish asosida ish ko‘radi. Birinchi signal sistemasi hayvonot dunyosiga ham taalluqli. Ikkinchi signal sistemasi esa birinchi signallar signali bo‘lib, so‘z bilan ifodalanadi. Inson, hayvondan farqli o‘laroq, nutqni idrok etganda, uning mazmuniga e‘tibor qaratadi.

Nutqning tovush va harfiy jihatlari uning tashqi (moddiy) tomoni deyiladi. Ichki tomoni esa nutqharakat, eshitish, ko‘ruv va qo‘lharakat timsollarida ifodalanadi. Har ikkalasi nutqiy dinamik steriotipni tashkil etadi. Steriotipning ishlashi til vositalari sifatida nutq mexanizmini hosil qiladi. Ona tilida belgilar steriotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur hamda nutqning shakillanish chog‘ida

beixtiyor hosil bo‘ladi va ong ishtirokisiz (aniqrog‘i deyarli ong ishtirok etmagan holda) faoliyat ko‘rsatadi. Ingliz tilini o‘rganishda oldin o‘rganilgan tillar asosida o‘xshash elemantlar (tovush, so‘z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog‘lanishlari, yot elementlar esa – yangi bog‘lanishlar paydo etishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi.

Ingliz tili o‘qitishning dastlabki bosqichida avvalo tovush, so‘z va gaplar eshitiladi va nutqharakat timsollari vujudga keltiriladi, soniyan ko‘ruv va qo‘lharakat timsollari hosil qilinadi. Bu asnoda til birliklarining og‘zaki va yozma shakllari salbiy ta‘sirning oldini olish uchun zamon va makonda ajratib o‘zlashtirish va keyinroq ularni birikishiga erishiladi. Sezgi va idrok obyektiv voqelikning in‘ikosi shaklida analizatorlar orqali faoliyat ko‘rsatadi. (Analizatorlar va sezgilar mushtarak nomlar bilan ataladi.)

Ko‘ruv analizatori grafik (ko‘riladigan yozma) timsollar va mazmunan bog‘lanishlarni sintezlashtiradi, ya‘ni o‘qish uchun tegishli zaruriy psixik vositadir. Qo‘lharakat analizatori grafik (yozma) timsollar bilan mazmunan bog‘lashda ishtirok etadi. Ma‘lumki, odamlar gapirish xususiyati va o‘ng qo‘lning ko‘proq ishlashi bilan ajralib turadi. Yer sharining 30% aholisi chap qo‘l bilan yozadi.

Eshitish analizatorlarini mash qildirishning ingliz tili o‘rganishda ahamiyati katta, chunki u nutq oqimidagi fonemalar va ritm-melodiya (ohang) hodisalarini farqlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Eshitish analizatorlari nutqharakat analizatori bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Artikulatsiya bilan eshitish o‘zaro bog‘liq, ikkala analizatorlar bir-birining ishini nazorat qilib turadi. Nutq faoliyati turlarini sodir etishda analizatorlar o‘zaro harakati quyidagi tartibda kuzatiladi: gapirishda yetakchi – nutqharakat, qo‘shimcha – eshitish, o‘qishda – ko‘ruv, qo‘shimcha – nutqharakat analizatori xizmat qiladi. Ingliz tili o‘rganishda psixik jarayonlar – diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular haqidagi ma‘lumotlar psixologiya kursida o‘rganiladi. Diqqat – ongning muayyan obyektga yo‘naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shakli.

Bugungi kunga kelib, psixolingvistikaning predmeti bir tomondan shaxsning nutqharakt tuzilmasi (sturkturasi) va vazifasi (funksiyasi) bilan o‘zaro munosabati

bo‘lsa, boshqa tomondan inson dunyosi timsoli sifatida til bilan munosabatini anglatadi. Shaxs va nutqharakatning o‘zaro munosabati zamonaviy psixolingvistikaning tadqiqot obyektiga aylangan. Metodikaning psixolingvistik aspektini bilish o‘qituvchiga ta‘lim birliklarini konkret dars yoki bosqich uchun ajratib olishga, o‘quvchilarning nutqharakatlarini rivojlantirishni tashkil qilishga yordam beradi. Darsni maqsadli yonaltirishga, ya’ni til o‘qitish – nutq faoliyatni rivojlantirish vositasi; nutqni rivojlantirish – nutqiy faoliyatni rivojlantirish usuli; ingliz tili darsida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini kompleks rivojlantirishga.

Nutq faoliyati til, aniqrog‘i uni amalga oshishining vositasi sifatidagi til kodi yordamida sodir etiladi. Kattalarning nutqiy faoliyati uchun til ongda o‘rin olgan kod(belgi)lar vositalari va ularning yig‘indisi tushuniladi va u tufayli muloqot qilish va idrok etish sodir etiladi. Til, sodda qilib aytganda, birliklar va ularning aloqasi sistemasidir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun nutqiy faoliyat vaositasi bo‘lmish til – oriyentirlar sistemasidir, obrazlar va ramzlar sistemasidir va bola doimiy ravishda ularni timsollar sifatida talqin qilib boradi. Til bolada birliklar va ularning aloqasi sistemasi sifatida 5-6 yoshdan shakillana boshlaydi va shu davrda bola sodda til qoidalarini, “tovush”, “harf”, “so‘z” kabi so‘zlarning ma‘nolarini tushuna boshlaydi, “Quyidagi so‘zlar ishtirokida gap tuz…” kabi topshiriqlarni bajara oladi.

Ingliz tili o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy faoliyati til, nutq, kommunikativ va boshqa materiallar ko‘rinishida taqdim etiladigan ingliz tili vositasida amalga oshiriladi. Til materialiga fonetika, leksika, grammatika, grafika va orfografika birliklari taalluqli.

Masalan, faqat talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadiga yo‘naltirilgan 45 minutli darsni tasavvur qilamiz. Odatda, deyarli barcha o‘qituvchilar buni maqsadga muvofiq emas va samarasiz, deb hisoblaydilar. An’anaviy yondashuv nuqtayi nazaridan shunday bo‘lishi mumkin. Lekin psixolingvistik tomondan qaralganda bu nafaqat mumkin, balki zarurdir. Til nutqiy faoliyatni rivojlantirish vositasi bo‘lar ekan, talaffuz ko‘nikmalarining shakllanish jarayoniga tilni vosita sifatida o‘qitish deb tushunish lozim. Agar darsning maqsadi

talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo‘lsa, demak faqat fonetikaga oid topshiriqlar va mashqlardan foydalaniladi.

Darsda leksik yoki grammatik, dialog nutq yoki monolog nutq, yoki nutq faoliyatining boshqa turlaridan ish bajarilishi mumkin. Lekin bularning hammasi maqsadga, yani talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishning vositasiga kiradi. Demak, belgilangan maqsadga erishilishida maqbul topiladigan turli usullar, vositalar, ish shakillaridan foydalanilishi mumkin. Lekin baholashda faqat talaffuz ko‘nikmalari e‘tiborga olinadi. Darsdagi leksika yoki grammatikaga oid boshqa ko‘nikmalar baholanmaydi.

Shu tariqa talaffuz ko‘nikmalari o‘quvchilarga tanish bo‘lgan aniq parametrlar va mezonlar asosida baholanadi. Bunday yondashuvda baholash obyektiv hisoblanadi va bu o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, ularni yanada yuqoriroq natija ko‘rsatkichlariga erishishga rag‘batlantiradi.

Til nutqiy faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida uning sodir bo‘lish shart-sharoitlariga bog‘liq. Masalan, o‘quvchilarning ingliz tilidagi talaffuzlari, avvalo, o‘qituvchining talaffuzi sifatiga bog‘liq.

Tilni nutq faoilyatini rivojlantirish vositasi sifatida o‘qitish tilni turli aspektlarini o‘qitish sifatida ko‘rib chiqiladi.

Til nutqiy faoliyatni rivojlantirish vositasi nutq esa usulidir. Til – ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Ya‘ni o‘qituvchi til kodi sifatidagi ingliz tili materialini (so‘zlar, grammatika qurilmalar, iboralar, matnlar) hammaga birday o‘rgatadi. Lekin o‘rganish har bir o‘quvchida turlicha sodir bo‘ladi. Bu har bir o‘quvchining individual xususiyati, idrok etish, axborotni talqin etish va qabul qilishdagi xos usuli, fikrni shakllantirish va ifodalash uslubiga bog‘liq. Nutq – nutqiy faoliyatni rivojlantirish usulidir – fikrni shakllantirish va ifodalsh usulidir (I.A.Zimnaya).

Maktabgacha yoshda, ayniqsa ikki yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan davrda, bolalarda ona tilidagi nutq va fikrlash jarayonlari o‘ta tez rivojlanadi, o‘z navbatida mexanik xotira o‘rnini so‘z mantiq xotirasi, taqqoslash, qiyoslash, analogiya, tasniflash, umumlashtirish egallaydi. Agar shu davrda ingliz tili taqlid qilish va

yod olish asosida o‘qitilsa bu mexanik xotirani rivojlantiradi va oqibat natijada ona tilida nutq rivojlanishini to‘xtab qolishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida nutq va tafakkur rivojlanishini, fikr shakllantirish va ifodalashni ham tormozlanib qolishiga olib keladi. O‘quvchilarning ingliz tilidagi nutqlarini rivojlantirishda fikr ifodalashning ingliz tildagi, ya’ni ona tilida fikr ifodalash usuli bilan qiyoslanadigan muqobil usul shakllantirilishi lozim. Bunda tildagi alohida birliklar emas, balki shu birliklarni o‘z ichiga olgan yaxlit modellar yoki qurilma (konstruksiya)lar taqqoslanadi. Fikr ifodalash usullarini egallash orqali o‘quvchi ona tilini bilishda paydo bo‘ladigan gaplarni ifodalay boshlaydi: masalan, “Qaysi tillarda gaplasha olasiz?” ni “What languages can you speak?” tarzida ifodalaydi. Ya‘ni, “nima”ni ifodalovchi “what” so‘zi bu vaziyatda “qaysi” ma‘nosini ifodalashi mumkinligini biladi va tushunadi. Masalan ingliz tilidagi “It’s time to get up” (5 ta so‘z) ifodasi, nemis tilida “Es ist Zeit aufzustehen” (4 ta so‘z), o‘zbek tilida “Turish vaqti bo‘ldi” (3 ta so‘z), rus tilida “Пора вставать” (2 ta so‘z) usulida shakllantiriladi.

O‘zbek tilida umumiy so‘roq gap tuzishda gap tarkibidagi so‘ngi so‘zga *–mi* suffiksi qo‘shiladi va intonatsiya o‘zgaradi, ingliz tilida esa nafaqat intonatsiya, balki so‘zlarning miqdori va joylashish tartibi ham o‘zgaradi:

O‘zbek tilida – *Bu sizning kitobingizmi? Siz ingliz tilida gaplashasizmi? Kirish mumkinmi?*

Ingliz tilida – *Is this your book? Do you speak English? May I come in?*

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, o‘quvchi nafaqat ona tilidagi “mazmun plani”ni balki ingliz tilidagi “ifoda plani”ni ham almashtira olishi, shuningdek ko‘makchi fe’ldan foydalana olishi ham lozim. Ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi va ingliz tilidagi fikr ifodalash usullari turlicha va bu o‘quvchilarning ingliz tilidagi nutqlarini rivojlantirishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O‘quvchining ingliz tilidagi nutqi ushbu tilda fikr ifodalash usulini o‘zlashtirilishi evaziga rivojlantiriladi. Bugungi kunda xorijiy tajribada keng qo‘llanilayotgan “Different ways to say something” mdeli asosida ingliz tilida fikr ifodalash usullari muvafaqqiyat bilan o‘qitilmoqda. Masalan, “Different ways to say thank you”

modeli asosida minnatdorchilik bildirishning quyidagi usullari o‘quvchilarga taqdim etiladi:

| Different Ways to Say Thank You |
| --- |
| *Thanks!* |
| *Thanks a lot!* |
| *I appreciate it.* |
| *Many thanks.* |
| *Thank you very much.* |
| *That's very kind of you.* |
| *I am so thankful for (something).* |
| *I am so grateful for (something).* |




Ushbu tadbir o‘quvchilarni ingliz tilida fikr ifodalashning turli usullari bilan tanishtiradi va ularga ingliz tili ifoda planidagi so‘zlarning joylashish tartibi bilan tanishtirib boradi. Bu esa o‘z navbatida tillararo interferensiyaning oldini olish imkonini beradi.

### *O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Psixolingvistikaning tadqiqot obyektini aniqlang.
2. Ingliz tili o‘rgatish metodikasida til va nutq tushunchalari qanday farqlanadi?
3. Nutqning tashqi va ichki tomonlarini aniqlashtiring.
4. Ingliz tili o‘rgatishda qanday psixik jarayonlarni hisobga olinadi?
5. Ongning muayyan obyektga yo‘naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shakli qanday nomlanadi?
6. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun nutqiy faoliyat vaositasi nima va u qanday talqin etiladi?
7. O‘quvchilarning ingliz tilidagi nutqini rivojlantirishda qiyinchiliklarning oldini olish usullarini aniqlang.

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 2001. – 228 с.
2. Синельников А. П. Психология обучения иностранным языкам. – Х.: Основа, 2009. – 128 с.
3. Dorney Z. The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition. – NJ.: Taylor & Francis e-Library, 2008. – 270 p.
4. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave &Macmillan, 2011. – 308 p.

## 3.12. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning yoshga oid hususiyatlari

**Kalit so‘zlar:** *bilish jarayonlari, tafakkur, diqqat, qisqa (uzoq) muddatli xotira, egosentrik nutq, ko‘rgazmalilik, analizator, turg‘un birikma, muloqot modellari*

XXI asr – intellektual avlod asrining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga xos bo‘lgan xarakterli jihatlari ko‘p. Bugungi davr bolalari qobiliyat, zehn-zakovat, tirishqoqlik borasida ustunlik qilishadi. Ya’ni bolalar juda erta yoshdan intellektual imkoniyatlarini to‘liq ishga solishga intilishadi va o‘zlariga nisbatan kuchli e’tibor talab qilishadi, atrofdagi olamni tezroq anglashga urinishadi. Kichik maktab yoshidagi bugungi davr(indigo) bolalari o‘zlarining giperfaolligi va o‘ta ta’sirchanliklari bilan o‘tgan asrdagi tengdoshlaridan farq qilishadi. Bunday giperfaollik natijasida bolalar kinestetik, tez toliqadigan va diqqatni jamlab, ma’lum nuqtada uzoq saqlab tura olmaydigan bo‘lib qolishgan.

Bugungi davr bolalari tug‘ma o‘tkir zehn sohiblari bo‘lib, ular axborot olishga juda o‘ch. Agarda ularning axborot qabul qilishga kuchli ehtiyojlari vaqtida qondirilmasa, ular injiq va jahldor bo‘lib qolishadi. Axborotga o‘chlik televizor va kompyuter qarshisida ko‘p o‘tirilishi natijasida shakllangan. Ayniqsa, reklamalar

dinamik va zich axborot taqdim etish xususiyati bilan bolalar e'tiborini ko'p tortadi.

Bugungi davr bolalarida uzoq muddatli xotira qisqa muddatli xotiraga nisbatan mustaxkamroq bo'ladi. Bunday layoqat bolalarga kompyuter texnologiyalari asridagi yuqori axborot tezligi oqimida ortda qolib ketmasliklari va katta miqdordagi axborotni operativ qabul qilib uni tez fursatda qayta ishlashlari uchun inom etilgan.

Zamonaviy metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nimani qila olmasliklariga emas, balki nima qila olishlari mumkinligiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilini o'rganishdagi asosiy ustunligi ular mazkur predmetni o'rganishda ikkilanmaydilar, ya'ni ularda jur'at yuqori bo'lib, mavjud ijtimoiy nutq vaziyatlarida obro'sizlanib qolishdan cho'chishmaydi. Ular ingliz tilini muvaffaqiyatli o'rganish uchun yaxshi shakllangan instinktlar, til tajribalari va o'zlariga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Masalan, 1-2 sinf o'quvchilari:

– til qonuniyatlarini bilmasalar-da, undan foydalana olishadigan;

– xato qilishdan cho'chimaydigan va ular ustida ishlashga tayyor;

– ona tilidagi intonatsiya turlaridan to'g'ri foydalana oladigan;

– imo-ishoralar, yuz ifodalari va qo'l harakatlarni to'g'ri talqin qilish ko'nikmasi shakllangan;

– so'z ma'nosini to'liq tushunmasalar-da, u kasb etadigan mazmunni yaxshi fahmlab oladigan;

– chegaralangan miqdordagi leksik zaxiradan kreativ (ijodiy) foydalana oladigan, tashabbusli nutq hosil qila oladigan, suhbatlashishni yaxshi ko'radigan;

– serg'ayrat, harakatchan, ishonuvchan, tasavvuri boy, ta'sirchan, maqtovsuyar, quvnoq va har bir mashg'ulotdan zavq olish usullarini topa oladigan;

– o'zgalar nutqiga taqlid qiluvchan;

– diqqatni ma'lum nuqtada uzoq muddat ushlab tura olmaydigan, qisqa muddatli xotiraga ega, egosentrik nutqi yaxshi rivojlangan;

– ayni paytda o‘zlari bajarayotgan, bajargan yoki ko‘rgan va eshitgan narsalari haqida gapira oladigan;

– til materialini yaxlit o‘zlashtirishni afzal ko‘radigan bo‘lishadi.

1-2 sinf o‘quvchilarini 3-4 sinf o‘quvchilaridan farqlash mumkin. 3-4 sinf o‘quvchilari 1-2 sinf o‘quvchilariga nisbatan psixologik va fiziologik jihatdan yetukroq bo‘lishadi. 1-2 sinf o‘quvchilari ko‘proq yolg‘iz o‘ynashni yoqtirishadi va o‘z narsalarini boshqalar bilan baham ko‘rishni istashmaydi. 3-4 sinf o‘quvchilari esa jamoaviy o‘yinlarda faol ishtirok etishni yoqtirishadi va ularda egoizim susaya boshlaydi (jadvallarga qarang):

6-jadval.

**1-2 sinf o‘quvchilarining 3-4 sinf o‘quvchilaridan farqlanishi**

| I-II sinf o‘quvchilari | III-IV sinf o‘quvchilari |
|---|---|
| Xotiraga suyanishadi | Tahlilga suyanishadi |
| Gapirish va tinglab tushunishga diqqatliroq | O‘qish va yozishga diqqatliroq |
| Topshiriqning faqat bir aspektiga e’tibor qaratishadi | Topshiriqning turli aspektlariga e’tibor qaratishadi |
| O‘rganayotgan va rivojlanayotganlik-larini ko‘rsatib berish imkoniyatlari chegaralangan, o‘rgangan narsalarini amaliyotda qo‘llay olishmaydi | O‘rganayotgan va rivojlanayotganlik-larni namoyon etish ko‘nikmalari yaxshi rivojlangan, o‘rgangan narsalarini amalda qo‘llay olishadi |
| Do‘stona munosabatlar tasodifiy va mustahkam emas | Do‘stona munosabatlar o‘zaro ishonch, qo‘llab-quvvatlash va o‘xshash qiziqishlarga asoslanadi |
| Emotsiyani nazorat qila olishmaydi | Emotsiyani nazorat qila olishadi |
| Yuqori motivatsiya | Motivatsiyaning susaygan darajalari |
| O‘zi haqida ijobiy fikrlaydi, o‘rganishga optimistik yondashadi | O‘zi haqidagi atrofdagilarning fikri bilan qiziqadi, o‘zini tengqurlari bilan taqqoslaydi va pozitivlik susaya boshlaydi |
| Til haqida kam tushunchaga ega, ona tili kompetensiyasi yuqori emas | Til haqida ma’lum tushunchaga ega, ona tili kompetensiyasi rivojlanish bosqichida |

7-jadval.

**Tafakkur**

| I-II sinf o‘quvchilari | III-IV sinf o‘quvchilari |
|---|---|
| Rivojlanishning yaqqol operatsiyalar davrida bo‘lishadi. | Ob’yektning tashqi ko‘rinishi o‘zgarsa-da, uning xususiyati o‘zgarmasligini anglashadi, ya’ni «intellektual revolyusiya». |
| Uzunlik o‘lchov birliklarini o‘zlashtirishda qiynaladilar. Ular uzunlik o‘lchovining asosiy belgisi – uning uzunligini ajratishni bilmaydilar. | Ko‘p tushunchalarni, chunonchi, baland-past, uzoq-yaqin, kam-ko‘p va hokazolarni avvalgi voqelikdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni bevosita idrok qilish asosida o‘zlashtiradilar. |
| Kattalarning nutqini imo-ishora va harakatlariga tayanib tushunishadi. O‘zgalar nutqini tushunish ko‘ruv idroki zamirida vujudga keladi. | Buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanishadilar: kitob, sigir, avtomobil, varrak va hokazolar to‘g‘risida fikr yuritishda «kitob o‘qiladi», «sigir sog‘iladi», «mashina miniladi», «varrak uchiriladi» kabi hukmlar chiqaradilar. |

Tavsiyalar: Boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish amaliyotida *here and now* (ayni vaqtda sodir bo‘layotgan nutq vaziyatiga mos mashq) *miming and guessing* (meni tushun) va TPR mashqlari keng o‘rin olishi lozim.

8-jadval.

**Diqqat**

| I-II sinf o‘quvchilari | III-IV sinf o‘quvchilari |
|---|---|
| Ixtiyorsiz (ong ishtirok etmaydi), kuchsiz va beqaror, 30-35 daqiqa. | Ixtiyoriy (ong ishtirok etadi), ma’lum darajada barqarorlashgan, 40-45 daqiqa. |
| Diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va favqulodda vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi. | Maxsus mashqlar orqali diqqatni to‘plash ko‘nikmasi hosil qilingan bo‘ladi. |
| 2-3 minut mobaynida diqqat bilan tinglay oladi. | 4-5 minut mobaynida diqqat bilan tinglay oladi. |

Tavsiyalar: Ingliz tili o‘qitishning audiolingual metodida axborotni diqqat bilan tinglab, uni to‘liq yodda saqlab qolish zarurligi targ‘ib etilsa, kommunikativ yondashuvda til materiali jonli muloqotda foydalanish maqsadlarida o‘zlashtirilishi

lozim. Shu sababdan, o‘quvchi tinglash jarayonida diqqatni faqat zaruriy axborotga qaratishga, keraklisidan keraksizini farqlashga, ularni esda saqlab qolish usullari va kommunikativ maqsadda ulardan foydalanishga o‘rgatilishi lozim.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ingliz tili o‘rgatishda ko‘rgazmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbirlar, birinchidan, bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, materialni mantiqiy jihatdan o‘zlashtirishga, uni tahlil etish, mavhumlashtirish va umumlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Ko‘rgazmalilikning haddan ziyon oshib ketishi unga asoslangan dinamik stereotip paydo bo‘lish xavfini vujudga keltiradi. Ko‘rgazmalilikka berilib ketilishi natijasida o‘quvchi asosiy maqsaddan uzoqlashadi, ichki muhim belgilarga emas, tashqi belgilarga e’tibor berishga odatlanib qoladi.

Ma’lumki, axborotning xotirada mustahkam saqlanib qolinishi uni qabul qilishda ishtirok etadigan analizatorlarga ham bog‘liq. Masalan, tinglab qabul qilingan axborot, ko‘rib qabul qilingan axborotga nisbatan xotirada mustahkamroq saqlanadi. Chunki axborotni tinglash jarayonida o‘quvchi diqqatni jamlashga ko‘proq kuch sarflaydi. Ya’ni eshitish a’zolari faoliyati ko‘rish a’zolari faoliyatidan 16 barobar ko‘p asab tolalarining harakatlanishini talab etadi. Tinglab tushunish jarayonida toliqish koeffitsiyenti 176 foizga ortadi. Tinglab tushunishda ko‘p quvvat sarflanishi til materialini mustahkam va mukammal o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Ayrim holatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida «disleksiya», ya’ni *b, d* kabi harflarni, *sheep - ship, man - men* kabi o‘xshash so‘zlarni farqlay olmaslik yoki so‘z tarkibidagi o‘xshash harflar o‘rnini almashtirib o‘qish holatlari uchraydi. Ba’zi o‘quvchilar chap va o‘ngni, turli geometrik shakllarni ham farqlay olmaydilar. Bunday o‘quvchilar ona tilini o‘zlashtirishda ham qiyinchiliklarga duch kelishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bir turdagi mashg‘ulot bilan ishchanlik faoliyati 10 minutdan oshmaydi. O‘quvchilarda ishchanlik pasayayotganligi sezilgan dastlabki onlardayoq faoliyat turi o‘zgartirilishi, ya’ni harakatli o‘yinlarga o‘tilishi lozim (9-jadvalga qarang):

9-jadval.

**Xotira**

| I-II sinf o‘quvchilari | III-IV sinf o‘quvchilari |
|---|---|
| Mantiqiy xotiradan ko‘ra ko‘rsatmali-harakatli xotira ustun rivojlanadi. | So‘z mantiq xotirasi va ma’nosini tushunib eslab qolish salmog‘i ortib boradi. Xotirani ongli boshqarib, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlari faoliyatini ma’lum maqsadga muvofiqlashtira oladi. |
| Til materialining ichki bog‘lanishiga ahamiyat bermay, ma’nosiga tushunmay quruq eslab qoladilar. | Reproduksiya mexanizmi, ya’ni jumla va mazmunni o‘zgarishsiz qayta qo‘llash (reproduksiya) odati shakllangan bo‘ladi. |
| Mexanik xotira boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani, ma’lumotlarni aynan, o‘zgarishsiz eslab qolish imkoniyatini yaratadi. | «to‘g‘ri tushuntirib ber» degan talabni so‘zma-so‘z takrorlash deb biladilar. |
| Etarli miqdorda leksik zaxiraga ega emasligi, materialni ijodiy to‘ldirish, unga qo‘shimcha qilish imkoniyatini yo‘qqa chiqarib, so‘zma-so‘z takrorlashni osonlashtiradi. | Leksik zaxiraning ortishi natijasida til materialini ijodiy to‘ldirish ko‘nikmasi shakllanib boradi. |

Tavsiyalar: tadqiqotchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda leksik minimumni muloqot modellari, (yarim) tayyor jumla, turg‘un birikmalar hisobiga metodik tayyorlash tavsiya etishmoqda. Chunki ingliz tili nutqida tayyor jumlalar 25 foizni tashkil etadi va til sohiblari uchun ham jonli muloqotda tasodifiy til hodisalarini yaratishdan ko‘ra xotirada tayyor turgan rekurent (takrorlanadigan) til hodisalaridan foydalanishni afzal ko‘rishadi.

R.Ellis boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining *«I am sorry!», «Never mind!», «What’s up?», «How are you?»* kabi muloqot modellari (turg‘un iboralar) va *«set the table», «do the room», «make a mistake»* kabi so‘z birikmalarning boy repertuariga ega bo‘lishlari lozimligini tavsiya etadi. Bunday repertuar jonli muloqotda to‘xtalib qolish xavfini bartaraf etadi va grammatik kompetensiya

rivojlanishi uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Nutq namunalari o‘rganilayotgan chet tilning leksik, grammatik va talaffuz tomonlarini mujassamlashtiradi va uni idrok etish uchun tayyor hodisa hisoblanadi.

Ingliz tili ta’limidagi «Nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish» tamoyiliga binoan o‘quvchilarga taqdim etiladigan, ma’no ifodalovchi nutq namunasini, ya’ni gapni bo‘laklarga ajratmasdan, butunicha taqdim etilishini targ‘ib etadi. Lekin qisqa muddatli xotira 30 daqiqadan ortiq davom etmaydi va yettitadan ortiq birlikdan iborat axborotni qabul qila olmaydi. Shu sababdan, muloqot modellarni o‘rgatishni 3-4 sinfdan boshlash tavsiya etiladi.

Ingliz tili o‘rganishda xotirani mustahkamlashning «linkword» metodi ishlab chiqilgan. *Linkword* – atamasi ingliz tiliva ona tilidagi ma’nosi va talaffuzi o‘xshash so‘zlarni anglatadi. Bu metod ingliz tilini o‘rganishda fransuz yoki ispan tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilar uchun ko‘proq mos keladi. Bizning fikrimizcha, uni milliy maktablarga ham joriy qilish mumkin. Masalan *tomato, lemon, zebra, giraffe, sport, tennis, computer, doctor* kabi so‘zlarni o‘zbek o‘quvchilar oson eslab qolsalar, talaffuz jihatdan yaqin bo‘lgan *duck, dish, men* (o‘rdak, idish, men) kabi so‘zlar ham oson yod olinadi. Jonli muloqot jarayonida taqdim etilgan nutq namunasini tushunish va eslab qolish oson. Masalan, eshikni yoki sumkasini ochishga qiynalayotgan bolaga, «*Look, I’ll open the door for you*», deya ko‘mak berilganida, bola nutqni tushunadi va ushbu namunani yodda saqlaydi.

Sog‘lom bola 10-15 detsibel (eshitish birligi) tovushni payqay oladi. Masalan, barglar to‘kilayotganda 20, sekin ovozda so‘zlashilganda 20-30, o‘rtacha suhbat jarayonida 30-35, telefonga ulangan naushnik (quloqchin)da esa 120 detsibel tovush hosil bo‘ladi. 90 detsibeldan yuqori tovush eshitish, bolaning asab tizimlariga zararli.

Yuqoridagilar asosida quyidagi tavsiyalar shakllantirildi:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nimani qila olmasliklariga emas, balki nima qila olishlari mumkinligiga e’tibor qaratish zarur;

kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kattalarning nutqini imo-ishora va harakatlariga tayanib tushunishadi. O‘zgalar nutqini tushunish ko‘ruv idroki

zamirida vujudga keladi. Shu sababdan, boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish amaliyotida «meni tushun» (miming and guessing) va TRR mashqlari keng o‘rin olishi lozim;

ko‘rgazmalilikka berilib ketib, o‘quvchilarni asosiy maqsaddan uzoqlashtirib, ichki muhim belgilarga emas, tashqi belgilarga e’tibor berishga odatlantirib qo‘ymaslik lozim;

«Nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish», «Og‘zaki nutqning ilgarilashi», «Chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish», «Nutqiy yo‘nalganlik», «Yaxlit o‘rgatish» tamoyillariga binoan muloqot modellarini o‘rgatish kommunikativ kompetensiyaning muvaffaqiyatli egallanishida yuqori samara beradi. Shuningdek, o‘quvchi nutqining ingliz tilidagi nutqqa taxminiy yaqinlashtirishga erishish, uning xato qilib qo‘yishdan xavfsirashi, to‘g‘ri ayta olish/olmaslikdan xavotirlanishi kabi psixologik to‘siqlarni yengishi uchun katta yo‘l ochildi, erkin gapirish va bamaylixotir kommunikatsiya va interaksiyaga kirishish imkoniyati yaratildi.

Ingliz tili o‘qitish metodikasining didaktik tamoyiliga muvofiq mashg‘ulotlarda barcha nutq analizatorlarining to‘liq ishtiroki til materialini xotirada mustahkam qolishini ta’minlaydi.

### *O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Kichik maktab yoshidagi bugungi davr bolalariga berilgan ta’riflarni umumlashtiring.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganishda qanday ustunliklarga ega?

3. Ingliz tili o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qanday xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim?

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlarini ifodalaydigan tushunchalar talqinini bayon eting.

5. «Nutq namunasi asosida chet til o‘qitish», «Og‘zaki nutqning ilgarilashi», «Chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish», «Nutqiy yo‘nalganlik», «Yaxlit o‘rgatish» tamoyillarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashtiring.

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Dorney Z. The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition. – NJ.: Taylor & Francis e-Library, 2008. – 270 p.

2. Lightbown P.S., Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. – 234 p.

3. Ғозиев Э. Умумий психология: Психология мутахассислиги учун дарслик. – Т.: Университет, 2006. – 534 б.

4. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 240 p.

5. Wood D. How Children Think and Learn. – Oxford: Blackwell Publishers Limited, 1998. – 230 p.

## 3.13. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining psixologik asoslari

**Kalit so‘zlar:** *ijtimoiy interaktivizm, kognitiv konstruktivizm, Kritik davr gipotezasi, universal grammatika, sintaksis aspektlari, malakalarni o‘rganish modellari, Eng yaqin rivojlanish zonasi*

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasining psixologik asoslari J.Piajening «kognitiv konstruktivizm», L.S.Vigotskiyning «ijtimoiy konstruktivizm», A.N.Xomskiyning «Kritik davr gipotezasi», «Universal grammatika» va «Sintaksis aspektlari» nazariyalari hamda J.Brunerning «Scaffolding» (Havoza), K.Jonson va V.Litlvudlarning «Malakalarni o‘rganish modellari» bilan chambarchas bog‘liq.

Piaje ham, Vigotskiy ham ingliz tili o‘qitish sohasida emas, balki bolalarda nutq va tafakkur rivojlanish jarayonlari ustida izlanishlar olib borgan. Lekin Piajening «genetik epistimologiya», ya’ni kognitiv rivojlanish va epistimologik

qarashlari va Vigotskiyning «ijtimoiy konstruktivizm» nazariyalari boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyalar haqida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

**A.N.Xomskiyning** (Avram Noam Chomsky) – Critical (Sensitive) Period Hypothesis - Kritik (senzitiv) davr gipotezasiga asosan bolalarning miyasi til o‘rganish uchun maqbul holatda, ya’ni elastik holatda, oddiyroq tushuntiriladigan bo‘lsa, ona tili sistemasiga to‘liq moslashmagan va qotmagan bo‘lganligi sababli ularni kattalarga nisbatan yaxshiroq ingliz tili o‘rganuvchi ekanligiga ishonish mumkin. Kattalarda esa bunday bo‘lmaydi. Kritik davr gipotezasi shunday tushuniladi[49].

Xomskiyning «Kritik davr» gipotezasi qizg‘in muhokama etilayotgan bir paytda uning «Universal Grammatika» sarlavhasi ostidagi innatist (innate - tug‘ma) nazariyani targ‘ib etuvchi ilmiy maqolalari tadqiqotchilar tomonidan eng ko‘p iqtibos keltiriladigan asar bo‘lib qoldi. Xomskiy zaruriy miqdorda va tarkibda oziqlantirilgan barcha bolalar bir yoshdan yurishni o‘rganganlari kabi tilni ham ayni yoshda va ayni usulda o‘rganishadi, degan mazmundagi innatist nazariyani yanada rivojlantirdi. U til o‘zlashtirish jarayonlari haqidagi turli ma’lumotlarni tadqiq etib, grammatikani bolalar kattalarga nisbatan oson o‘zlashtirayotganlik-lariga guvoh bo‘ladi.

Bolalarning til elementlaridan kreativ foydalanib, grammatik tartibli gaplar tuzayotganliklarini kuzatish natijasida Xomskiy dunyodagi barcha tillar umumiy grammatikaga ega, ya’ni har qanday tilda gap ot bo‘laklari va fe’l bo‘laklaridan tashkil topadi[50], degan xulosaga keladi.

Xomskiyning ushbu xulosasi keyinchalik og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash ehtimolligi yuqori bo‘lgan so‘z birikmalar (collocations: key hole, air bag, coffee shop) yoki og‘zaki va yozma nutqda yaxlit qo‘llanilinadigan muloqot modellari (formulaic chunks, prefabricated (ready to use) sentences, fixed (semifixed) expressions)ning boy repertuarini hosil qilish orqali boshlang‘ich sinf

---

[49] Birdsong D., Bialystok E., Hakuta K. Second Language Acquisition and the Critical Period Hypothesis. – L.: Lawrence Erlbaum associates publishers, 1999. - p. 161-181.
[50] Gordon T. Teaching young children a second language. – Greenwood Publishing Group, 2007. – p. 46-47.

o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning pragmatik tamoyili (nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish) rivojlantirildi.

Dastlab ingliz tili maktablarda N.Xomskiy tomonidan dengizchilar va savdogarlarning muloqot tili Pindgin (language made of a small number of nouns, verbs and adjectives borrowed from different languages spoken in the area of contact) ta’sirida yaratilgan “Universal Grammar” nazariyasiga asoslanib o‘rgatildi. Ya’ni o‘quvchilar xuddi ona tilida nutq rivojlanish bosqichlaridagi kabi otlarga mos artikl va ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shmasdan, fe’llarni shaxs va zamonda tuslamasdan, ma’noni erkin ifodalashga o‘rgatiladi, qoidalar o‘quvchi talabi bilan imkon qadar sodda tilda tushuntiriladi. Mazkur nazariyaga asosan chet tilning tabiiy izchillikda o‘zlashtirilishi lozimligi targ‘ib etiladi va ingliz tili o’qitishining amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari (content goal) qatorida o‘quvchilarning til o‘rganishga munosabati (qiziqish, xoxish-istak va jurat)dan kelib chiqadigan (attitude goal) maqsadlarini ham e’tiborga olish tavsiya etiladi[51].

**Mediatsiya nazariyasi** (Theory of mediation)dan ma’lumki bolaning o‘rganishida kattalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariya muallifi (Feuerstein)ning fikricha, bolaning o‘rganishini uning hayotidagi muxim shaxslar, ya’ni mediatorlar (mediators or mediating adults) tashkil etishadi. Bu shaxslar, ya’ni dastlab ota-onalar keyinchalik tarbiyachi va o‘qituvchilar bola uchun eng maqbul stimullarni tanlaydilar va uyushtiradilar, stimullarni bolaning o‘rganishini ta’minlashga muvofiqlashtirib shakllantiradilar va taqdim etadilar. Shuningdek, ular bolaga taqdim etilgan stimullarga mos javob reaksiyalarini tanlashni o‘rgatadilar, qanday reaksiya to‘g‘ri va qaysinisi noto‘g‘ri ekanligini tushuntiradilar.

Ushbu nazariyadan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, kattalar bilan bolalarning hamkorlikdagi faoliyatida yo‘l-yo‘riq (insrtuction) mohiyatini tushunish o‘ziga xos yangi munosabatlar o‘rnatishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun 2 yoshli bolalarda kattalar nutqini tushunishning o‘sishi predmetlar bilan harakatni

[51] Halliwell S. Teaching English in the Primary classroom. – NY.: Longman, 2003. – P. 10-11.

amalga oshirish usulini egallashda alohida rol o‘ynaydi va bola mediatsiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Mediatsiya jarayonida bolada nutq rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan yana biri jonli nutq vaziyatlaridagi kattalar va bolalar o‘rtasidagi interaksiyada foydalaniladigan maxsus soddalashtirilgan tildir.

Garvard universiteti psixologi Katrin Snou (Catherine Snow) bolar va kattalar o‘rtasidagi interaksiyani tadqiq etib onalar farzandlari bilan interaksiyada maxsus tildan (motherese) foydalanisharini aniqlagan. Ushbu til gaplarni sodda tuzilganligi, so‘zni aniq talaffuz etilishi, gapdagi o‘zak tushunchani ifodalovchi so‘zlarga urg‘u berib va ayrim hollarda ularni takrorlab aytilishi, tabassum, jilmayish, miyig‘ida kulish, lab qisish va cho‘chaytirish, til chiqarish, qosh uchirish va suzish, yelka qisish, boshni sarak-sarak qilish, ko‘rsatkich barmoqni lablar ustiga qo‘yish kabi daktilogik (barmoq nutqi) va boshqa turli psixologik holatlarni, ayniqsa hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatlarga boyligi bilan farqlanadi. Shuningdek, nutq rivojlanish jarayonida barcha analizatorlar faol ishtirok etib axborotni qisqa muddali xotiradan uzoq muddatli xotiraga o‘tishi ta’minlanadi.

Ingliz tili o‘qitishning suniy sinfxona sharoitida taqdim etilgan stimullarga monand reaksiyalar qaytarilishini ta’minlovchi mediatsiya jarayonini tashkil etish, analizatorlarni (mas, hid va tam bilish analizatorlarini) to‘liq ishga solish imkoniyati chegaralangan.

**J.Piajening** (*Jean William Fritz Piaget*) Xalqaro Ta’lim Byurosi direktori sifatida “only education is capable of saving our societies from possible collapse, whether violent, or gradual”, deya Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidar,” degan fikrini qo‘llab quvvatlagandek. Ayniqsa muallifning 1970 va 1980 yillardagi asarlari Yevropa va Amerikada ta’lim tizimining ham nazariy ham amaliy isloh etilishiga turtki bo‘ldi. U ta’limga shunday ta’rif bergan:

Education, for most people, means trying to lead the child to resemble the typical adult of his society ... but for me and no one else, education means making creators... You have to make inventors, innovators — not conformists[52].

– Ta'lim ko'pchilik uchun bolani o'z jamiyatining tipik kattalariga o'xshashi uchun yetaklashga urinishni anglatsa, men uchun va boshqa hech kim uchun emas, ta'lim yaratuvchilar tayyorlashni anglatadi... Siz kashfiyotchilarni, innovatorlarni tayyorlashingiz lozim, eskilik tarafdorlarini emas.

Piajening kognitiv konstruktivizim nazariyasi boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish sohasida turlicha talqin etiladi. Masalan, L.Kameronning talqinicha, bolalarning o'z muhitidagi buyumlar bilan muloqotda bo'lish natijasida egallagan tajribalarini muvofiqlashtirib borishlari e'tiborga olinadigan bo'lsa, muhit bolaga harakatlanish imkoniyatini yaratib rivojlanish uchun sharoit yaratadi[53].

N.Spada va P.Laytbounlar esa tilni bolalikda shakllantiriladigan bir necha ramzlar tizilmasidir, – deb ta'kidlaydilar. Tildan bolalar atrofdagi buyumlar bilan muloqot natijasida o'zlashtirgan bilimlarini namoyish etish uchun foydalanishlari mumkin[54], – deya talqin etishadi. M.Villiams va R.L.Bednlarning fikricha, individlar tug'ilganlaridan boshlab xususiy ma'nolarni, ya'ni egallagan tajribalariga tayanib o'z tushunchalarini shakllantirishga faol jalb etiladilar[55].

Bizningcha, J.Piaje bola atrofdagi buyumlar bilan muloqot natijasida o'z nutqi va tafakkurini rivojlantiradi, degan fikrni ilgari suradi. Piaje nazariyasidan ma'lumki, bola tilni atrofidagi buyumlar bilan jismoniy harakatlar uyg'unligida, ya'ni bosh miya o'ng yarim sharining faolligida o'zlashtiradi. Piaje psixologiyasida jismoniy harakatlar natijasidagi rivojlanishning ikki yo'nalishi aniqlanadi: assimilyatsiya (o'zlashish) va akkomodatsiya (moslashish). Buni tushunish uchun quyidagi vaziyatlarni taxlil qilamiz.

Bola kosadagi taomni qoshiq yordamida og'ziga solish muammosiga duch keladi. Qoshiq sababli duch kelingan muammoni hal etishda bola ovqatlanish

---

[52]Elektron resurs: https://en.wikipedia.org/wiki/Jean_Piaget. Murojaat sanasi: 30.07.2019 y.
[53] Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – p. 4-5.
[54] Lightbown P.S., Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. – p. 20.
[55] Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – p. 21.

uchun mushaklarini to‘g‘ri yo‘nalishda harakatlantirishni nazorat qilishni o‘rganadi. Bunday harakat natijasida egallangan bilim taqlidan ortirilgan yoki tug‘ma emas, balki bola tomonidan faol shakllantirilgandir. Aniq buyumlar bilan tashqi muhitda to‘qnashilgan muammoni hal etish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar bola miyasini rivojlantira boshlaydi, ya’ni harakatlar miyada umumlashtiriladi va fikrlash sodir bo‘ladi. Piaje e’tiborni buyumlar bilan harakatlanishga qaratib tafakkurni rivojlanishida asosan harakatlar rol o‘ynaydi, degan fikrga to‘xtaladi.

Bolaning qoshiq bilan harakatlanishda duch kelgan muammosiga qaytamiz va tasavvur qilamizki, bola endi sanchqi bilan tanishtirildi. Bu vaziyatdagi bolaning sanchqidan qoshiq sifatida foydalanishga urinish holatini muallif “assimilation”, ya’ni ovqatlanish uchun yangi anjom bolaning orttirilgan tajriba yoki bilimga asoslanishi, deb izohlaydi. Bola sanchqining o‘ziga xos shaklidan ovqatlanish uchun kosadagi taomni sanchib olish mumkinligini anglay boshlaydi va shu tariqa “accommodation”, ya’ni bolaning harakatlari va bilimi yangi imkoniyatga moslashadi.

Assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari fikrlash jarayoniga aylanadi. Akkomadatsiya asosida ingliz tili grammatikasini o‘rgatishning “qayta strukturalash” (restructuring) g‘oyasi va ushbu g‘oya negizida ingliz tili o‘qitishning “information-processing approach” yondashuvi shakllantirilgan[56]. Piajening fikricha, bola tafakkuri bilim va intellektual malakalar sifatida asta-sekin mantiqiy fikrlash bosqichi sari takomillashib boradi. Piaje bola hayotidagi eng muhim ijtimoiy xodisani, ya’ni bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotini e’tibordan chetda qoldirib, asosiy urg‘uni bolaga taalluqli bo‘lgan ob’yektlarga beradi. Piajening nazariyasi bola - faol o‘rganuvchi va fikrlovchi, o‘z bilimlarini ob’yektlar bilan ishlash jarayonida shakllantiruvchidir, degan g‘oyani ilgari suradi.

Agar Piajening bola atrofdagi ob’yektlar bilan tajribalar o‘tkazish orqali o‘rganadi, degan fikriga qo‘shiladigan bo‘lsak, bolaning harakatlanishi uchun

[56] Barry McLaughlin Language Aptitude Invitational Symposium Program Proceedings. – W. Arlington, September 25-27, 09.1994. 18-p.

imkoniyatlar taqdim etiladigan sinf mashg‘ulotlariga ahamiyat qaratishimiz lozim bo‘ladi. Ya’ni sinfxonada o‘rganuvchi uchun o‘rganish imkoniyatlari yaratiladigan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi kerak. Piaje nazariyasi kashf qilib o‘rganishni (discovery learning), bolaning o‘zlashtirishga tayyorligini (senzitivligi), individual jihatlarni inobatga olinishini, tashabbusli o‘rganishni targ‘ib qiladi. Sinfdagi turli mashg‘ulotlar kichik yoshdagi o‘rganuvchilarning kashf qilishlari uchun zarur sharoit yaratish maqsadida shakllantiriladi va o‘quvchilar ulardan o‘zlariga yoqqanini tanlaydilar. Shunday qilib o‘quvchi band va ishtiyoqmand kashfiyotchiga aylanadi, o‘z bilganicha gipotezalar yaratadi va ularni tajribada sinab ko‘radi. Agar o‘quvchi o‘rganishga tayyor bo‘lmasa va hech qanday qiziqish ko‘rsatmasa, o‘qituvchi uni majburlamasligi uqtiriladi.

J.Asherning «Total Physical Responce» metodi aynan Piaje nazariyasiga asoslanib yaratilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki Asherning fikricha, miyaning o‘ng yarim shari zaruriy darajada faollashganidan so‘ng chap yarim sharda nutq hosil qilish operatsiyalari joriy bo‘ladi. O‘ng yarim shar birinchi signal sistemasi eshituv, ko‘ruv, hid, ta’m va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib bilishga imkon beradi.

Mexanik harakatlar o‘ng yarim sharni faollashtirgan taqdirda chap yarim shar ko‘ruv va eshituv analizatorlarini faollashtiradi va til belgilari orqali voqelikni umumlashtirish boshlanadi. O‘ng yarim shar faolligida tashqi dunyo his etib o‘rganilsa, chap yarim shar til mavhumotlari sirini kashf qilishga kirishadi. O‘quvchining predmetlar bilan har xil harakatlarni bajarishdagi epchilligi, oriyentrlash faoliyatining mukammallashuvi va mutaxassisning o‘quvchi psixik dunyosiga muntazam va maqsadga muvofiq ta’sir etishi bola bosh miya katta yarim sharlari po‘stining faoliyatini takomillashtiradi. Keyinchalik ham Piajening kognitiv-genetik nazariyasi qator olimlar tomonidan (L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm) targ‘ib etildi.

Piaje bola hayotidagi eng muhim ijtimoiy hodisani, ya’ni bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotini e’tibordan chetda qoldirib, asosiy urg‘uni bolaga taalluqli bo‘lgan va uni o‘rab turgan ob’yektlarga beradi.

**L.S.Vigotski** (Lev Semyonovich Vigotskiy) Piaje nazariyasini yanada takomillashtirib bolaning atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti tafakkurning rivojlanishida muhim rol o‘ynashini isbotlab berdi. Uning fikricha, tafakkur o‘zlashtirilgan nutqdir, nutq esa ijtimoiy munosabatlarda rivojlanadi. Piaje bola bilan muhit o‘rtasidagi aloqaga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Vigotskiy konstruktivizimning boshqa elementiga, ya’ni bola bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi muloqotga urg‘u beradi.

Kattalar ko‘magi bilan bola o‘zi mustaqil bajara oladigan narsalaridan ko‘prog‘iga qodir bo‘ladi. Ushbu fikrni jonlantirish uchun, yana bolaning qoshiq bilan manipulyasiya qilishi vaziyatiga qaytsak. Qoshiqdan foydalanishni o‘rganishning ma’lum nuqtasida bola qoshiqni kosaga solishi, lekin kosadagi taomni qoshiqqa olib og‘ziga to‘g‘ri olib kelishni uddalay olmaydi. Shu payt atrofdagilar yordamga kelishadi, bolaning qo‘llaridan ushlab kosadagi taomdan qoshiqqa olishadi va uni og‘izga yaqin olib kelishadi. Shu tariqa bola kattalarning yordamida o‘zi mustaqil bajara olmaydigan ishni ko‘p vaqt sarflamay va atrofni ifloslamay oson bajarishga o‘rganadi.

Bundan tashqari, kattalarning “qoshiqni o‘ng qo‘l bilan bunday ushlaymiz, keyin uni kosaga solamiz, qoshiqni mana bunday qilib og‘zimizga olib kelamiz” tarzidagi ko‘rsatmalari bolaning nutqni idrok etishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolani predmetlarning shakli, rangi vazni bilan tanishtirishda kattalar amalga oshirish mo‘ljallangan harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatlarni qay yo‘sinda bajarishni o‘rgatadilar. Bolani «Olib kel», «Joyiga qo‘y», «Og‘zingni art», «Ushlab tur» kabi so‘z birik «qo‘linga ol», «Oldin o‘ng qo‘ling bilan tut», «Qoshiqni bunday ushlab og‘zinga olib bor» deb) ko‘rsatiladi. Kattalarning bunday hamkorligi va qo‘llab quvvatlashi bolaning bilimlarni egallashiga sabab bo‘ladi. Bola o‘zi mustaqil bajara olmaydigan harakatlarni maxsus shug‘ullanish natijasida mustaqil bajara oladigan bo‘ladi, ya’ni bolaning qoshiqni kosaga solishi bu «*aktual rivojlanish zonasi*» bo‘lsa qoshiqqa ovqatni to‘ldirib olishi uning «*Eng yaqin rivojlanish zonasi* » M.G. Davletshin tarjimasi) hisoblanadi.

Vigotskiyning pedagogika faniga kiritgan, '*Eng yaqin rivojlanish zonasi'* (рус.: Зона ближайшего развития, eng.: Zone of proximal development) ta'lim orqali psixologik jarayonlarning rivojlanishini jadallashtirish konsepsiyasi pedagogikaning turil sohalari qatorida ingliz tili ta'limiga ham keng tatbiq etilib qizg'in tadqiqot obektiga aylangan. Ushbu tushunchaga berilgan tariflarlardan namunalar keltiramiz:

– большая или меньшая возможность перехода ребёнка от того, что он умеет делать самостоятельно, к тому, что он умеет делать в сотрудничестве, и оказывается самым чувствительным симптомом, характеризующим динамику развития и успешность умственной деятельности ребенка[57].

– содержание тех задач, которые ребенок еще не может решить самостоятельно, но уже решает с помощью взрослого (в совместной деятельности): то, что первоначально делается ребенком под руководством взрослых, становится затем его собственным достоянием (*способностями, навыками, умениями*). Их наличие свидетельствует о ведущей роли взрослого в психическом развитии ребенка [58].

– The zone of proximal development is an area of learning that occurs when a person is assisted by a teacher or peer with a skill set higher than that of the subject[59].

– The zone of proximal development refers to the maturing functions that are relevant to the next age period and that provide the means to perform in collaborative situations that could not be achieved independently. These functions are not created in interaction; rather interaction provides conditions for identifying their existence and the extent to which they have developed.

– the layer of skill or knowledge which is just beyond that with which learner is currently capable of coping.

---

[57] Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.– 352 с.
[58] Зинченко В.П., Мещерякова Б.Г. Большой психологический словарь. – М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. 2003. – С. 858.
[59] Penguin dictionary of psychology. https://en.wikipedia.org. Elektron resurs: Murojaat sanasi: 29.07.2019.

L.S.Vigotskiyning «ijtimoiy konstruktivizm», ya'ni nutq atrofdagi odamlar bilan muloqot qilish natijasida shakllanadi, degan mazmundagi nazariyasi soha mutaxassislari tomonidan quyidagicha tushunilgan:

– samarali o'rganish siri turli darajadagi malaka va bilimga ega ikki yoki undan ko'p insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar zamirida yotadi. Ko'proq bilim egasi bo'lmish, odatda, ota-ona yoki o'qituvchi, ko'pincha esa hamrohning vazifasi boshqa birovning o'rganishi uchun ko'maklashish yo'lini topishdir[60];

– tafakkur asosiy o'zlashtirilgan nutqdir, nutq esa ijtimoiy munosabatlarda paydo bo'ladi[61];

– bolaning tafakkuri turli darajadagi intellektlar, ya'ni kattalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish jarayonida rivojlanib boradi[62].

Vigotskiy Piaje nazariyasini takomillashtirib, bolaning atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti tafakkurning rivojlanishida muhim rol o'ynashini isbotlab berdi. Piaje bola bilan muhit o'rtasidagi aloqaga e'tibor qaratgan bo'lsa, Vigotskiy konstruktivizmning boshqa elementiga, ya'ni bola bilan ijtimoiy muhit o'rtasidagi muloqotga urg'u beradi. Piaje uchun bola buyumlar dunyosidagi faol o'rganuvchi bo'lsa, Vigotskiy uchun bola insonlar bilan to'la dunyodagi faol o'rganuvchidir.

Kattalar bolaga o'rganish uchun ko'maklashuvchi vazifasini bajarishadi, ya'ni uning qo'liga buyumlar tutqazishadi, o'yin jarayonida gaplashishadi, hikoyalar o'qib, ertaklar aytib berishadi. Boshqacha aytganda, atrofidagi odamlar bolaga dunyoni tanishda vositachi, undovchi, va ayni paytda, muvaffaqiyatsizlikning oldini olish choralarini ko'ruvchilardir. Kattalar ko'magi bilan bola o'zi mustaqil bajara oladigan narsalaridan ko'prog'iga qodir bo'ladi. Bolani predmetlarning shakli, rangi, vazni bilan tanishtirishda kattalar amalga oshirish nazarda tutilgan harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatlarni qay yo'sinda bajarishni o'rgatadilar: bolaga «Olib kel», «Joyiga qo'y», «Og'zingni

60 Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – p. 40.
61 Lightbown P.S., Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. – p. 20.
62 Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave & Macmillan, 2011. – p. 17.

art», «Ushlab tur» kabi topshiriqlarning mohiyati tanishtiriladi, keyin unga harakatni bajarish yo'llari («Qoshiqni mana bunday ushla», «Avval qo'lingga ol», «Oldin o'ng qo'ling bilan tut», «Qoshiqni bunday qilib og'zinga olib bor» deb) ko'rsatiladi.

Yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tili o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ravishda o'zlashtira oladigan til materialiga emas, balki mutaxassis ko'magi yoki hamkorligida muvaffaqiyatliroq o'zlashtira oladigan til materialiga murojaat etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar yangi til materiali o'quvchining *«Eng yaqin rivojlanish zonasi»*da bo'lsa, bu unga tushunarli bo'ladi va u buni o'zlashtira boshlaydi.

Vigotskiy ta'limni o'quvchining kashf qilishiga ko'maklashish jarayoni, deb tariflaydi. O'quvchilar o'qituvchining tushuntirish, ko'rsatib berish, va og'zaki yo'l-yo'riq ko'rsatishi orqali *Eng yaqin rivojlanish zonasi*dagi ma'lum topshiriqni mustaqil bajarish malakalarini egallaydilar. Buni hamkorlikdagi faoliyat natijasida kashf qilish, ya'ni tayyor bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'qituvchi, ota-ona, yoki ilg'orroq sherik hamkorligi va ko'magida mustaqil kashf qilish, deb tushunish mumkin. Vigotskiy «*Eng yaqin rivojlanish zonasi*»ni «intellekt»ga yangi ma'no berish maqsadida qo'llagan. Uning ta'kidlashicha, aqliy layoqat bolaning yolg'iz o'zi bajara oladigan narsalari bilan emas, balki mahoratli ko'mak va bola uchun tushunarli og'zaki ko'rsatma yordamida bajara oladigan narsalari bilan o'lchanishi lozim.

Vigotskiy rivojlanish nuqtasidagi turli bolalar kattalarning bir xil ko'magidan turlicha foydalanishlarini aniqlagan. Ingliz tili o'qitish jarayonida ham o'qituvchi o'quvchilarga savol bilan murojaat qilib, yangi nutq modeli bilan tanishtiradi: *Do you like swimming?* Bu savolga javob berish o'zlashtirilganidan keyin o'quvchilarga yuqoridagi «*Do you like (reading, dansing)…*..?» konstruksiyasi asosida boshqa savollar taqdim etiladi. Lekin hamma o'quvchilar ham bu savollarni tushunavermaydilar. Chunki o'quvchilarning *Eng yaqin rivojlanish zonasi* bir-biridan farq qiladi.

Vigotskiy bolani biror ishni ijtimoiy vaziyatda boshqa odamlar bilan bajarayotgan holatda, tilni esa turli usullar bilan unga yordam berayotganligini va asta-sekinlik bilan bolaning boshqalarga tobelikdan mustaqil harakatlanish va fikr yuritish sari odimlayotganligini kuzatadi. Ovoz chiqarib fikrlashdan miyada fikrlashga o‘tish jarayonidagi hamkorlikdagi suhbat va faoliyat keyinchalik bir individning mustaqil aqliy faoliyatiga aylanadi. Vigotskiyning bolalar so‘zni tushuncha sifatida qabul qilishlari to‘g‘risidagi fikrini tasdiqlovchilar (De Bot, 1992; Nattinger va DeKario, 1992; Lantolf 2000; Rodjers, 2000; Tauchi, 2008; Strengers, Bouers, Xaus, va Eykmans, 2011) ingliz tili o‘qitishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi mumkinligiga e’tibor qaratadilar.

Masalan, Vigotskiyning tadqiqotlari J.Bruner ilmiy faoliyatida o‘z aksini topgan. Bruner bir necha oilalardagi kattalarning bolalar bilan muloqotini o‘rganish jarayonida kattalar o‘z fikrlarini imkon qadar bolaga tushunarli tarzda ifodalashga harakat qilishlarini guvohi bo‘ladi. Ayniqsa, ma’lum harakatni to‘g‘ri bajarishi uchun bolaga beriladigan ko‘rsatmalarning qayta-qayta takrorlanishi natijasida ushbu ko‘rsatmalar nutq namunasi sifatida bolaning leksik zaxirasini boyitib borishini kuzatib, Bruner «Scaffolding» (Havoza) modelini ishlab chiqdi. Ushbu nazariyaga binoan, kattalarning nutqi bolalarga dunyoni anglashlari uchun vositachi bo‘ladi va ularga muammolarni yechishda yordam beradi.

Bruner ingliz tili mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘qituvchi foydalanadigan *(«George, please give out the scissors (papers).», «Stand up!», «Line up!»«The lesson is over. Good bye!»)* bo‘lgan gaplar asta-sekin o‘quvchilarning leksik repertuari (boyligi)ga aylanib borishini isbotlaydi. Misoldagi gaplar o‘quvchilarga mazmunli til shakllarini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va o‘quvchilar dastlabki tajribalariga asosan o‘qituvchining ko‘rsatmalarini taxminan tushuna boshlaydilar. Ya’ni taqdim etiladigan yangi nutq namunasi o‘quvchining *eng yaqin rivojlanish zonasiga* o‘tadi.

O‘qituvchi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlarni osondan qiyinga prinsipi asosida berib borishi mumkin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| | the scissors (books) | give out | the scissors |
| give out | the papers (pencils) | collect | the books |
| | the flashcards | find | the papers |

«*Eng yaqin rivojlanish zonasi*» atamasi asosida Ingliz tili o‘qitishning didaktik tamoyillaridan *oson-qiyinlik* yoki *o‘quvchi kuchiga moslik* tamoyillari rivojlantirilgan va nutq faoliyatini egallash jarayonini tezlashtirish yoki samaradorligini oshirish maqsadida qiyinchiliklarni o‘quvchi kuchiga mos holda «taqsimlab» taqdim etilishini yo‘lga qo‘yish, o‘quv dastur va o‘quv rejalarini shu tamoyil asosida ishlab chiqish lozim.

«Kognitiv konstruktivizm» va «ijtimoiy konstruktivizm» nazariyalarining qiyosiy tahliliga asoslanib boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘rgatishda quyidagi tavsiyalar umumlashtirildi.

Piaje nazariyasiga asosan: a) til materialini metodik tayyorlashda o‘quvchilarning rivojlanish bosqichlarini inobatga olish; b) o‘quvchilarni ayni joyda va zamonda sodir bo‘layotgan, sodda va real hayot bilan bog‘langan, buyumlar bilan amalga oshiriladigan mashqlar tanlash; d) bilimlarni kreativ, kashf qilib egallanishi uchun optimal vaziyat yaratish; e) natija ketidan quvmasdan, o‘zlashtirish jarayoniga ustuvor ahamiyat qaratish tavsiyalari ishlab chiqildi.

Vigotskiy nazariyasi asosida: a) kommunikatsiya va interaksiya jarayonida tildan foydalanish; b) tushunarli tilda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va ko‘maklashish; d) o‘quvchiga uning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib, ya’ni uning eng yaqin rivojlanish zonasidagi topshiriqlarni berish, uni hamkorlikda va xayrixohlikda bajarish; e) dastlabki uzuq-yuluq talaffuz etilgan jumlalarni qayta-qayta takrorlashga undash va rag‘batlantirish; f) ingliz tilidagi nutqning vokallashish jarayonlaridagi dastlabki nuqsonlarga sabrli bo‘lish; g) o‘quvchilarga qaratilgan nutq ular uchun tushunarli bo‘lishi, ya’ni o‘quvchilarning eng yaqin rivojlanish zonasiga moslab soddalashtirilgan bo‘lishi lozim (10-jadvalga qarang).

10-jadval.

**«Kognitiv konstruktivizm» va «ijtimoiy konstruktivizm» nazariyalarining qiyosiy tahlili**

| Nazariyalar | kognitiv | ijtimoiy |
|---|---|---|
| Qiyoslash mezoni | nutq predmetlar bilan jismoniy harakatlar uyg‘unligida, ya’ni bosh miya o‘ng yarim sharining faolligida shakllanadi | nutq kommunikatsiya va interaksiya jarayonida shakllanadi |
| Tamoyili | onglilik | onglilik |
| O‘quvchi | ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, mustaqil fahimlab o‘rganuvchi | ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, hamkorlikda o‘rganuvchi |
| O‘qituvchi | Qulay sharoit yaratuvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi | Ko‘maklashuvchi, rag‘batlantiruvchi, mediator |
| Til materiali | Predmetlar, o‘yinchoqlar, fleshkartalar | Audio-video materiallar |
| Kompetensiya | Tilga oid kompetensiyalar | Nutqiy kompetensiyalar |

Piaje va Vigotskiyning nazariyalari umumiy jihatlarga ega. Ikki nazariya ham: a) o‘rganuvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lishiga keng imkoniyat yaratilishi; b) shaxsiy yoki hamkorlikdagi tajribalar asosida bilimlarni tashabbusli kashf qilib egallanishi; d) o‘quvchilarning individual jihatlarini hisobga olinishi zarurligini targ‘ib etadi. Ya’ni ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash fazilatini rivojlantirish, ularni fikran uyg‘otish, faol, erkin va ijodiy tafakkurining avj olishini ta’minlovchi optimal vaziyat yaratilishiga ustuvor ahamiyat qaratish targ‘ib etilmoqda.

J.Piaje va L.Vigotskiy nazariyalari asosida J.Bruner tomonidan ishlab chiqilgan «Hamkorlikda o‘rganish» va «Scaffolding» usulini amaliyotiga tatbiq etilshi boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

***O ‘quv-metodik topshiriqlar***

1. A.N.Xomski nazariyasi haqida o‘z fikringizni bayon eting.

2. «Kognitiv konstruktivizm» va «ijtimoiy konstruktivizm» nazariyalarining o‘hshash va farqli jihatlarini aniqlashtiring.

3. «Eng yaqin rivojlanish zonasi» tushunchasiga berilgan ta’riflarga munosabat bildirng.

***Tavsiya etiladigan adabiytolar.***


1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.– 352 с.

2. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.: Римис, 2008. – 416 с.

3. Эльконин Д.Б. Психология развития. – М.: Академия, 2007. – 144 с.

4. Lightbown P.S., Spada N. How languages are learned. – L.: Oxford University Press, 2006. – 234 p.

5. Williams M., Burden R. L. Psychology for Language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 240 p.

6. Wood D. How Children Think and Learn. – Oxford: Blackwell Publishers Limited.1998. – 230 p.


## 3.14. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘rganish usullari

**Kalit so‘zlar:** *layoqat, innovatsion, tahlilchi, kinestetik, dinamik, instrumental (regulyativ, interaktiv, personal, evristik, kommunikativ) funksiya*

Bolalar maktab ostonasiga ijobiy (jismonan chiniqqan, tirishqoq va shijoatli, kirishimli) va salbiy (tortinchoq, injiq, o‘jar, qaysar, kamgap) individual xususiyatlari bilan qadam qo‘yishadi. Shuningdek tashqi qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan ta’sirlanishlari bilan ham bir-birlaridan ajralib turishadi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar musiqadan zavqlanishadi, ba’zilari ranglardan, ayrimlari esa hamon tasavvurlaridagi ertaklar olamida yashaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish metodikasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning til o‘rganish individual layoqatlari (individual language learning apptitude)[63] va individual usullari (4MAT Learning styles)[64] ham hisobga olinadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish layoqatlarining "*yuqori*", "*o‘rta*" *va* "*past*" nisbiy darajalari aniqlangan. Ingliz tili o‘rganish layoqat darajalari o‘quvchilarning a) o‘quv faoliyat turining ratsional usullarini egallaganliklari; b) verbal xotira (so‘z mantiq xotrasi va ma’nosini tushunib eslab qolish salmog‘i)ning rivojlanganligi; d) til qonuniyatlarini kashf qilib o‘rganilishini tezlashtiruvchi tafakkurning rivojlanganligi; e) diqqatni ongli idora qila olish kabi individual xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarining ingliz tili o‘rganish usullari (learning styles)ga quyidagicha ta’rif berilgan:

- *Learning styles refers to " ...an individual’s natural habitual, and preferred ways of absorbing, processing, and retaining new information and skills."*[65].
- *O‘rganish usullari "individning yangi axborot va malakalarni xazm qilish, qayta ishlash va xotirada saqlashning tabiiy odatlashgan va afzal ko‘radigan yo‘llari"degan ma’noni ifodalaydi.*

Metodik adabiyotlarda ingliz tili o‘rganish usullari turlicha nomlanadi. Masalan, MakKarti (MsCarthy:1996) o‘rganish usullarini *innovative, analytic, sensitive, dinamic*, deb nomlagan bo‘lsa D.Nyunan (D.Nunan:2003) *cognitive, sensory, personality* kabi kengroq tushunchalarni ifodalovchi atamalardan foydalangan. Yuqoridagi atamalarga berilgan izohlarni umumiylashtirib ingliz tili o‘rganish usullarini quyidagicha sharhlash mumkin:

**Innovatsion** o‘rganuvchilar – (innovative learners) til materialini nima sababdan va qanday maqsadda o‘rganish lozimligini aniq tushunib olishlari lozim. Ular kontekstdagi axborotni yaxshi o‘zlashtiradilar, kundalik hayot va tajribalari

---

[63] Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006, p. 68-69.
[64] Linse C.T. Practical English Language Teaching: Young Learners. – New York: McCraw-Hill, 2005. p-197.
[65] Nunan D. Practical English Language Teaching. – NY.: McGraw-Hill, 2003. - p. 268.

uchun foydali deb hisoblamagan yangi ma’lumotni qabul qilmaydilar. Ularning yoqtirgan savoli: «Nima uchun?»

**Tahlilchi** o‘rganuvchilar - (analytic learners) – idrok etishda tartibli, maqsadga muvofiq, serqirra tahlil qilishadi. Lekin ba’zan muhim alomatlar chetda qolib tasodifiy belgilarga e’tibor qaratadilar. Ular o‘qituvchini aqlu idrok sohibi, tiyrak, sezgir, mehribon hatto donishmand inson deb biladilar. O‘qituvchi siymosida o‘zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-tuyg‘ularini ro‘yobga chiqaruvchi mo‘tabar shaxsni ko‘radi. O‘qituvchining obro‘si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a’zolari, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlarning obro‘si keskin pasayadi. Shu sababli bunday bolalar o‘qituvchining har bir so‘zini qonun deb bilishadi. Ular axborot taqdim etadigan dalillarni solishtirishga qiziqishadi va til materialini yolg‘iz mashq qilishni ma’qul ko‘rishadi. Ular til materialini qismlarga ajratib o‘rganishadi. Taxlilchilar yolg‘iz ishlashni ma’qul ko‘rishadi lekin jamoa bilan yaxshi o‘zlashtirishadi. Ularning yoqtirgan savoli: «Nima?»

**Kinesetik** o‘rganuvchilar – (kinesthetic (tactile, auditory, visual) learners) – hodisalarning sodir bo‘lishi jarayonlarida ishtirok etishni yoqtirishadi. Ya’ni, manipulyasiya qilinadigan (manipulative), qo‘llar ishtirokida bajariladigan (hands-on activity) tajribalarda bevosita ishtirok etishni istashadi. Ular kashf qilish, taxmin qilish, tajribada sinab ko‘rish, muammo yechimini topish kabi mashg‘ulotlarda faollik ko‘rsatishadi. Ular iste’dodli o‘quvchi sifatida tan olinish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishadi va boshqalarga ham o‘z iqtidorini namoyish etishlariga ko‘maklashishdan zavqlanishadi. Ular tashqi muhitga (issiq, sovuq, yorug‘likka) va til o‘rganish muhitiga ta’sirchan bo‘lishadi. Ularning yoqtirgan savoli: «Bu qanday ishlaydi?»

**Dinamik** o‘rganuvchi – (dynamic (left/right brain) learners) serharakat bo‘lib mastaqil kashf qilib o‘rganishni yoqtiradi, o‘ziga ishonadigan, tashabbuskor va bilganlarini boshqalarga ham o‘rgatishni yoqtiradi. Mustaqil ta’lim u uchun foydali bo‘lsada kommunikativ rolli o‘yinlarda tashabbusni o‘z qo‘liga oladi. U yumor hissiga ega va yaxshi suhbatdosh, ziddiyatli munosabatlarda vaziyatni yumshata oladi. U yoqtirgan savol: «Agarda..?»

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish usullarini hisobga olib mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni umumlashtirish mumkin.

Ma’lumki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi o‘z ona tildan biror narsani qo‘lga kiritish (instrumental funksiya), xatti-harakatni boshqarish (regulyativ funksiya), atrofdagilar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish (interaktiv funksiya), shaxsiy his-tuyg‘ular va ma’nolarni ifodalash (personal funksiya), o‘rganish va kashf qilish (evristik funksiya), o‘z tasavvuridagi olamni yaratish (tasavvur funksiya), axborot almashish (kommunikativ funksiya) maqsadlarida foydalanadi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishga o‘quvchilarga ingliz tilidan aynan shu maqsadlarda foydalanishni o‘rgatish lozimligi tavsiya etiladi.

Ingliz tili o‘rganishda stress (ruhiy zo‘riqish)dan xoli vaziyatlarning ahamiyati muhimdir. Stress qancha past bo‘lsa, o‘rganish samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

O‘rganuvchilarning o‘zlariga xos shaxsiy o‘rganish usullaridan kelib chiqadigan kuchli va kuchsiz jihatlari inobatga olish maqsadga muvofiq.

Suningdek,

– o‘quvchining o‘rganilayotgan tildan foydalanib eng sodda usulda kommunikatsiya qilish fazilatini shakllantirishdir;

– interaksiya va kommunikatsiyaning sodir bo‘lishini ta’minlovchi mashqlarga ustuvor ahamiyat qaratish;

– nutq vaziyatini qo‘llash tamoyiliga muvofiq turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘rganilayotgan tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishni o‘rgatish maqsadida mashg‘ulotlarda harakatli, syujetli, rolli, dramatik, imitatsion (taqlid), muloqotga yo‘naltirilgan, proektli va didaktik o‘yinlarni tashkil etish;

– dialoglarga yod olinishi zarur bo‘lgan til materiali sifatida emas, balki kommunikativ maqsadlarda murojaat etish;

– mazmunga ustuvor ahamiyat berish;

– til materialini real nutq vaziyatlaridagi kontekstlarda taqdim etish;

– takrorlash (driling) mashqlariga vaqt ajratish;

– o‘rganuvchilarning yoshi, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda har qanday texnik vositalardan foydalanish;

– dastlabki mashg‘ulotlardan kommunikatsiya va interaksiya sodir bo‘lishini ta’minlashga harakat qilish;

– maqbul vaziyatlarda ona tilidan va agar o‘quvchiga foydali deb hisoblansa, tarjimadan foydalanishni taqiqlamaslik;

– ingliz tili lingvistik sistemasini kommunikatsiya qilishga intilish natijasida o‘zlashtirish;

– izchillik va uzviylikni qiziqishni so‘ndirmaslik maqsadiga yo‘naltirish;

– har qanday usulda o‘quvchi motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni oshirish;

– tilni individual shaxs tomonidan tajribada sinab ko‘rish va xatolar asosida kreativ nutqiy hosilalar yaratilishiga izn berish;

– o‘quvchilarga o‘zaro va notanish insonlar bilan har qanday nutq vaziyatida (yakka nutq, juft nutq, bahs-munozara) va tarzida (masofaviy, yuzma-yuz, og‘zaki, yozma) interaksiyaga kirishishni o‘rgatish;

– ichki motivatsiyani til orqali sodir bo‘layotgan kommunikatsiya ob’ektiga qiziqtirish natijasida vujudga keltirish, kabi tavsiyalarga amal qilinishi ingliz til o‘rganish va o‘rgatishda sifat va samaradorlikni ta’minlashi mumkin.

### *O ‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning til o‘rganish individual layoqatlari (individual language learning apptitude) va individual usullari (4MAT Learning styles) qanday farqlanadi?

2. Shaxsga yonaltirilgan kompetensiyaviy yondashuv paradigmasiga muvofiq o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishdagi o‘ziga hos usullarini inobatga olishda qanday muammolarga duch kelinadi?

3. Stress qancha past bo‘lsa, o‘rganish samaradorligi shuncha yuqori bo‘lishi to‘g‘risidagi fikrga qanday munosabat bildirish mumkin?

4. Kichik maktab yoshidagi oquvchilar ona tilidan qanday maqsadlarda foydalanishlari mumkinligini tushuntirib bering.

***Tavsiya etiladigan adabiytolar***

1. Linse C.T. Practical English Language Teaching: Young Learners. – New York: McCraw-Hill, 2005. p-197.

2. Nunan D. Practical English Language Teaching. – NY.: McGraw-Hill, 2003. – 354 p.

3. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave &Macmillan, 2011. – 308 p.

## 3.15. Boshlangich sinf o‘quvchilarini baholashning zamonaviy yondashuvlari

**Kalit so‘zlar:** *motivatsiya, me’yor, mezon, til materiali, nutq mavzusi, nutq faoliyat turlari, fikrni shakillantirish, fikr ifodalash, ichki plan, tashqi plan*

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘quv foliyati davomidagi muvafaqqiyatlari bilan atrofdagilarda ijobiy taassurot qoldirishga moyil bo‘lishadi. Bunday moyillik muvafaqqiyatga erishish ishtiyoqini kuchaytiradi. Muvaffaqiyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining predmetga nisbatan qiziqish va uni o‘rganishga motivatsiyasini oshirishda muhim omil sanaladi.

Ma’lumki chet tildan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallanganligini aniqlashning me’yorlarga va mezonlarga asoslanadigan yondashuvlari mavjud. Me’yoriy yondashuvda o‘quvchi bilimi dasturiy talablar asosida yoki sinfning o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan baholanadi. Lekin bunday baholash usuli qo‘llanilganida o‘quvchining shaxsiy ko‘rsatkichlari inobatga olinmaydi. Masalan, chorak boshida bir daqiqada 15 ta so‘z o‘qish tezligiga ega bo‘lgan o‘quvchi chorak yakunida bir daqiqada 20 ta so‘z o‘qish tezligini qayd etdi. Uning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rtachaga yetmagan bo‘lsada ma’lum darajada yuqoriladi. Lekin chorak boshida bir daqiqada 20 ta so‘z o‘qish tezligiga ega o‘quvchi chorak yakunida bir daqiqada 22 ta so‘z natija ko‘rsatdi. Bunda birinchi

o‘quvchi 5 (koifitsentda) pog‘ona yuqorilagan bo‘lsa, ikinchi o‘quvchi 2 (koifitsent) pog‘ona yuqoriladi. Ya’ni, natija yuqori bo‘lmasa-da birinchi o‘quvchi o‘rtacha daraja ko‘rsatkichiga erishish uchun ikkinchi o‘quvchiga nisbatan ko‘proq xarakat qildi.

Sohaga oid adabiyotlarda (S.Halliwell – 1993; A.Pinter - 2006) o‘quvchilarning individual ko‘rsatkichlarini inobatga oladigan, raqobatchilik kayfiyatidan xoli va motivatsiyasini oshiradigan bola parvar baholash (child friendly assessment) mezonlari tavsiya etilmoqda. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi baholarga nisbatan o‘ta ta’sirchan bo‘ladi va “sen buni yomon bajarding” mazmunidagi tanbehni “sen yomonsan” deya qabul qilishadi. Shuning uchun o‘quvchilar bilimini baholashda dastlabki o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bilan qayd etilgan natija orasidagi farq inobatga olinishi lozim. O‘quvchining eng kichk yutug‘i ham “Balli, sen bugun avvalgidan tezroq o‘qiyapsan”, “Sen chiroyli gapiryapsan, muvofaqqiyatingdan xursandman” tarzida e’tirof etilishi kerak. Bunday rag‘bat o‘quvchini ilhomlantiradi va o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishini oshiradi.

Har qanday o‘qituvchi belgilangan maqsadqa qay darajada erishayotganligini aniqlashni hohlaydi. O‘qitish natijasida o‘quvchilar o‘zlashtirilgan til va nutq materialidan foydalanib nimalarni ayta olish yoki yoza olishlari o‘qituvchining sa’y-harakatlariga bog‘liq. Masalan, “Oila” mavzusiga taalluqli darslar o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilar o‘z oila (a’zo)lari haqida qisqacha og‘zaki yoki yozma ma’lumot bera olishlari lozim. Ular oila a’zolarining yoshi, kasbi, qiziqishlari haqidagi juda sodda savollarga qisqa javob bera olishlari kerak. Shuningdek, o‘quvchilardan oila haqidagi topishmoq, tez aytish, she’r va qo‘shiqlarni ham yoddan ayta olishlari talab etiladi. Zamonaviy o‘qituvchi ushbu maqsadlarni har bir nutq mavzusi (Unit)ni boshlashdan avval aniqlab olishi zarur. Maqsadning aniq belgilanishi o‘quvchilarning ko‘rsatkichlarini adekvat baholashda muhim asos bo‘ladi.

O‘qituvchi qayerda bo‘shliq borligini, qaysi til materialining qiyin yoki oson o‘zlashtirilayotganligini, nutq mavzusi yuzasidan lingvistik, sotsiolingvistik va

pragmatik kompetensiyalarning har bir o‘quvchi tomonidan egallanganligini aniqlay oladigan bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlar amaliy mashg‘ulotlarni sifatli va samarador o‘tishini ta’minlaydi. Masalan, o‘qituvchi til va nutq materialining o‘zlashtirilishi uchun mashqlar miqdorini uning murakkablik darajasiga qarab aniqlash, yoki kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar ratsionini ularning ta’lim maqsadi yoki vositasi sifatidagi maqomidan kelib chiqib belgilash yuzasidan metodik kompetensiyani egallaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni baholash dolzarb muammolardan sanaladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani A1 darajada egallaganliklarini ob’yektiv aniqlashda murakkab vaziyatlarga duch kelinishi mumkin. Afsuski, ko‘p hollarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘zlar, iboralar, qo‘shiq va she‘rlar, sahna ko‘rinishidagi rollarini yod olishlari til o‘rganilganligi va nutqni rivojlanganligi haqidagi yolg‘on tasavvurga sabab bo‘ladi.

Ingliz tili o‘qitishning suniy ta‘lim sharoitida o‘quvchilarda ingliz tilida fikr shakllantirish va ifodalash usuli sifatida nutqni rivojlantirish katta qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Chunki fikrni shakllantirish ichki planda ona tilida sodir bo‘ladi, ifodalash esa tashqi planda ingliz tilda amalga oshiriladi. Agar ingliz tili o‘rganish jarayonida o‘quvchi doimiy ravishda ona til kodini ingliz tili kodiga tarjima qilaversa u til vositalarini o‘rganadi, ingliz tilida fikr ifodalash usulini emas.

O‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning «*language portfolio*» metodi ham mutaxassislar (Popham -1999, Chen & Martin – 2000, Stiggins – 2001, A.Pinter – 2006, McMillan - 2007) tomonidan ijobiy baholanmoqda. Yosh davrining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholashda a) o‘quvchiga shaxs sifatida xayrixoh munosabatda bo‘lish; b) sezilarli natija qayd etilmasada o‘quvchining topshiriqni bajarishga yo‘naltirilgan intilishlariga ijobiy munosabatda bo‘lish; d) topshiriqning qiynlik darajasidan kelib chiqib yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniq tahlil qilish; e) erishilgan natijani yaxshilash bo‘yicha aniq topshiriqlar berish tavsiya etiladi. Ya’ni a’lo baho

olish uchun, nonushtaga, obedga va tushlik uchun nimalar iste’mol qilish to‘g‘risida gapirib berishi zarurligi haqidagi o‘qituvchi bahosi o‘quvchini o‘z ustida ishlashga undaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun chet tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga ehtiyojni vujudga keltiradigan shaxsiy sabablarni (maktab xududida belgi, ko‘rsatkich, e’lon va shiorlarni ikki tilda o‘rnatish, o‘zaro chet tilda yozishmalar tashkil etish, o‘rganilayotgan chet tildagi multfilm va badiiy filmlar namoyish etish) hosil qilish va o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganishga ishtiyoqini kuchaytiradigan tadbirlar (o‘rganilayotgan chet tilda shaxsning kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan rolli o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari va tanlovlar) o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

### *O ‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining predmetga nisbatan qiziqish va uni o‘rganishga motivatsiyasini oshirishning muhim omillarini aniqlang.

2. Chet tildan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallanganligini aniqlashning me’yorlarga va me’zonlarga asoslanadigan yondashuvlari qanday farqlanadi?

3. O‘quvchilarning ko‘rsatkichlarini adekvat baholashda nimalarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi?

4. Kichik maktab yoshidagi oquvchilarning bilimini baholashda qanday muammolarga duch kelinadi?

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*

1. Cambridge English Language Assessment: Young Learners, Handbook for teachers Starters Movers Flyers. - Cambridge University Press, 2018. – 70 p.

2. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave &Macmillan, 2011. – 308 p.

3. Pinter A. Teaching Young Language learners. – UK.: Palgrave & Macmillan, 2006. – 205 p.

## TO‘RTINCHI QISM
## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

### 4.16. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishga kommunikativ yondashuv

**Kalit so‘zlar:** *yondashuv, metod, bixevioristik, induktiv-ongli, ongli (kognitiv) integrativ, struktural, funksional, interaktiv, audilingual metod, audilingual yondashuv, kommunikativ metod, kommunikativ yondashuv*

Ushbu paragrafda *yondashuv* atamasiga ta’rif beriladi va ingliz tili o‘qitish yondashuvlari tahlil etiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili o‘qitishda kommunikativ yondashuvning umumiy tavsifi, kommunikativ kompetensiya nazariyasining lingvistik va psixologik asoslari va tamoyillari yoritiladi. Boshlang‘ich ingliz tili ta’limida kommunikativ yondashuvning o‘rni va ahamiyati aniqlanadi. Ushbu paragrafda KYO (kommunikativ yondashuv), KK (kommunikativ kompetensiya) qisqartmalaridan foydalandik.

Yondashuv til o‘rgatish va o‘rganish xususiyatlariga taalluqli tushunchalar yig‘indisidir. Yondashuv aksiomaviydir. U o‘qitiladigan predmet mazmunini ifodalaydi.

Yondashuv atamasiga lug‘atlarda biror masalani hal etish yoki muammoning yechimini topish uchun ma’lum nazariyaga asoslanish, degan mazmunda ta’rif beriladi. Ingliz tili o‘qitish metodikasida mazkur atama dastlab AQSHning Michigan universiteti professori Edvard Meyson Entoniy tomonidan til xususiyati va uni o‘rganish/o‘rgatish usullariga taalluqli qonuniyatlarni ifodalash maqsadida qo‘llanilgan bo‘lib, unga quyidagicha ta’riflar berilgan:

An approach is a set of correlative assumptions dealing with the nature of language teaching and learning. An approach is axiomatic. It describes the nature of the subject matter to be taught[66] ….

Approach: Theoretically well-informed positions and beliefs about the nature of language, the nature of language learning, and the applicability of both to pedagogical settings[67].

Yondashuv til o‘qitish mazmuni va til o‘rganish xususiyati hamda ularni pedagogik jarayonga joriy etish imkoniyatlari haqidagi nazariy jihatdan yaxshi yoritilgan pozitsiya va nuqtaiy nazar.

Entoniyning fikricha, yondashuv til haqidagi, uni o‘rganish va o‘rgatish xususiyatlarini inobatga olib takomillashtirilgan prinsip yoki tushunchalar yig‘indisi bo‘lib, u metodga moslashtiriladi yoki nazariy jihatdan unga asoslanadi. Ya’ni *yondashuv* atamasi orqali ingliz tili o‘qitish amaliyoti va prinsiplarining manbasi bo‘lib xizmat qiladigan til va til o‘rganish haqidagi nazariya ifodalanadi.

Yondashuv til o‘qitish sistemasi zamiridagi fundamental komponent bo‘lib, o‘qitishning umumiy metodologik asosi sifatida gavdalanadi va (til) o‘quv fanining maqsadi, vazifalari hamda ta’lim jarayonida ularni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim mazmuni haqidagi mavjud nuqtaiy nazarlar bilan xarakterlanadi.

Metodistlarning fikricha, yondashuv o‘quv fanining mazmuni haqidagi qarashlarni umumiylashtiradi (Vyatyuntnev, 1984), konkret bilim sohasidagi tadqiqotning umumiy metodologik asosi sifatida foydalanilinadi (Bim, 1984), tadqiqotchi faoliyatining u yoki bu hodisalarni o‘rganish bo‘yicha yo‘nalishini aniqlaydi (Skalkin, 1981).

---

[66] RichardsJ.C., Rodgers Th.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – NY.: Cambridge University Press, 2009. – p. 19

[67] Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – P. 17-18..

Metodikada yondashuvning yagona klassifikatsiyasi mavjud emas. Masalan, M.V.Lyaxovitskiy (1981) yondashuvlarni psixolingvistik nuqtaiy nazaridan quyidagicha klassifikatsiyalaydi:

Bixevioristik – til tashqi qo‘zg‘atuvchi stimullarga javoban nutqiy avtomatizmlarni shakllantirish usuli orqali o‘rganiladi;

Induktiv-ongli – til nutq namunalarini tahliliy kuzatish natijasida til qonuniyatlari va ularni nutqda qo‘llash usullarini egallash orqali o‘rganiladi;

Ongli (kognitiv) – til egallangan bilimlar asosida nutqiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish izchilligida o‘rganiladi;

Integrativ – til o‘qitish jarayonida ongli va g‘ayrishuuriy komponentlarni tashkiliy muvofiqlashtiradi, ya’ni ingliz tili bilim, malaka va ko‘nikmalarni parallel egallash orqali o‘rganiladi.

M.N.Vyatyutnev til o‘rganishning lingvistik omillarini inobatga olgan holda zamonaviy metodlarni tasniflash uchun yondashuvlarni 6 ta turga: grammatik, to‘g‘ri, bixevioristik, o‘quv, kollektiv, kommunikativ, individuallashgan turlarga ajratadi. J.S.Richards, T.S.Rodjerds, D.Braun, D.L.Frimenlar metodlarni tadqiq etishda til haqidagi (struktural, funksional va interaktiv) va til o‘rganish haqidagi nazariyalarga, ya’ni: a) til o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadigan psixologik va kognitiv jarayonlar; b) til o‘rganish jarayonini faollashtiradigan vaziyatlarga va optimallashtiradigan omillarga murojaat etishadi.

A.N.Shukin yondashuvlarni tilga nisbatan o‘qitish ob’yekti va o‘qitish vositasi sifatida qaraydigan guruhlarga ajratadi[68]. Tilga o‘rganish ob’yekti nuqtaiy nazaridan qaraydigan: a) tilni o‘rganishga; b) nutqni o‘rganishga; v) nutq faoliyati turlaridan bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar farqlanadi. Tilga o‘rganish vositasi nuqtai nazaridan qaraydigan: a) to‘g‘ri (intuitive); b) ongli (cognitive); d) shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni farqlash mumkin.

Adabiyotlarda audilingual metod va audilingual yondashuv yoki kommunikativ metod va kommunikativ yondashuv atamalari ko‘p uchraydi.

[68] Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006. – С. 96-97.

Metodlar ma’lum tamoyillarga asoslanadi. Tamoyillar ingliz tili o‘rgatish va o‘rganish haqidagi ma’lum nazariyaga asoslanadi. K.Richards va S.Rodjerdslar metod atamasini ta’riflash maqsadida quyidagi jadvalni shakllantirishgan (11-jadvalga qarang):

11-jadval.

**«Metod» atamasining ta’riflanishi**




| | | |
|---|---|---|
| A. Til haqidagi nazariya<br>B. Til o‘rganish haqidagi nazariya | A. Metodning umumiy va xususiy maqsadlari<br>B. Ta’lim mazmuni<br>D. O‘rganish va o‘rgatish tadbirlarining turlari<br>E. O‘quvchi roli<br>F. O‘qituvchi roli<br>G. Ta’lim vositalari-ning roli | A. Mashg‘ulotlarda o‘qituvchi foydalanadigan vositalar; jihozlar, pedagogik va pedtexnologiyalar, taktika va strategiyalar |

**Kommunikativ yondashuv (KYO)ning umumiy tasnifi**

Ingliz tili o‘qitishga KYO 1960-yildan buyon rivojlanib kelayotgan kommunikativ metod asosida shakllantirilgan. Amerikalik va britaniyalik mutaxassislar ingliz tilini kommunikativ o‘qitish metod emas, balki yondashuv sifatida e’tirof etgan holda kommunikativ kompetensiya til o‘qitish maqsadi bo‘lishi lozimligini, til va kommunikatsiya o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash uchun barcha nutq faoliyat turlaridan bilim, malaka va ko‘nikmalarni integrativ rivojlantirish zarurligini targ‘ib eta boshladilar[69].

---

[69] Celce-Murcia M., Brinton D.M., Snow A.M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – USA. Boston. National Geographic Learning. 2014. – p. 18-19.

1960-yillarga kelib ingliz tili o‘qitishga audiolingval va situativ yondashuvlarning o‘z davrini o‘tab bo‘lganligi, ular asosida ishlab chiqilgan lingvistik nazariyalar davr talabiga javob bermasligi, strukturani targ‘ib etuvchi ushbu nazariyalarda individual gaplarning kommunikativ va funksional xususiyatlari noadekvat talqin etilganligi, struktura (nutq namunalari)ni yod olinishidan ko‘ra ingliz tili o‘qitishda kommunikativ malakalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratish lozimligi haqida N.Xomskiy, K.Kendlin, X.Vindovson, T.Pika, R.Oksford kabi mualliflarning maqolalar va tezislari chop etildi. Shu asnoda «*Learning to use English and using English to learn it*», ya’ni ingliz tilidan foydalanishni o‘rganish va o‘rganish uchun undan foydalanish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiya, birinchidan, mashg‘ulotlarda namunaviy, standart frazalar, asosiy leksik birliklar va lingvistik funksiyalardan keng foydalanishni talab etadi. Shuningdek, darsni tashkil etish, davomatni jurnalga qayd etish, o‘quvchilarni baholash, rag‘batlantirish, topshiriqni to‘g‘ri bajarish borasida yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma va tavsiyalar berish va o‘zaro suhbatlashishda ingliz tildan foydalanish talab etiladi. Bunday integratsiya yod olingan tayyor va yarim tayyor standart qolip jumlalardan turli nutq vaziyatlarida foydalanish hisobiga sodir bo‘ladi[70].

Ushbu konsepsiya ishlab chiqilmasidan avval o‘quv jarayonida nimani o‘rgatish masalasining mohiyatiga oid mutaxassislarning turli, ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi fikrlari izohlanib kelinayotgan edi. Bu borada ikki muammo mavjud bo‘lib: birinchisi – nima o‘rgatiladi, savoliga javob berishda aksariyat olimlar ta’lim mazmuni o‘rgatiladi, deb aslida to‘g‘ri, lekin umumiy javobni qaytaradilar.

1971-1972-yillarda ingliz tili o‘rganish bo‘yicha o‘quv kurslarini takomillashtirish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. D.A.Vilkins boshchiligidagi guruh a’zolari yevropaliklarning ingliz tili o‘rganishga ehtiyojlarini tahlil etishib,

---

[70] Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – 18-p.

kommunikativ o‘quv rejasini ishlab chiqishdi. Keyinchalik Vilkins olib borilgan tadqiqot materiallarini umumlashtirib, maxsus to‘plam nashr ettirdi va ushbu kitob ingliz tili o‘qitishga kommunikativ yondashuvni joriy etish orqali o‘rganuvchilarning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish nazariyasining ommalashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

V.A.Suxomlinskiy ta’biri bilan aytganda, o‘zining o‘qituvchi ekanligini unuta olgan o‘qituvchi eng yaxshi o‘qituvchidir. Ushbu so‘zlar zamirida yashiringan ma’no ingliz tili darslarida o‘z ifodasini topadi. Buning uchun shunchaki nasihatomuz ohangdan voz kechish, o‘quvchilar va ularning so‘zlariga chinakamiga qiziqish bildirish, o‘zini bir pog‘ona tepada ekanligini yoddan chiqarish, o‘quvchi bilan yonma-yon turish kerak bo‘ladi. Shundagina o‘quvchining qiziqishi ortadi, unda suhbatlashish istagi paydo bo‘ladi, natijada mashg‘ulotlarda kommunikatsiya va interaksiya sodir bo‘ladi.

KYoda o‘rganish ob’yekti ham o‘rganish vositasi ham kommunikatsiyadir, ya’ni kommunikatsiya orqali kommunikativ kompetensiya egallanadi[71]. KYoga muvofiq til undan foydalanish jarayonida o‘zlashtiriladi. Ingliz tili o‘qitishda KYoga asosan o‘quv fanining maqsadi va vazifasi o‘rganuvchilarning ko‘pmadaniyatli va ko‘ptilli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda chet tillardan KKni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Adabiyotlarda KYoni katta yoshli til o‘rganuvchilarga va o‘rganilayotgan ingliz tilning tabiiy muhiti mavjud bo‘lgan sharoitda qo‘llash mumkinligi to‘g‘risidagi fikrlar uchraydi. Bizningcha, KYoni ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan boshlang‘ich sinflar sharoitiga moslashtirish mumkin. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh davrlarining yaqqol operatsiyalar bosqichida, ya’ni kommunikatsiya va interaksiya jarayonida kashf qilib o‘rganish bosqichida bo‘lishadi. Yosh davrlarining yaqqol operatsiyalar bosqichidagi o‘quvchilarga xos bo‘lgan muloqotchanlik va bilganlarini namoyish qilishga intiluvchanlik xususiyati

---

[71] Parveva T., Motiejunaite A., Noorani S., Riihelainen J. Structural Indicators for Monitoring Education and Training Systems in Europe 2016. Eurydice Background Report to the Education and Training Monitor. Brussels. European Commission. Education, Audiovisual and Culture Executive Agency, 2016. – p. 14-18.

inobatga olinsa, KYoni boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fikrimizni isbotlash uchun KYoning lingvistik asoslarini ko‘rib chiqamiz. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishga kommunikativ yondashuvning lingvistik asoslari

KYoning lingvistik asoslari: Ingliz tili o‘qitishda kommunikativ yondashuv A.N.Xomskiy va D.Xaymslar tomonidan lingvistik diskursga kiritilgan *kommunikativ kompetensiya* atamasi va uning zamirida rivojlantirilgan til kommunikatsiya vositasidir, degan mazmundagi nazariya asosida rivojlantirilgan[72]. KK atamasi ikki so‘zdan iborat bo‘lib, *kommunikatsiya* – fikr yoki axborot almashish; *kompetensiya* – biror soha yoki masaladan yaxshi xabardorlik va ushbu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritilishini ta’minlaydigan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuyini anglatadi. *Kompetensiya* atamasi shaxsni ma’lum sohada faoliyat yurita olishga qodir etuvchi fazilatlari, sifatlari va xos xususiyatlarini anglatadi.

Gapiruvchi (tinglovchi)ning kompetensiyasi uni modellar asosida chegeralanmagan miqdordagi gaplarni tuza (tushuna) olishga, shuningdek tillardagi o‘xshashlik va farqlarni hisobga olib, mulohazali hukm chiqara olishga qodir qilishi kerak. Shuningdek, *competence* so‘zining bellashmoq, raqobatlashmoq, musobaqalashmoq kabi ma’nolarni ifodalaydigan *compete* o‘zagiga e’tibor qaratdik.

Ushbu o‘zak tushuncha inobatga olinadigan bo‘lsa, *competence* so‘zining ma’nosi yanada teranlashadi va u ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun mutaxassisning raqobatbardoshligini ta’minlovchi zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalarni ifodalaydi.

---

[72] Canale S., Swain M. Theoretical base of communicative approaches to second language teaching and testing. – UK.: Oxford University Press, 2002. – 48 p.

Yuqoridagilarga va mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta'riflarga asoslanib, KK – ma'lum maqsadga erishish uchun samarali muloqot qilish, axborot, fikr, nuqtayi nazar, o'y, xayol va ichki kechinmalarni o'zaro baham ko'rish uchun tildan adekvat foydalana olishda suhbatdosh bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha olishni ta'minlovchi zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyidir, degan ta'rifni shakllantirish mumkin.

KKning ta'rifi Yevropa Ittifoqining «Language Learning for European Citizenship» dasturi doirasida olib borilgan tadqiqotlar (Strasburg, 1996) va CEFR – «Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash» to'g'risidagi xalqaro me'yorlardan biri bo'lgan hujjatni tayyorlash asnosida batafsil ishlab chiqildi. CEFRda kompetensiya va kommunikativ til kompetensiyasi quyidagicha ta'riflangan:

Competences are the sum of knowledge, skills and characteristics that allow a person to perform actions.

Communicative language competences are those which empower a person to act using specifically linguistic means.

KK – ingliz tili bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash layoqatidir. KK lingvislik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar majmuyidan iborat bo'lib, mazkur kompetensiyalar tarkibiga yana bir qancha kompetensiyalar kiritilgan. KKni egallanishi ingliz tili o'qitishning asosiy maqsadi sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda kommunikatsiyani asosiy o'qitish vositasi, kompetensiyani ta'lim maqsadi sifatida tan olinishiga sabab bo'ldi.

Kommunikativ kompetensiya lingvistik nazariyasining o'ziga xosligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Til ma'no ifodalash tizimidir.
2. Tilning bosh funksiyasi interaksiya va kommunikatsiyani vujudga keltirishdir.
3. Til strukturasi uning funksional va kommunikativ foydalanilishini aks ettiradi.

4. Asosiy til birliklari uning grammatik va struktural funksiyasi emas, balki diskursda aniqlanadigan funksional hamda kommunikativ ma’no kategoriyasidir.

### *O ‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Yondashuv atamasiga berilgan ta’riflarni umumlashtiring.
2. Ingliz tili o‘qitish yondashuvlari qanday farqlanadi?
3. Metod nima? Yondashuv nima? Ular qanday farqlanadi?
4. Lingvistik diskursga kiritilgan kommunikativ kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
5. Kommunikativ yondashuvga muvofiq o‘rganish ob’yekti va o‘rganish vositasi nima bolishi lozim?

### *Tavsiya etiladigan adabiytolar*


1. Canale S., Swain M. Theoretical base of communicative approaches to second language teaching and testing. – UK.: Oxford University Press, 2002. – 48 p.
2. Celce-Murcia M., Brinton D.M., Snow A.M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – USA. Boston. National Geographic Learning. 2014. – 706 p.
3. Richards J.C., Rodgers Th.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – NY.: Cambridge University Press, 2009. – 270 p.
4. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006. – 480 с.

## 4.17. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish mashqlari va ulardan foydalanishning innovatsion pedagogik texnologiyalari

**Kalit so‘zlar:** *mashqlar sistemasi, nazoratdagi mashq, kommunikativ mashq, texnologiya, pedagogik texnologiya, ped-texnologiya, kommunikasiya, interaksiya, almashtiriladigan jadval*

**Mashq** (a.– مشق – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish. Ushbu atamaga metodik adabiyotlarda quyidagicha ta’riflar beriladi:

– chet tilda bajariladigan o‘quv amali; tarkibi talab hamda material qismlaridan iborat o‘quv birligidir[73];

– til hodisalariga oid bilimlarni egallash, leksik, grammatik, talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish, mazkur birliklarni nutq vaziyatida to‘g‘ri qo‘llash amalidir[74];

– muayyan tarzda tashkil etiladigan va qayta-qayta bajariladigan, uni egallab olishga hamda bajarish usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan aqliy harakat;

– kompetensiyalar rivojlanadigan «muhit» yoki «ekosistema»[75];

– kompetensiyalar egallanishini ta’minlash vositasi[76].

Mashqning qisqacha ta’rif-tasnifidan so‘ng ingliz tili metodistlari orasida munozaralarga sabab bo‘layotgan «mashqlar sistemasi» atamasini ko‘rib chiqamiz. Hozirgacha mashqlar sistemasi uning tarkibiy qismlari, mashqlar sistemasining tasnifi borasida bir qancha lingvistik, psixolingvistik, didaktik va pedagogik tadqiqot ishlari olib borilgan (I.V.Raxmanov, V.A.Buxbinder, N.I.Gez, M.S.Ilin,

---

[73] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. 400- b.

[74] Эркаев Э.Т. Бўлажак чет тил муаллими таълимида қўлланадиган таржима машқларининг лингводидактик таснифи. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ЎзДЖТУ, 2008. – Б.11-12.

[75] Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. 21-p.

[76] Puntambekar S., Hübscher R. Tools for Scaffolding Students in a Complex Learning Environment: What Have We Gained and What Have We Missed? Educational psychologist: Lawrence Erlbaum Associates, Inc. 2005. 40(1), 1–12.

J.J.Jalolov, I.M.Berman va b.). Masalan, Raxmanov barcha mashqlarni lingvistik nuqtaiy nazardan til va nutq mashqlari nomi bilan yuritgan. V.A.Buxbinder psixolingvistik nuqtaiy nazardan mashqlarni: a) bilim o‘rgatadigan informatsion; b) til materialini o‘rgatish orqali ko‘nikma shakllantiradigan operatsion; d) nutqiy malaka hosil qilish uchun bajariladigan motivatsion guruhlarga ajratadi.

J.Jalolov, T.Sattorov va A.Soynazarov kabi o‘zbek metodistlari esa ingliz tili mashqlar sistemasini didaktik nuqtaiy nazardan shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi turlarini aniqlashgan. I.A.Gruzinskaya darsliklardagi mashqlarni fonetik-orfografik, grammatik, lug‘at bilan ishlash, bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlarga ajratadi. A.M.Jarova zamonaviy darslik majmualardagi mashqlar ratsionining boshlang‘ich sinflarda o‘quv-bilish faolligini oshirishdagi salohiyatiga e’tibor qaratgan. Sh.Ubaydullayev mashqlar sistemasini quyidagicha tasniflaydi: (1) til materialini o‘zlashtirishga ko‘ra: fonetik, grammatik, leksik mashqlar; (2) nutq faoliyati turlarini egallashda qo‘llanishiga ko‘ra: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishga o‘rgatish mashqlari; (3) lingvistik materialga ko‘ra: til va nutq mashqlari; (4) bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilishiga ko‘ra: tayyorlov va amaliy mashqlar; (5) bajarilish joyiga ko‘ra: sinfda, uyda, laboratoriyada bajariladigan mashqlar; (6) nutq shakli va usuliga ko‘ra: og‘zaki va yozma nutq mashqlari; (8) tillar soniga ko‘ra: bir tilli va ikki tilli mashqlar; (9) amallarni mustahkamlashga ko‘ra: biriktirish, o‘zgartirish – reproduktiv, tanlash, guruhlash, o‘xshatish, farqlash – retseptiv mashqlar; (10) yordamchi vositalar ishlatilishiga ko‘ra: ko‘rgazmalilik, texnika vositalari, programmalashtirish elementlari yordamida bajariladigan mashqlar; (11) o‘zlashtirish bosqichlaridan kelib chiqishiga ko‘ra: dastlabki egallash, mashq qilish, amaliyot, takrorlash, nazorat qilish mashqlari[77].

Ma’lumki, mashq tarkibiga til materiali, mavzu, matn, til texnikasi, til qoidalari kiradi. Mashqning talabi va materiali mavjud. Talab yuz foiz mashqda berilsa, material ochiq va yashirin ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Darslikda mavjud

---

[77] Убайдуллаев Ш.Н. Касб-ҳунар коллежи ўқувчиларига маданиятлараро мулоқотни ўргатиш (немис тили материалида): Пед. фан. ном ... дис. – Т.: ЎзДЖТУ, 2008. - Б. 88-89.

matn, jumla, so‘z va undagi harflarni o‘quvchi talaffuz etishi, og‘zaki nutqda qo‘llashi mashq materiali bo‘lsa, mashqlarga qo‘yiladigan talab uning sarlavhasida “tinglang va takrorlang”, “tinglang va bajaring” va h.k. kabi jumlalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Bizningcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan mashq uch tarkib: a) talab; b) uning oson va muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi tavsiya yoki ko‘rsatma; d) materialdan iborat bo‘lgani maqsadga muvofiq.

Biz mashqlar sistemasini quyidagicha shakllantirdik (2-rasmga qarang).




**2-rasm. Mashqlar sistemasi**

Dastlab o‘qituvchi nazoratida bajariladigan mashqlarni ko‘rib chiqamiz. Metodikada ingliz tili o‘rganish samaradorligini oshirishda o‘qituvchi nazorati, ya’ni mutaxassisning ko‘magi, yordami va xayrixohligini ifodalovchi «Scaffolding» (Havoza) atamasi keng qo‘lanilmoqda. Mazkur atamaga o‘zbek tilining izohli lug‘atida «qurilish yoki ta’mir ishlari uchun devor yoniga yog‘och yoki metalldan qavat-qavat qilib ishlangan vaqtinchalik qurilma»[78], deb ta’rif

[78] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 571 b.

berilgan. Lekin atamaning ingliz tilidagi muqobili ot va fe'l turkumiga oid so'z bo'lib, uning ta'rifi quyidagicha:

- *n*. a temporary structure on the outside of a building, made of wooden planks and metal poles, used by workmen while building, repairing, or cleaning the building – the materials used in scaffolding (Oxford dictionary, Collins Cobuild dictionary, Oxford American Dictionary);

- *v*. podderjivat, podpirat, nesti (na sebe) nagruzku (ABBY Dictionary).

Atama Vigotskiy tomonidan qo'llanilmagan, lekin uning «Eng yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasi ma'lum topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning Scaffolding (Havozalash) modelining ishlab chiqilishiga asos bo'lgan. Ushbu model kompetensiyalarning egallanish jarayonini osonlashtirish, ya'ni qiynchiliklarni bartaraf etish maqsadidagi o'qituvchining o'quvchiga beradigan ko'magi, yordami, ma'lum topshiriqni bajarishda duch kelinishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning oldini oluvchi pedagogik usuldir. Mazkur atama kompetensiyalar egallanishini ta'minlashning pedtexnologiyasi ma'nosini ham ifodalaydi. Ya'ni o'qituvchi:

– takrorlash orqali o'quvchining javobini to'ldiradi (Yes, a big cow.);

– xatolarni to'g'rilab javobni qayta shakllantiradi, (Yes, a cow is a farm animal.);

– o'quvchining eng yaqin rivojlanish zonasidan ozgina yuqori, lekin tushunarli tildan foydalanadi (Open the drawer. Take out the chopsticks.);

– tilning tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida imo-ishora, yuz ifodalari, jismoniy harakatlar, rasmlar va tovushlardan (brm, brm – bus; ba, ba - sheep) foydalanadi, real nutq vaziyatlarida jonli muloqot modellarini qo'llash imkoniyatidan keng foydalanadi (Look, I am opening the thermos for you. It is really hard.);

- o'quvchining eng kichik yutug'iga ham munosabat bildiradi (Very good, Madina! Nice job!);

- darsni tashkil etishda nutq namunalaridan omilkorlik bilan foydalanadi (Zohida, give out the pencils. Open your books at page 7.);

- o‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchi uchun savolni soddalashtiradi (Do you like to play with your dog or your cat? Play with cat or dog? My cat. Good. You like to play with your cat.).

Ushbu atamani kompetensiyalar egallanishini ta’minlashning pedagogik texnologiyasi ma’nosida ham qo‘llash mumkin. Buning uchun havozaning nima maqsad yoki qanday niyatda o‘rnatilishiga e’tibor qaratdik. Inshootni qurish uchun o‘rnatiladigan havoza, ya’ni qurilish konstruksiyasi qurilish jarayonini osonlashtiradi, binoning oson va tez qurib bitkazilishida muhim vazifa bajaradi, ishchining faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi, ishchiga imkoniyatidan chetdagi topshiriqni bajarish uchun sharoit yaratadi, xavfsizlikni ta’minlaydi. Shuningdek, uni istalgan vaziyat va zaruratga moslashtirish mumkin.

XX asr boshlarida chet el auditoriyalarida ingliz tilidan pragmatik maqsadlarni ko‘zlagan metodist G.Palmer almashtiriladigan jadvallar (Substitution tables) tizimini ishlab chiqdi. Har bir almashtiriladigan jadval muloqotda ko‘p uchraydigan nutq namunasidan iborat bo‘lib, o‘quvchi jadvaldagi gapda ma’lum vazifani bajaradigan so‘zni xuddi shunday vazifani bajaradigan boshqa so‘z bilan almashtirib, ko‘p miqdorda yangi gaplar tuza olgan.

Almashtiriladigan jadvallar o‘quvchining yangi so‘zlarni eslab qolishiga, tilning fonetik tuzilishini amaliy o‘rganishiga, chet tilda fikr ifodalash usullarini o‘zlashtirishiga yordam bergan. Biz almashtiriladigan jadvallardan mashqlarning oson va muvaffaqiyatli bajarilishiga ko‘maklashish vositasi sifatida foydalanishga e’tibor qaratdik. Chunki almashtiriladigan jadvallar: gapirishni osonlashtirishda; yozuvni osonlashtirishda; o‘rganilayotgan chet tilning grammatik parametrlariga monand gap tuzish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordamlashishda; tillararo interferensiyaning oldini olishda; o‘quvchining o‘qituvchi, sherigi va til materiali bilan interaksiyaga kirishishiga yordamlashishda muhim ahamiyat kasb etadi.




**3-rasm. Almashtiriladigan jadval (Substitution table)**

Masalan, darsda leksik materialni o‘rganilishi quyidagi jadval asosida osonlashtiriladi va uyga vazifa sifatida ota-ona va aka-ukalar haqida gaplar tuzish va yozish topshirig‘i beriladi (3-rasmga qarang):

Ushbu jadval mashqning oson va muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlash vositasi vazifasini o‘taydi. Ya’ni, o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan topshiriqni ushbu vosita, ya’ni jadval ko‘magida uddalay oladigan bo‘ladi. Bunda jadval topshiriqning oson va to‘g‘ri bajarilishida o‘quvchi uchun havoza vazifasini o‘taydi. Ingliz tili ta’limining dastlabki bosqichlarida struktural nutq bo‘laklarini va ma’lum talaffuz elementlarini almashtiriladigan jadvallar ko‘magida mashq qilish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tili o‘qitish amaliyotida *Scaffolding* mashq bajarish jarayonini osonlashtirish va mazkur jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizlikning oldini olish maqsadida o‘rnatiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishning samarador vositasi sifatida almashtiriladigan jadvallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki almashtiriladigan jadvallar xato qilishdan qo‘rqish sababli vujudga keladigan jur’atsizlanishning oldini oladi. O‘quvchilar o‘zlarini himoyalangan his qilishadi. Bu esa o‘z navbatida mashg‘ulotlarni stressdan xoli vaziyatda o‘tkazilishini ta’minlaydi. Umuman olganda, xorijiy adabiyotlarda uchraydigan *scaffolding* atamasini kompetensiyalar egallanishini ta’minlash maqsadiga yo‘naltirilgan pedagogik yordam, ko‘mak va vosita sifatida tushunish mumkin.

Dastlab tilga oid fonetik, leksik va grammatik kompetensiyalar egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar bajarilishini osonlashtirish haqida fikr yuritamiz. Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standarti va umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturiga muvofiq boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning asosiy amaliy maqsadi kommunikativ kompetensiyaning boshlang‘ich A1 darajada egallanishini ta’minlashdir. Amaliy maqsadga lingvistik (nutqiy va til), sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarning egallanishi orqali erishiladi.

DTSga muvofiq lingvistik kompetensiya nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv) va til kompetensiyasidan (leksik, grammatik, fonetik kompetensiyalar hamda grafika va orfografiya) iborat. O‘quv dasturida ushbu maqsaddan kelib chiqib, o‘qitish mazmunining ikki jihati farqlangan: nimani (til materialini) o‘rgatish va nima qilish (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv)ni o‘rgatish. Ya’ni til materiali (leksika, grammatika, talaffuzni)ni o‘rganish va o‘rgatish orqali nutq faoliyat turlaridan ko‘nikma va malakalarga mansub kommunikativ (axborot almashish) kompetensiyaning egallanishi ta’minlanadi.

Lingvistik kompetensiya egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar o‘z navbatida til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv) bo‘yicha ko‘nikmalar egallanishida, sotsiolingvistik kompetensiyalar egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar sinf diskursi hamda kundalik vaziyatlardagi sodda muloqot modellarini o‘rganish, O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyati haqida asosiy madaniyatlararo ma’lumotlarni egallash, tilga oid dastlabki ko‘nikmalarni mustahkamlashda, pragmatik kompetensiyalar egallanishini ta’minlovchi mashqlar esa chet tilda bayon etilgan fikrning oshkora va yashirin (biron bir axborot yoki fikrni etkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat) maqsadlarini idrok etib tushunish va ulardan foydalana olishga o‘rgatishga xizmat qiladi. Quyida tilga oid va nutqiy kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlarni alohida ko‘rib chiqamiz.

O‘qituvchi yoki diktorga taqlid qilish (*choral repetation, chain drill, repetition drill*), so‘zlarning shaklini o‘zgartirib aytish (*substitution drill*), nuqtalar o‘rniga mos (artikl, predlog, modal fe’l, olmosh) so‘z qo‘yib gaplarni to‘ldirish (*fill in the gaps*) mashqlari leksik, grammatik va fonetik kompetensiyalar egallanishida muhim ahamiyatga ega.

TPR (Total Physical Responce), Simon Says, Look and say, Bingo, Chinese whispers, Mime and gesture, Role play, Act out, Listen and draw, Cued dialogue kabi mashqlar nutqiy kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiladi.

Nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish, til mashqlarini nutq amaliyoti bilan bog‘lash va og‘zaki nutqning ilgarilashi boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitishning metodologik tamoyillari sifatida ko‘rib chiqildi. Ingliz tilida og‘zaki nutq shaklini o‘rgatishda (ruhshunoslikda «verbalizatsiya» tamoyilida) nutq namunasini o‘zlashtirishdan ish boshlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda leksika, grammatika va talaffuz birliklarining nutqiy namunalarda o‘zlashtirilishini ommaviylashtirish maqsadga muvofiq amallardan sanaladi. Jahon metodikasida nutq namunasi ingliz tili o‘qitish birligi sifatida tan olingan. (Turli mualliflar ushbu atamani o‘zlari istagan so‘zlar bilan yuritishadi: struktura, konstruksiya, model, tipovoy gap/jumla, lexical phrases, formulas, routines, pre-fabricated patterns, formulaic chunks, gambits, speech patterns, ready made sentences, prifabricated sentences, multiword lexical units, lexical collocations, fixed/semi-fixed expressions,institutionalized utterances).

Ingliz tili o‘qitish amaliyotida *drilling*, ya’ni til kompetensiyalarining egallanishiga mo‘ljallangan takrorlash va taqlid qilish (imitatsion) mashqlari ommalashgan. Ular til hodisalarining shakliy (formal), ma’noviy (semantik), qo‘llanish (funksional) qiyinchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Bunday mashqlarda bir yoki ikki til shakli (grammatik yoki fonologik strukturalar) o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida va nazoratida bir necha marotaba takrorlanadi. Bunday mashqlar asosida imitatsion (taqlid qilish) o‘yinlarini tashkil etish mumkin.

**Takrorlash mashqlari (Imitatsion)**

| | |
|---|---|
| T: I like apples. | Ps: I like apples. |
| T: I like bananas. | Ps. I like bananas. |

Nutq namunasi dastlab tayyor jumla mavqeyida, keyinchalik undagi tarkibiy qismlar almashtirilib tipovoy jumla maqomida oʻrganiladi. E.I.Passov va N.E.Kuzovlevalar oʻquvchilarning eshitganlarini esda saqlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida mashgʻulotlar soʻngida osondan qiyinga tamoyili asosida nutq namunalari asosida takrorlash mashqlari oʻtkazishni tavsiya etishadi[79].

**Almashtiriladigan takrorlash mashqlari**

| | |
|---|---|
| T: My father likes apples. | Ps: My father likes apples. |
| T: Mother | Ps: My mother likes apples. |
| T: Brother | Ps: My brother likes apples. |

**Nutq namunasi asosidagi zanjirli takrorlash mashqlari** esa oʻquvchilarda diqqat bilan tinglash va eshitganni xotirada saqlash koʻnikmalarini rivojlantiradi. Tinglab qabul qilingan axborot koʻrib qabul qilingan axborotga nisbatan xotirada uzoqroq saqlanadi.

| | |
|---|---|
| T: I like apples. | P1: I like apples and bananas. |
| | P2: I like apples, bananas, and apricots. |
| | P3: I like apples, bananas, apricots, and oranges. |

3-4 sinf oʻquvchilari bilan quyidagi murakkablashtirilgan takrorlash mashqlaridan foydalanib imitatsion oʻyinlar oʻtkazish mumkin:

**Correction and Repetition**: You have a baby sister. – No, I have a baby brother.

**Inflection:** I bought the ticket. – I bought the tickets. He bought the ticket.

**Replacement:** Helen left early. – She left early. Bob left early. – He left early.

**Completion:** I have ….own car. – I have my own car.

**Transposition:** I am hungry. – So am I. I’ll never do it again. – Neither will I.

**Expansion:** I know him. – I know him well. I hardly know him.

**Contraction:** Put your hand on the table. – Put your hand there (here).

---

[79] Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 443 с.

**Transformation:** He knows my address. – He doesn’t know my address.

**Rejoinder** (Different ways to say …..): Be polite. (Thank you. – You are welcome.) Answer the question. (What is your name? – My name is ….) Express regret. (I am sorry. Pardon. Excuse me.) Express disagreement (It is Monday today. – I disagree with you. As far as I know it is Friday today.)

**Restoration:** boys/build/house/tree – The boys built a house in the tree.

**Drilling** mashqlarining muvaffaqiyatli va oson bajarilishini ta’minlashda real nutq vaziyatlarini yaratish tavsiya etiladi. Quyidagi mashqqa e’tibor qaratamiz:

| | | |
|---|---|---|
| T: | Book. | Ps: There is a book on the table. |
| T: | Bag. | Ps: There is a bag on the table. |
| T: | Pen. | Ps: There is a pen on the table. |
| T: | Under the table. | Ps: There is a pen under the table. |

Ushbu mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilar leksik (o‘quv qurollarining nomlari) va grammatik material (preposition of place)ni takrorlash va bilimlarini namoyish qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Audiolingualizm va strukturalizmni targ‘ib etuvchi bunday mashqlar lingvistik kompetensiyaning egallanishiga, ya’ni o‘quvchida lingvistik strukturalarni egallash hamda tilning fonetik, leksik va grammatik jihatlariga qat’iy rioya etib tartibli gap tuzish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kommunikativ o‘yin mashqlari**

Tadqiqotlardan ma’lumki, bolalar taqlid qilishdan, takrorlash mashqlaridan zavqlanishadi. Bundan tashqari, takrorlash mashqlarida o‘quvchi zo‘riqmaydi. Chunki ular o‘zlarini xavfsiz va xotirjam his qilishadi. Ushbu vaziyatda o‘qituvchi buyumlar joyini almashtirib, masalan, sumkani polga, kitobni parta ustiga qo‘yish orqali mashqni oson va muvaffaqiyatli bajarilishini havozalaydi. Bunda tildan foydalanish uchun real maqsad paydo bo‘ladi va o‘quvchilar leksik hamda grammatik til materialini nafaqat mazmunli kontekstda qo‘llash, balki leksik birlik va grammatik hodisaning qanday ma’no anglatishini ham mustaqil fahmlab olish

imkoniyatiga ega boʻladilar. Buning uchun mashq kommunikativ tus olishi lozim boʻladi. Masalan:

T: What is on the table?

Ps: A book

T: Yes, a book is on the table. What is on the floor?

Ps: A bag.

T: Yes, a bag is on the floor. Where is the bag?

Ps: On the floor.

T: Yes, the bag is on the floor. Where is the book?

Ps: The book is on the floor.

**Guessing** oʻyin mashqlarida ham kommunikatsiya sodir boʻlishiga erishish mumkin. Masalan, I am thinking of a pupil? He is wearing blue jeans? Is he Nodir? No. He is taller than Nodir.

Ma’lumki, kommunikativ yondashuv ingliz tili real mazmunli va ma’noli muloqot qilish jarayonida oʻrganiladi, degan nazariyaga asoslanadi. Qachonki oʻrganuvchilar jonli kommunikatsiya va interaksiyaga qamrab olinsa, ular til oʻrganish uchun tabiiy strategiyalaridan foydalanadilar va bu ularga til oʻrganish jarayonida tildan foydalanish imkonini beradi. Mutaxassislarning fikricha, kommunikatsiya va interaksiya sodir boʻlishini ta’minlovchi mashqlar tuzishda: a) kommunikativlik (ingliz tili jonli kommunikatsiya va interaksiya sodir boʻlganida oʻrganiladi); b) vazifaviylik (ingliz tili undan foydalanib aniq vazifa bajarish jarayonida oʻrganiladi); d) tushunarlilik va ma’nolilik (ingliz tili oʻquvchi uchun tushunarli boʻlganida va ma’no anglatganida oʻrganiladi) tamoyillarini hisobga olish lozim[80].

Buning uchun b*irinchidan*, suhbat ishtirokchilarining biri ikkinchisi ega boʻlgan axborot yoki ma’lumotdan xabardor boʻlmasligi lozim. Ya’ni bugun haftaning qaysi kuni ekanligi ma’lum boʻlsa-da, «Bugun haftaning qaysi kuni?» savoliga «Seshanba» javobi olinsa, kommunikatsiya sodir boʻlmaydi. Chunki suhbat ishtirokchilaridan biri oʻzi bilmagan yangi axborotni olish imkoniyatiga ega

[80] Nunan D. Practical English Language Teaching. – NY.: McGraw-Hill, 2003. – 354 p.

emas. Bunday savollarga o‘quvchi baho olish uchun majbur bo‘lganidan rasmiy javob berish bilan kifoyalanadi. Natijada motivatsiya so‘nadi.

*Ikkinchidan*, muloqot ishtirokchilari qachon va qanday aytish, kimga nimani aytish yuzasidan mustaqil qaror qabul qilishlari lozim. Ya’ni o‘qituvchi o‘quvchi aytadigan gap mazmuni va shaklini qat’iy nazoratda ushlab turmasligi kerak.

*Uchinchidan*, kommunikatsiya va interaksiya sodir bo‘lishi uchun adresatning javob replikasiga munosabat bildirilishi talab etiladi. Ya’ni gapiruvchi tinglovchidan qandaydir javob olishi va o‘z fikrini tushunarli tarzda ifodalayotganligiga ishonch hosil qilib turishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan so‘rovnoma jadvallarini to‘ldirish mashqlari yuqoridagi kommunikativ talablarga to‘liq javob beradi. Bunday mashqlarning bajarilishida o‘quvchilar o‘zlariga berilgan topshiriqlarni, ya’ni jadvallarni to‘ldirish uchun bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar. Topshiriqni bajarish istagi o‘quvchida jonli muloqotga kirishi uchun sabab motivi vazifasini o‘taydi. Uning borligi ehtiyojni tug‘diradi, ehtiyoj motivatsiyani qo‘zg‘aydi. Jadvallarni to‘ldirish jarayonida yangi axborot olinadi va ushbu axborotni boshqalar bilan bo‘lishishga yana bir ehtiyoj tug‘iladi. Jadval ma’lumotlar bilan to‘ldirilganidan so‘ng o‘quvchilar ushbu jadvallardan foydalanib, namuna asosida gaplar tuzishadi. Namuna asosida gaplar tuzish jarayonida o‘quvchi yangi grammatik hodisani o‘zining tashabbusli nutqida qo‘llaydi va uning ma’nosini mustaqil fahmlay boshlaydi.

Mavzu yuzasidan tayyorlangan texnologik xarita (4-ilova), *substitution table* (5-ilova) va *class survey* jadvallari (6-ilova) ilova etiladi.

Almashtiriladigan jadvallardan mashqlarni oson va muvaffaqiyatli bajarilishiga yordamlashish, so‘rovnoma jadvallaridan kommunikatsiya va interaksiya sodir bo‘lishini ta’minlash vositasi sifatida foydalanish bo‘yicha innovatsion pedagogik texnologiya ishlab chiqilgan.

**Texnologiya** (*yunon*. Techne - mahorat, san’at; – muayyan jarayonni yurgazish usullari, vositalari, taktikasi va strategiyasi + logos - ta’limot) – 1. Ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarimfabrikat va shu kabilarga

ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o‘zgartirishda qo‘llanadigan usullar (metodlar) majmui[81], 2. Ma’lum mahsulotni tayyorlash jarayonida amalga oshiriladigan mexanik yoki fizik harakatlar tizimidir. Texnologiyaning mukammal bo‘lishi ta’lim jarayonida bilim, malaka va ko‘nikmalarning qisqa muddatda, ko‘p miqdorda, sifatli egallanishini ta’minlaydi. Ingliz tili o‘qitish metodikasi nuqtai nazaridan uni ikkinchi yoki ingliz tili o‘rganish yoki egallash jarayonining mexanizmi, deb talqin qilish mumkin. Ya’ni texnologiya ikkinchi yoki xorijiy tilning o‘rganilishini ta’minlash maqsadida o‘qituvchi tashabbusi, yo‘l-yo‘rig‘i va ko‘rsatmasiga muvofiq sinfxonada bajariladigan mashqlar, amallar va harakatlar tizimidir. Xorijiy adabiyotlarda texnologiyani jarayon (procedure), deb nomlash holatlari ham uchraydi. Ingliz tili o‘qitish metodikasida mazkur atamaga quyidagi ta’riflar berilgan:

– muayyan jarayonni yurgizish usullari hamda vositalari[82];

– o‘qituvchi va o‘quvchilarning ma’lum maqsadni amalga oshirish jarayonidagi mashg‘ulotlarda sodir etadigan harakatlarining rejalashtirilgan tartibi va usuli[83];

– darsdan ko‘zlangan maqsadga erishish jarayonidagi o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlik va hamjihatlikdagi faoliyati[84];

– ta’lim sharoiti va vaziyatini hisobga olib ayni natijani qayd etilishini ta’minlovchi harakatlar strategiyasi, ma’lum yondashuvni tatbiq etuvchi metodga xos topshiriq va amallar (task, activity) yig‘indisi[85].

Tadqiqotlarda didaktik, dramatik, imitatsion, syujetli, muloqotga asoslanuvchi, rolli va proeyktli o‘yinlardan foydalanishning innovatsion pedagogik texnologiyalari takomillashtirilgan. Ushbu texnologiyalarda asosiy e’tibor mashg‘ulot jarayonida kommunikatsiya va interaksiya sodir bo‘lishini

---

[81] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. 81- b.

[82] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. 416- b.

[83] Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь: более 2000 единиц. – М.: Академия, 2007. - С. 19.

[84] Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. 180- p.

[85] Freeman D.L. Techniques and principles in language teaching. – L.:Oxford University press, 2003. 12-13- p.

ta'minlashga qaratiladi. Birinchi bosqichda tilga oid kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiluvchi mashqlar bajariladi. Mashqlarning oson va muvaffaqiyatli bajarilishiga ko'maklashish uchun «Scaffolding» modelidan foydalanamiz. Ikkinchi bosqichda kommunikatsiya va interaksiya sodir bo'lishining ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Unda o'quvchilar birinchi bosqichda egallagan bilimlaridan foydalanib interaksiyaga kirishadilar. Uchinchi bosqichda o'quvchilar interaksiya jarayonida olingan axborot asosida tashabbusli nutq hosil qiladilar. Ushbu texnologiyalardan namunalar keltiramiz.

«Meals» mavzusi bo'yicha tayyorlangan «Tashabbusli nutq» syujetli o'yin texnologiyasi.

Birinchi bosqich – taqdimot bosqichi bo'lib, unda takrorlash mashqlarining oson va muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash maqsadida havoza o'rnatiladi. Ya'ni almashtiriladigan jadvaldan mashqning oson va muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi havoza sifatida foydalanamiz. Masalan, «Meals» mavzusiga oid leksik va grammatik materialning o'zlashtirilishiga mo'ljallangan mashqni oson va muvaffaqiyatli bajarilishiga ko'maklashish uchun quyidagi almashtiriladigan jadval tavsiya etiladi:

<table>
<tr><td rowspan="7">For</td><td>breakfast</td><td>I</td><td rowspan="7">have</td><td>tea</td></tr>
<tr><td rowspan="2">lunch</td><td rowspan="2">you</td><td>milk</td></tr>
<tr><td>sugar</td></tr>
<tr><td rowspan="2">dinner</td><td rowspan="2">we</td><td>bread</td></tr>
<tr><td>butter</td></tr>
<tr><td rowspan="2">supper</td><td rowspan="2">they</td><td>jam</td></tr>
<tr><td>eggs</td></tr>
</table>

T: For breakfast I have tea. Ss: For breakfast I have tea.

T: coffee Ss: For breakfast I have coffee.

Jadval o'z navbatida zanjirli dialog tuzish mashqining oson bajarilishini kafolatlaydi. Ushbu bosqichda o'quvchilar navbati bilan dialog tuzishadi.

S1: For breakfast I have tea and bread. What about you, Shoira?

S2: For breakfast I have jam and milk. What about you, Botir?

S3: For breakfast I have apple juice and bread. What about you, Shodiya?

Havozalash bosqichida o‘qituvchi (AKTdan foydalanib) doskada quyidagi jadvalni havola etadi.

<table>
<tr><td rowspan="4">For</td><td rowspan="4">breakfast<br>lunch<br>dinner</td><td rowspan="4">I<br>you<br>we<br>they<br>my parents</td><td rowspan="2">eat</td><td></td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td rowspan="2">drink</td><td></td></tr>
<tr><td></td></tr>
</table>

Jadval o‘quvchilarga yangi leksik materialni fahmlab olishda ko‘maklashadi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘zini biror narsani ichayotgan yoki chaynayotgandek ko‘rsatib, so‘z ma’nosining to‘g‘ri taxmin qilinishiga ko‘maklashadi. Ushbu mashqda leksik materialning to‘liq takrorlanishini ta’minlash uchun o‘qituvchi fleshkartalarni almashtirib turishi lozim. Til materialini o‘zlashtirish tezligiga qarab jadvaldagi ustunlar navbati bilan o‘chiriladi. So‘nggi bosqichda faqat fleshkartalar qoladi.

Ushbu bosqichdagi so‘nggi topshiriqning bajarilishini havozalash uchun quyidagi almashtiriladigan jadvaldan foydalanamiz.

<table>
<tr><td rowspan="4">What</td><td rowspan="4">do</td><td rowspan="4">you</td><td rowspan="2">eat</td><td rowspan="4">for</td><td>breakfast?</td></tr>
<tr><td>lunch?</td></tr>
<tr><td rowspan="2">drink</td><td>dinner?</td></tr>
<tr><td>supper?</td></tr>
</table>

Ikkinchi bosqich – interaksiya va kommunikatsiya bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘zaro ma’lumot almashadilar va hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Jamoalarga so‘rovnoma jadvallarini to‘ldirish topshirig‘i beriladi. Jadvallarini to‘ldirish maqsadida o‘quvchilar quyidagi tartibda dialog tuzishadi.

*S1: Nodira, what do you eat (drink) for breakfast (lunch, dinner, supper)?*

*S2: For breakfast I eat bread.*

| | breakfast | | lunch | | dinner | | supper | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | eat | drink | eat | drink | eat | drink | eat | drink |
| *Nodira* | *bread with jam* | *tea with sugar* | *hot dog with salad* | *apple juice* | *soap with vegetables* | *tea with lemon* | *meat balls with cookies* | *orange juice* |
| *Bobur* | | | | | | | | |

Ushbu bosqichda to‘ldirilgan jadval kommunikatsiya sodir bo‘lishini havozalaydi. O‘quvchilar jadval yordamida o‘z tashabbuslari bilan axborot taqdim etishadi. *For breakfast Nodira eats bread with jam. For lunch she eats hot dog with salad. For dinner she eats soup with vegetables. For supper she eats cookies with fruits.*

O‘qituvchi to‘ldirilgan jadvaldagi yangi so‘zlar miqdoriga asosan jamoalarni baholaydi.

**Uy hayvonlari mavzusiga oid til materialining o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan kommunikativ, syujetli, rolli o‘yin texnologiyasi**

«**Lost property office**» (Topilmalar idorasi)

Daraja: A1/2 Sinf: 3-4 O‘quvchilar soni: 15 - 16 ta

**Amaliy maqsad:** tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini muloqot jarayonida qo‘llash malakalarini rivojlantirish, uy hayvonlari haqida ma’lumot (rangi, yoshi, ismi) berishni o‘rganish, yashash manzil va telefon raqamni aytishni o‘rganish.

**Umumta’limiy maqsad:** til haqidagi yangi sodda ma’lumotlarni o‘zlashtirish, muloqot madaniyatini yuksaltirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Chet tilda salomlashish, xayrlashish, predmet va hodisalarning nomlarini bilish va aytish, hamkorlikda faoliyat olib borish ko‘nikmasini hosil qilish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion jihatlarini rivojlantirish, me’yordagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish orqali o‘quvchi tafakkuri va his-tuyg‘ularini rivojlantirish.

**Til materiali:** How can I help you? Excuse me. My dog (cat) is missing. Tell me about your dog (cat). What is your telephone number? What is your home address? Here you are. Thank you. Not at all.

**Ta’lim vositalari:** «Lost property office» yozuvi tushirilgan peshtaxta, telefon, kuchuk, mushuk, buzoq, qo‘zichoq, uloqcha, bo‘taloq kabi yorlig‘iga ismi va yoshi yozilgan o‘yinchoq yoki fleshkartalar, murojaatlarni qayd qilish blankalari, harbiy nishon (harbiy forma imkoni bo‘lsa).

**Tashkiliy qism:**

Birinchi bosqich. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga qanday o‘yin o‘ynalmoqchi ekanligini batafsil tushutiradi. O‘qituvchi o‘zini topilmalar idorasi xodimi, deb tanishtiradi va o‘ziga ikkita (yoki to‘rtta) yordamchi xat tashuvchi (mailman) tanlaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘yinchoqlarni tarqatadi va ularning rangi, ismi va yoshini eslab qolishlari zarurligini tushuntiradi. Barcha o‘quvchilar o‘yinchoqlarni eslab qolganlaridan keyin uni o‘qituvchiga qaytarib berishlari kerak. O‘quvchilar navbati bilan o‘z o‘yinchoqlari haqida gap tuzishadi (e.g.,This is my dog. He is black. He is 2 year sold.) va topilmalar qutisiga solib qo‘yishadi.

Ifoda birliklarini takrorlash bosqichi (Drilling stage). O‘quvchilarga nutq namunalari tanishtiriladi. O‘quvchilar nutq namunalarini o‘qituvchidan keyin takrorlashadi. Excuse me. My dog is missing. He is black. He is two years old. His name is Olapar. My telephone number is ……. My address is …… street ….. . …… district, ……. region.

Ma’lumot to‘ldirish bosqichi (Information gap stage)

Barcha o‘quvchilar o‘z ismlarini, telefon raqamlarini va yashash manzillarini avvaldan tayyorlab qo‘yilgan (uchburchak yoki to‘rtburchak) shaklidagi qog‘ozga o‘qituvchi ko‘magida yozishadi va yozuv ko‘rinib turgan tomonini o‘qituvchiga burib qo‘yishadi.




Barcha o‘quvchilar o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni yozib bo‘lganlaridan keyin o‘qituvchi o‘yinni boshlashi mumkin.

O‘quvchilar navbati bilan ichki ishlar boshqarmasiga telefon qilishadi va quyidagi tartibda suhbatlashishadi:

| **Policeman** | **Pupil** |
|---|---|
| *Good morning, this is lost property officer Mr. Green.* | *Hello, this is …….* |
| *What can I do for you ……..?* | *My dog is missing.* |
| *Oh, I am so sorry. Tell me about your dog.* | *His name is …......*<br>*He is ……..... (color).*<br>*He is ..... years old.* |
| *What is your address?* | *.......... ……street ....*<br>*…………… district,*<br>*…………… region.* |
| *What is your telephone number?* | *My telephone number is ………….* |
| *OK, donot worry. We will find your dog verys oon.* | *Thankyou, sir.* |

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan suhbatlashish jarayonida ular haqidagi ma’lumotlarni avvaldan tayyorlab qo‘yilgan jadvalga kiritib boradi.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Name | *Eshboyeva* | *Saodat* | |
| | Missing property | *Pet: dog* | *Color: black* | *Age: 2* |
| | Address | *……….street …..,*<br>*………….. village* | *…….. district* | *………..region* |
| | Telephone number | *+98 998* | *000 00 00* | |

O‘qituvchi barcha o‘quvchilar bilan suhbatlashib bo‘lganidan keyin, ular haqidagi ma’lumotlar yozilgan varaqlarni yordamchilariga beradi. Yordamchilar esa varaqlarga qarab yo‘qolgan uy hayvonlari kimga tegishli ekanligini aniqlashadi.

Xat tashuvchilar o‘yinchoqlarni o‘z egalariga eltib berishadi va quyidagi tartibda dadialog tuziladi.

*Postman: Good morning.*

*Pupil: Good morning.*

*Postman: Are you …… ?Is this your dog?*

*Pupil: Yes it is my dog.*

*Postman: Here you are. Please, sign here.*

*Pupil: OK. Thank you.*

*Postman: Not at all.*

Tavsiyalar: ushbu kommunikativ o‘yin texnologiyasini 4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazish ham mumkin. O‘qituvchi mashg‘ulotga kreativ yondashishi va mashg‘ulot mobaynida improvizatsiya qilishi tavsiya etiladi. O‘yinlarni muvaffaqiyatini ta’minlash uchun o‘qituvchilardan turli mavzularga mos jamlamalarni to‘plash talab etiladi. Bunday jamlamalar jonli til materiali vazifasini bajarib, o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlaydi. O‘yinlarga o‘zgartirish kiritish ham mumkin. Masalan, uy-hayvonlari emas, balki shaxsiy buyumlar, transport vositalari yoki o‘quv qurollari kabi mavzularni ham tanlash mumkin. O‘yin jarayonida ishlatiladigan nutq namunalari mustahkam o‘zlashtirib olinganidan keyin ilg‘or o‘quvchilarni bosh rolga taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Nutq faoliyati asosiy turlarining o‘zaro munosabatini ta’minlash maqsadida gapirish, tinglash, o‘qish va yozuv bir-biri bilan uyg‘unlashib ketadi. O‘quvchi gapirganda qo‘llagan birlikni tinglab va o‘qib tushuna oladi, yozuvda ham ishlata oladi. Ko‘rinib turibdiki, til materiali ma’lum natq faoliyati turidan boshqasiga o‘tib yuradi.

Ma’lumki, I-II sinflarda mashg‘ulotlar o‘yin asosida tashkil etilib, asosiy e’tibor tinglab tushunish va gapirish nutq faoliyat turlaridan ko‘nikma va malakalar egallanishiga qaratiladi. Ingliz tili o‘qitishga kommunikativ yondashuvda jonli nutq vaziyatlarini sinf mashg‘ulotlariga bog‘lash talab etiladi. Ingliz tilini boshlang‘ich sinflarda o‘qitish nazarda tutiladigan bo‘lsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar va ularning tevarak-atrofida sodir bo‘ladigan nutq vaziyatlarini sinf mashg‘ulotlariga olib kirish lozim.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tildan foydalanidgan vaziyatlari katta yoshlilar duch keladigan nutq vaziyatlaridan farq qiladi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi oila a’zolari bilan ko‘proq yo‘qotib qo‘ygan o‘quv qurollari, maktabda qaysi fandan qanday baho olganligi, o‘qituvchisi qanday topshiriq berganligi haqida gaplashsa, sinfdoshlari bilan uyga berilgan vazifaning bajarilishi, oila a’zolari, ular bilan sodir bo‘lgan voqealar, yangi xarid qilingan kiyim, tayyorlangan taom, tomosha qilingan multfilm haqida gaplashadi. Darsda esa bir-birlaridan ruchka, qalam yoki o‘chirg‘ich so‘rashadi, kimdir kitobini uyda qoldirganligi haqida gapirsa, kimdir darsda saqich chaynab o‘tirgan o‘quvchi haqida muallimni xabardor qiladi yoki bir-birlaridan shikoyat qilishadi (Mrs, John is cheating!).

Chet tilni boshlang‘ich sinflarda o‘rganish va o‘rgatishga kommunikativ yondashuv o‘smirlarga va kattalarga ingliz tilio‘rgatish kommunikativ yondashuvidan farqlanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘zlarini shifokor yoki uchuvchi sifatida tasavvur qilib rol o‘ynashni yoqtiradilar. Ular hech qachon bunday vaziyatga tushmagan bo‘lsalar-da, o‘zlarini o‘t o‘chiruvchi yoki shifokor qiyofasida ko‘rishdan zavqlanishadi. Shu sababli dramalashtirilgan, muloqotga yo‘naltirilgan, syujetli-rolli o‘yinlar tashkil etish orqali birinchi sinflarda

kommunikativ mashg‘ulotlar tashkil etish mumkin. I-II sinf o‘quvchilari uchun har bir mavzu bo‘yicha shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va kommunikativ o‘yin mashqlari tuzib chiqililgan.

### *O‘quv-metodik topshiriqlar*

1. Mashq deganda nimani tushunasiz?

2. Nazoratdagi va kommunikativ mashqlarning bajarilishidan ko‘zlangan maqsadlarni aniqlashtiring.

3. “Texnologiya” tushunchasini metodik tahlil eting.

4. Skafolding atamasiga berilgan ta’riflarni umumlashtiring.

5. Metodik terminlar “pedagogik texnologiya” va “ped-texnologiya”ni ifodalaydigan tushunchalar talqinini bayon eting.

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar*


1. Brown.D.H. Teaching by principles. An Integrative Approach to Language Pedagogy. – NY.: PEARSON Longman, 2007. – 570 p.

2. Linse C.T. Practical English Language Teaching: Young Learners. – New York: McCraw-Hill, 2005. – 216 p.

3. Freeman D.L. Techniques and principles in language teaching. – L.:Oxford University press, 2003. – 200 p.

4. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь: более 2000 единиц. – М.: Академия, 2007. - 460 с.

# ILOVALAR

1-ilova.

**Chet til bo‘yicha A1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar**

| Kompetensiyalar | | | Bilish va qo‘llay olish |
|---|---|---|---|
| Lingvistik kompetensiya | Nutqiy kompetensiya | Tinglab tushunish | — sodda yo‘riqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi;<br>— sodda savollar va gaplarni tushuna oladi;<br>— sodda she’rlar, hikoyalar, qo‘shiqlarni tushuna oladi;<br>— tanish kontekstlarda sodda autentik nutqni tushuna oladi. |
| | | Gapirish | Dialog<br>— ma’lumot so‘ray va ma’lumot bera oladi;<br>— yordam so‘rab murojaat qila oladi;<br>— sodda savol-javob qila oladi;<br>Monolog<br>— yashash joyi, oila, do‘stlari va tanishlari haqida gapira oladi;<br>— o‘zini tanishtira oladi, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari haqida gapira oladi;<br>— tanish mavzuda juda qisqa taqdimotlar qila oladi. |
| | | O‘qish | — tanish mavzularda ma’lumot beruvchi matnlarning asosiy mazmunini tushuna oladi;<br>— joy yoki insonlar tasvirlangan qisqacha matnni (zarur hollarda ko‘rgazmalardan foydalangan holda) tushuna oladi; sodda xabarlarni (masalan, oddiy xatlar, elektron xatlar) tushuna oladi;<br>— sodda yozma yo‘riqnoma yoki ko‘rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi. |
| | | Yozuv | — shaxsiy sodda xabarlarni (tabriklar, qaydlar, elektron xatlar) yoza oladi;<br>— shaxsiy ma’lumotlar (ism-sharif, yashash manzili va hokazo) bilan sodda anketani to‘ldira oladi;<br>— sodda she’r va hikoyalar yoza oladi. |
| Lingvistik kompetensiya | Til kompetensiyasi | Fonetik kompetensiya | — chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz eta oladi;<br>— so‘z va gap urg‘usini to‘g‘ri qo‘ya oladi;<br>— kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya modellarini farqlay biladi va ulardan foydalana oladi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Leksik kompetensiya | — o‘zlashtirilgan leksik vositalarni kontekst (matn)da qo‘llay oladi;<br>— mavzuga oid sodda so‘zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay oladi;<br>— ba’zi baynalmilal so‘zlar va turdosh so‘zlarni farqlay oladi hamda ularni qo‘llay oladi. |
| | | Grammatik kompetensiya | — kommunikativ vaziyatlarda sodda grammatik va sintaktik tuzil-malarni qo‘llay oladi;<br>— so‘z va so‘z birikmalarini “va” bog‘lovchisi bilan bog‘lay oladi;<br>— fe’l shakllari va sodda payt ravishdoshlaridan foydalangan holda gaplarni to‘g‘ri bayon qiladi, hikoyalar hamda voqealarni to‘g‘ri ketma-ketlikda ta’riflay oladi. |

**Chet tili bo‘yicha A1 daraja uchun ta’lim mazmuni**

<table>
<tr><th colspan="3">Kompetensiyalar</th><th>TA’LIM MAZMUNI</th></tr>
<tr><td colspan="3">Mavzular</td><td>Kundalik hayotga oid mavzular (shaxsiy ma’lumot, oila haqida ma’lumot, bo‘sh vaqtni o‘tkazish va hokazolar).<br>Ijtimoiy hayotga oid mavzular (atrof-muhit bilan ijtimoiy aloqalar).<br>Ta’limga oid mavzular (maktab, o‘qish va o‘qitish, maktabdagi fanlar va hokazolar).<br>Ijtimoiy-madaniy mavzular (O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar (masalan, Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Fransiya va boshqalar) madaniyatlarini qiyoslash va taqqoslash).</td></tr>
<tr><td rowspan="4">Lingvistik kompetensiya</td><td rowspan="4">Nutqiy kompetensiya</td><td>Tinglab tushunish</td><td>Tinglash uchun mo‘ljallangan matnlar: darsga oid ko‘rsatmalar va o‘qituvchi nutqi ertaklar va hikoyalar o‘rganilayotgan til sohibining tasmaga yozilgan nutqi (qo‘shiqlar, she’rlar, dialoglar va boshqalar).</td></tr>
<tr><td>Gapirish</td><td>Dialogik nutq:<br>Salomlashish, o‘zini tanishtirish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, ma’lumot olish va berish, uzr so‘rash, tabriklash, taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish.<br>Monologik nutq:<br>voqea-hodisa yoki tajribani sodda bayon qilish, qisqa hikoyalarni gapirib berish, yoshiga mos mavzuda sodda va kichik taqdimotlar qilish.</td></tr>
<tr><td>O‘qish</td><td>Faqat o‘zlashtirilgan til materialidan tashkil topgan qisqa matnlar, tarkibida, ma’nosini taxmin qila olish mumkin bo‘lgan ba’zi yangi so‘zlardan iborat sodda matnlar, muayyan ma’lumotni qidirib toppish, bo‘sh vaqtda sodda hikoyalar va she’rlar o‘qish.</td></tr>
<tr><td>Yozuv</td><td>Husnixat, orfografiya, sodda xabarnomalar yozish (tabriklar, eslatmalar, xatlar va boshqalar), sodda anketalarni shaxsiy ma’lumot bilan to‘ldirish</td></tr>
<tr><td colspan="3">Kompetensiyalar</td><td>TA’LIM MAZMUNI</td></tr>
<tr><td>Lingvistik kompetensiya</td><td>Til</td><td>Grafika va orfografiya</td><td>Alifboning barcha harflari, harflarning asosiy kombinatsiyalari, tovush va harflar mutanosibligi; harflarni o‘qish va yozishning asosiy qoidalari.</td></tr>
</table>

| | | | |
|---|---|---|---|
